M. UMAROVA, X. XAMRAKULOVA,
R. TOJIBOYEVA

O‘QISH KITOBI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
3- sinfi uchun darslik

4- nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2019

http://eduportal.uz

UO‘K: 373.3.016:821-82(075.2)
KBK 81.2-93
O‘ 97

Mas’ul muharrir: **Ulug‘bek Hamdamov** – filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

Baxtiyor Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor;
Qimmatxon Mamatqulova – RTM boshlang‘ich ta’lim bo‘limi metodisti;
Ma’mura Zohidova – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o‘quv-metodika bo‘limi bosh mutaxassisi;
Fotima Karimova – Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:

 – savollar

 – topshiriqlar

 – savol va topshiriqlar

 – topishmoqlar

 – uyga vazifa

 – darsning tugashi

 – maqollar

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-349-3

© M. Umarova va b.
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2019

http://edu.portal.uz

BIZ BUYUK YURT FARZANDIMIZ



Vatan madhi

Orif To‘xtash

Dunyoda yurtlar ko‘p, turli xalqlar yashaydi. Lekin har bir odam bolasining aziz bilgan tuprog‘i bor.

Bu tug‘ilib o‘sgan joyi, o‘z Vatanidir.

Bizning Vatanimiz esa – jonajon O‘zbekiston! Biz mana shu aziz zamin farzandlarimiz! Biz ulug‘ bobolarimizdan meros bu azim tuproqning har zarrasini ko‘zga surtamiz, muqaddas hisoblaymiz!

Aslida, yer yuzasini qamrab turgan barcha hududning tuprog‘i bir xil. Biroq uni tabarruk qilguvchi shu zamin egalaridir.

http://edu.ziyonet.uz

Bizning O‘zbekiston deya atalmish serquyosh Vatanimizda ne-ne mutafakkirlar, qanchadan qancha aziz-u avliyolar, olim-u fuzalolar kamolga yetmadi, deysiz?! Shuning uchun ham bu zaminni dunyo ahli buyuk deya e’tirof etishadi. Shu ma’noda biz buyuklar yurti farzandlarimiz. Bundan faxrlanamiz. Ammo unutmasligimiz ham kerakki, dunyolarga dars bergan ulug‘ bobokalonlarimizning tabarruk qoni bugun bizning tomirlarimizda jo‘sh urmoqda!

Aziz bolajon! Sizning safingizda iqtidorsiz yoki uquvsiz bolaning o‘zi yo‘q. Kelajak orzular sari eltguvchi barcha imkoniyatlarga egasiz!

1. Nima uchun matn „Vatan madhi“ deb nomlangan?
2. Siz Vataningiz ravnaqi uchun qanday hissa qo‘shmoqchisiz?

Yurtim jamoli

Dilshod Rajab

Yurtimizni aylandik,
Maqtovga so‘z sayladik:
Toshkent asli bosh shahar,
Bag‘ri nur – quyosh shahar.

Sirdaryo – Gulistonim,
Jizzax – bog‘-u bo‘stonim.

http://edu.ziyo.uz

Maydonlarda mard kelgan,
Qashqadaryo, Surxonim.

Nuroniy Samarqandim
Yer yuzining sayqali.
G‘urur qo‘shar ko‘ksiga
Temur bobom haykali.

Ilm uyi Buxoro,
Har toshi hikmat, ma’no.
Xorazmning savlat-u
San’atiga tasanno.

Qoshi qora, qalbi oq,
Qadrdon qoraqalpoq.
Navoiy nomin olib,
Oltin berar bu tuproq.

Farg‘ona-yu Andijon,
Namangan – shohi gulim.
Nomin tilga olsang bas,
Ochilar bahr-u diling.

Nomi dilga darmonim –
Ulug‘ O‘zbekistonim.



She’rda nomlari qayd etilgan shaharlar haqida nimalarni bilasiz?



She’rni yod oling.



http://eduportal.uz

Yangi uy

Hamidulla Murodov

(Hikoya)

– Qishlog‘imiz chekkasidagi eski bog‘ o‘rnida g‘ishtli, chiroyli uylar quriladigan bo‘libdi!

Bu gapni sinfdoshimiz Xurshidbek topib keldi. O‘rtoqlari birpasda uni o‘rab olishdi.

– Qanaqa uylar deding?

– Kimlar qurar ekan?

– Kimlar turadi yangi uylarda?..

– Kim quradi demay, quradiganlar kim ekan, deb so‘ranglar. Bilasizmi, ular kim? – Sinfga kirib kelgan ustozlari Orif aka bolalarning savollariga savol bilan murojaat qildi.

– Bilmay turibmiz-da, ustoz! Bilolmay turibmiz...

– Unda gapimni yaxshilab eshitib olinglar. Bu quriladigan uylar qishlog‘imizning uyga ehtiyoji bor yosh oilalariga ekan. Qurilayotgan uylar siz-u bizniki. Endi kimning bo‘sh vaqti bo‘lsa, o‘qishdan keyin yordamga chiqsin. Quruvchilarga g‘isht, qum, tuproq yetkazib turishda baholi qudrat yordam berasizlar.

Shu kuni darsdan keyin Xurshidbek ko‘chasidagi o‘rtoqlari bilan qurilish bo‘layotgan joyga borishdi. Bolalarni ko‘rib Bunyodbek amaki juda xursand bo‘ldilar.

http://edu portal.uz



– Sizlarni o‘zim yordamga chaqirmoqchi bo‘lib turgandim, – dedilar. – Yaxshiyam o‘zingiz kelib qoldingiz. Endi gap shu, uylar qishloqniki, demak, sizlarniki ham. Shunday ekan, ustalarimizga g‘isht, qum, tuproq tashib berib tursangiz xursand bo‘lardik.

– Yordam beramiz! Yordam beramiz!

Yoz tugamay, yangi uylar qad rostlab, bir chekkadan bita boshladi. Uyning egalari ko‘chib kela boshlashdi. Bu orada yangi o‘quv yili boshlandi. Bir hafta o‘qigan ham edik, bir kuni Xurshidbekning dadasi Bunyodbek amaki oila a’zolariga quvonchli xabarni aytdi.

Xurshidbeklar oilasi ham yangi uyga ko‘chadigan bo‘lishdi.

http://darsportal.uz

Xurshidbek keyin bilsa, yosh oilalar qatori yangi bitgan uylardan biri ularning oilasiga berilgan ekan.

1. Xurshidbek bolalarga qanday yangilikni yetkazdi?
2. Bunyodbek amaki nima uchun xursand bo‘ldi?

Vatan desam...

Ulug‘bek Hamdam

Vatan desam, ko‘zimga
Qatra-qatra yosh kelar.
Yosh ichida miltirab,
Buyuk bir bardosh kelar!



Vatan desam, tilimga
Temur-u Bobur kelar.
Moziylarni uyg‘otib,
Do‘mbira, tanbur kelar!

Vatan desam, yuragim
Navolarga to‘lgaydir.
Niyatni yaxshi qilsak,
Navoiy tug‘ilgaydir!

Vatan – muqaddas dargoh,
Imon kabi saqla sen!

http://eduportal.uz

Otang bergan isming-u
Onang sutin oqla sen!

Vatan degin, dilbandim,
G‘aflatlarda yotma hech.
Vatan bu o‘zligingdir,
Yot ufqqa botma hech!

Vatan desang, o‘yingga
Ulug‘ shu xalqing kelsin!
Shu xalqing osmonida
Quyoshdek balqqing kelsin!..

Vatan degin, dilbandim!..



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Siz Vataningizni qanday ta’riflaysiz?
3. Vatan deganda nimalar ko‘z oldingizga keladi?



Opa-singil daryolar

Go‘zal Begim

(Ertak)

1

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, uch opa-singil daryolar bo‘lgan ekan. Kattasining ismi Amudaryo, o‘rtanchasiniki Sirdaryo va kenjasining ismi Zarafshon ekan. Amudaryo kattasi bo‘lgani uchun Tojikistonning Panj viloyatidan Orol dengizigacha bo‘lgan masofada yumushlarni bajarar, hammaga shirindan shakar zilol suvini

http://eduportal.uz



ulashar ekan. Amudaryoni barcha dov-daraxtlar, giyohlar va ekin-tikinlar yaxshi ko‘rar ekan. U Qoraqum va Qizilqum cho‘llarini ikkiga ajratib turarkan. O‘zbekiston orqali turkman eliga o‘tib, suv tashir, qaytib kelib, Orol dengiziga quyilarkan. Uning shahd-u shiddati juda mo‘l, ko‘plab ishlarni yolg‘iz o‘zi bajarar ekan.

Sirdaryo ham go‘zallikda opasi Amudaryodan qolishmas ekan. Uning qaddi raso, yuzlari tiniq, sochlari Amudaryoday shovullab turarkan. Sirdaryo Norin va Qoradaryo kabi daryolarning birlashishidan hosil bo‘lib, bu sirni hammadan sir tutib yasharkan. Chaqqonlikda opasi Amudaryoga teng kelolmasa ham, harakatdan to‘xtamas ekan. Ancha-muncha yumushlarda opasiga yordamchi ekan.

http://fayl.ziyonet.uz

Kenjaoy Zarafshon esa jajji bo‘lgani uchun har bir qilig‘i o‘ziga yarashar ekan. Uch opa-singil juda ahil, inoq, halol mehnat qilib kun kechirisharkan. Biri daraxtlarga suv quysa, ikkinchisi tuproqni yashnatar ekan. Uchinchisi esa havoning namligini bir maromda ushlashga hissa qo‘sharkan. Ayniqsa, opalari Amudaryo „Yaxshilik qil-u, suvga ot, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur“, degan maqolni tez-tez takrorlar ekan. Bu naql Sirdaryo va Zarafshonning quloqlariga tilla zirakday taqilibdi. Opa-singil daryolarning bag‘ri kengligidan suv-osti dunyosining o‘simlig-u jonivorlari xotirjam maktabga, ishga qatnar ekan.



1. Opa-singil daryolar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ertakdagi maqolni qanday tushundingiz?



2

Uch opa-singil jahl, g‘azab nimaligini bilmas, shuning uchun atrofdagilar bir-birini ularning ismi bilan duo qilgani qilgan ekan:

– Shahding, qudrating Amudaryoday bo‘lsin, Sirdaryoday uyingga baraka kirsin, Zarafshonday shonli, shavkatli bo‘lgin!

O‘zlariga qiyosan qilingan duolar opa-singil daryolarga juda ham yoqarkan. Ular shu bois ham o‘z ahdlaridan qaytmay, zavqlanib naf

http://edu.portal.uz

keltirishda davom etishibdi. Olis-olislarda o‘z qavmdoshlari o‘zanidan toshib, haddidan oshib, toshqinlarga sababchi bo‘lib odamlarning, tabiatning umriga zomin bo‘lishganini eshitishsa, qattiq xafa bo‘lisharkan.

Uch opa-singil ko‘nglining ochiqligi, saxiyligi, yaxshilikdan tolmasligi, g‘azab va qahrdan yiroqligi bois kundan kunga yasharib, umri uzayaveribdi. Ular bilan do‘st bo‘lib yashayotgan odamlar esa hali ham farzandlariga Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon degan ismlarni qo‘yib, daryolarni farzandlariga qo‘shib suyarkanlar. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon esa toza qalbini ona zaminga qo‘yib, olis-olis masofalarga oqishdan tolmay elga xizmatda ekan.

1. Odamlar bir-birini qanday duo qilishar ekan?
2. Siz yana qanday daryolarni bilasiz?

Birlikda baraka bor.

Obod mahalla bo‘ylab

Kavsar Turdiyeva

Bizning mahalla-yu ko‘y,
Har bir xonadon va uy,
Mehrlarga to‘lmoqda,
Shundan obod bo‘lmoqda.

Unda har bekat, guzar,
Insonlar bilan go‘zal.

http://eduportal.uz

Gullarga to‘lgan rasta,
Tutar sizga guldasta.

Bizda doim qaynar ish,
Har soatda o‘zgarish.
Unda bilim o‘chog‘i,
Quvnoq maktab quchog‘i.

Mahalla bolalari
Tarqalib turli yoqqa,
O‘ynashar ko‘zboylag‘ich,
Bekinmachoq va soqqa.

Mahallam ajib ko‘rkam,
U ham bir kichik o‘lkam.



1. Mahalla bolalari nimalar bilan shug‘ullanadilar?
2. Mahallani Vatan desa bo‘ladimi?



O‘zingiz yashayotgan mahalla haqida kichik matn tuzing.



Vatanni tanish

Muhabbat Hamidova

Mening ismim Firdavs. Qishloqda tug‘ilganman. Dadam bilan oyijonim meni erkalatishadi, biroq buvim bilan buvam tergab turishadi. Bizning kattakon bog‘imiz bor. Unda olma, gilos, shaftoli, anjir – qo‘yingki, barcha

http://edu.portal.uz

mevali daraxtlar o‘sadi. Bu daraxtlarni hammasini buvam o‘z qo‘llari bilan ekkanlar.

Buvamning aytishlaricha, har narsaga yoshlikdan mehr qo‘yish kerak ekan. Ana shunda bolaning imoni but bo‘ladi, Vatanni taniydi, uning qadriga yetadi. Uning nima ekanligini yurakdan his qiladi. Vatan himoyasiga ham tayyor turadi, deydilar dadamga takror-takror.

– Buva, Vatan degani nima? – so‘rayman qulog‘imga bot-bot chalinadigan bu so‘zni tushunib olish uchun.

– Vatan bu men sen bilan har kuni mehnat qiladigan bog‘, qo‘shni bolalar bilan chopqillab o‘ynab yurgan ko‘chang, senga bilim berayotgan maktabing, oxir-oqibat, qarindosh-urug‘, butun millatimizga makon bo‘lgan yurt mustaqil O‘zbekistonimizdir. Imoni butun odam Vatanni yurakdan his qiladi, ardoqlaydi. Kerak bo‘lsa, ko‘ksini qalqon qilib, himoya qiladi.

Buvamning so‘zlari meni sehrlab qo‘yadi.

– Buvajon, bog‘imizdagi daraxtlarni, gulzorimizdagi gullarni yaxshilab parvarishlasam, Vatanni parvarishlagan bo‘lamanmi? – so‘rayman hayajonlanib.

– Albatta, axir Vatan ostonadan boshlanadi, – deydilar buvam meni bag‘rilariga bosib.

http://eduportal.uz

1. Firdavsning bobosi bog‘da qanday yumushlarni bajaradi?
2. Bobo va nabira nima haqida suhbatlashdilar?

Vatan ostonadan boshlanadi.

Savollarga javoblar

Xolmurod Safarov

– Til nimaga berilgan
Qizlar bilan bolaga?
– Tongda salom aytgani
Ota bilan onaga.
Xafa bo‘lib gohida
Qovog‘ini uyganda,
Shu payt shirin so‘z kerak,
Qalbiga nur quyganda.

– Qo‘l nimaga berilgan?
– Yerga don-dun sochgani.
Erta bahor kelganda,
Bog‘ jamolin ochgani.
Turli hunar o‘rganib,
Turfa kasbni bilishga.
Yiqilganni turg‘azib,
Savob ishlar qilishga.

– Quloq nega berilgan?
– Yaxshi gapni uqishga.
Ota bilan onaning
So‘zin yodda tutishga.



http://edu portal.uz

Donolar nasihatin
Ilib olsa qulog‘ing,
Ishing kelib o‘ngidan,
Chopqir bo‘lar oyog‘ing.

– Aql nega berilgan?
– Halol mehnat qilgani.
Nafsga qul bo‘lmasdan,
Poklikka intilgani.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Inson a’zolarining vazifasini bilib oling.



She’rni yod oling.



Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi

Xudoyberdi To‘xtaboyev

(Hikoya)

Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli so‘z aytish bahsini o‘tkazmoqchi bo‘libdi. O‘sha kundan boshlab chiroyli so‘z, go‘zal so‘z degan gaplar odamlarning og‘zidan tushmay qolibdi. Ana shu gaplar bahsga aylanib, katta bir kengash o‘tkazilibdi. Kengash butun mamlakatga e’lon qilingan ekan. Bir dehqon yigit men ham qatnashay, sovringa ega bo‘lsam, bir qo‘shho‘kiz olardim, deya niyat qilibdi. Shohona darvoza oldiga kelib, qo‘lidagi o‘roq, yelkasidagi ketmonni yerga qo‘yib, „Bismilloh“, deb ichkari ki-

http://edu.portal.uz

rib, safga qo‘shilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan. O‘z taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan o‘tirgan shohga qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, ta’zim qilib salom yo‘llabdi. Bahsni saroy a’yonlari baholab o‘tirishar ekan. Shunda bahsda qatnashayotgan bir kishi o‘rnidan turib:

– Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yoradigan hakamlar qarsak chalib olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi.

Navbat dehqon yigitga kelibdi.

– Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qo‘lini ko‘ksiga qo‘yibdi. Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa o‘rnidan turib qarsak chalibdi.

– Shohanshohim, – deb so‘rabdi hakamlardan biri. – Birinchi ishtirokchi o‘z so‘zini aytganida yengilgina qarsak chaldingiz, ikkinchi qatnashchi so‘zini aytganida esa o‘rningizdan



http://eduportal.uz

turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – hakamlarga ayting, – debdi.

– Aslida ikkovlari ham foydali so‘zni aytishdi, lekin birinchisi „yomonlik“ deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek bo‘ldi. Ikkinchisi yaxshilik degan so‘zni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek bo‘ldi. Shuning uchun o‘rnimdan turib qarsak chaldim. To‘g‘ri so‘zni, chiroyli so‘zni yoqimli qilib aytgani uchun birinchi sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.



1. Musobaqa nima maqsadda tashkil etildi?
2. To‘g‘ri, chiroyli so‘zni yoqimli qilib aytish deganda nimani tushunasiz?
3. Atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish uchun nima qilish kerak?



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Vatanimizni ulug‘lovchi fikrlar bo‘limdagi qaysi asarlarda berilgan?
2. Buyuk insonlar avlodi bo‘lish uchun nimalar qilish kerak?
3. Qaysi asarlarda yurtimizning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib berilgan? Misollar bilan tushuntiring.
4. Mavzuga doir qanday maqol va hikmatli so‘zlarni bilasiz?
5. Bo‘limda o‘rgangan she’rlaringizdan birini yoddan ayting.



http://edu.ziyonet.uz

SAXOVATLI KUZ



Kuz saxovati

Sharifa Salimova

Aziz bolajonlar! Atrofingizga bir qarang, bizga sezdirmaygina oltin kuz fasli ham kelib qoldi. Bog‘larda uzumlar sharbatga to‘ldi. Polizlardagi qovun-tarvuzlar katta mashinalarda shaharlarga yo‘l olib, bozorlarimizni to‘ldirdi. Oltindek behilar avaylab terib olindi va savatlarga joylandi. Bog‘bon Salimboy ota o‘zlari yaratgan bog‘ga mahallamiz bolalarini olib borib, „Daraxtlarda bekinib qolgan mevalarni terib olinglar, uvol bo‘lmasin. Uyga olib ketasizlar“, – dedi. Alisher va Malika bir chelak olma, Nafisa bilan Shohjahon ikki chelak nok terdi. Mehribonu jajji paqirchasini anjirga to‘ldirdi.

– Bobojon, biz ham sizga o‘xshab bog‘bon bo‘lsak maylimi? – dedi Alisher.

– Albatta, bolajonim, sizlar ona yurtimizda qancha ko‘p bog‘ yaratsangiz, Vatanimiz shuncha gullab-yashnaydi, – dedi bobo. – Saxovatli kuz esa dasturxonimizni ne’matga to‘ldiradi.

Bolalar yo‘l bo‘yi bobodan kuz haqida hikoyalar eshitishdi: dov-daraxtlar qish oldidan barglarini to‘kadi, tokzorlar kesilib, qo‘ndoq qilib usti yopiladi. Aqlli bolalar o‘lkamizda qishlaydigan qushlar uchun in yasaydilar va daraxt shoxlari orasiga joylashtiradilar. Xazonlarni yig‘ishtirib oladilar va yer bag‘riga o‘g‘it uchun ko‘madilar. Chaqqon qizchalar yo‘laklarni chinniday qilib supurib, xazonlardan tozalaydilar.

Aziz bolajon, qani ayting-chi, siz kuz faslida nima qilgan bo‘lardingiz?

Uzumlar oilasi

Tolib Yo‘ldosh

Uzumlar ham bir oila –
Siz va bizday yashar ekan.
Urug‘-aymoq degandayin,
Turi yuzdan oshar ekan.

Samarqandning „Yakdona“si
Derlar uzumlar onasi.

http://edu.ziyonet.uz

Otalari – „Kattaqo‘rg‘on“
Bobomizday ko‘pni ko‘rgan.

„Hasayni-yu Husayni“lar
Emish o‘g‘illari bular.
Oq-u qizil „Shivirg‘oni“
Onalarin dil-u joni.

Suyuk qizlar ekan qarang –
Anor dona yoquti rang...
„Shakar guli“ – kennoyisi
Boshdan oyoq atir isi...

Buvalari „Buvaki“mish,
Liqqo uzum – „Bibi kishmish“.
„Tog‘ uzumi“ – ammalari,
Bir urug‘dan hammalari.

Bari ishkom, so‘ridadir,
Katta bog‘ning to‘ridadir.

1. Uzumning turlariga qanday ta’rif berilgan?
2. Siz qanday uzum navlarini bilasiz?

She’rni yod oling.

Otalari zangi buva,
Onalari yoyma chalpak,
Bolalari shirin-shakar. *(uzum, bargi, Tok)*

http://edu.portal.uz

Olma

Mahmud Murodov

(Hikoya)

1

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Qudrat ota toklarni chilpib yurgan ekan. „Kelinglar“, deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

– Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarga qaranglar, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotibdi.

Bolalar otaning gapiga darrov tushunishdi. Ular qo‘llariga bittadan savatcha olishdi-da, olma terishga tushib ketishdi.

Ota o‘qtin-o‘qtin kelib, bolalardan xabar olib turdi. U so‘nggi marta kelganida:

– Yashanglar, azamatlar! – dedi. – Hammasini terib qo‘yibsizlar-ku! Rahmat, bolalarim.

– Yana bo‘lsa teramiz, – dedi Sodiqjon.

– Endi erta o‘tib, indinga kelinglar. Aytganday, anavi qoracha o‘rtog‘inglar kelmadimi? Ismi Kamolmidi?

– Ha. Boshi og‘rib qolibdi.

– E, attang! Shamollagandir-da, – dedi Qudrat ota bosh chayqab. So‘ng bolalarga: – Olmadan olinglar, bo‘taloqlarim! – dedi.

– Uyimizda ham bor.

http://edu.gov.uz



– Bor bo‘lsa ham olinglar. Mehnating singgani shirinroq bo‘ladi, – dedi Qudrat ota. Keyin tanlab-tanlab, har bir bolaga beshtadan olma berdi.

2

Bolalar uylariga qaytishar ekan, Sodiqjon ularni to‘xtatib, bittadan olma oldi.

O‘zi ham bitta olma qo‘shib, ularni qo-g‘ozga o‘rab:

– Hozir buni Kamolga olib boramiz. Agar boshi og‘rib qolmaganda, u ham kelgan bo‘-lardi. Olma terishardi, – dedi.

Bolalar birgalashib Kamolni ko‘rib chiqishdi. Kamolning buvisi ham, onasi ham bolalarning

http://edu.uz

bir-biriga g‘amxo‘rligidan xursand bo‘lishdi. Kamol esa o‘zini tuzalib qolganday his qildi.

1. Rasmni kuzating. Ko‘rganlaringizni so‘zlang.
2. Hikoyaning birinchi qismini mustaqil o‘qing.
3. O‘qituvchi yordamida hikoya qismlariga mos sarlavhalar toping.

Hikoyaga oid rasmdan foydalanib, kichik matn tuzing.

Fasllar

Ravshan Isoqov

Bir yilda bor to‘rt fasl,
Hech qolishmas zo‘r, asil.
Almashinib galma-gal,
Takrorlanar muttasil.

Bahor kelar qir oshib,
Daryolar oqar toshib.
Gulzorlarda raqs tushar,
Kapalaklar quvlashib.

Jazirama issiq yoz,
Ko‘lda suzar o‘rdak, g‘oz.
Oromgohlar qo‘ynida,
Hordiq olib, ko‘ngil yoz.

Saxovatli oltin kuz,
Mevalar chorlar: „Uz, uz!“
Xirmon-xirmon paxta, don,
Mo‘l hosildan yorug‘ yuz.

http://eduportal.uz

Oppoq-oppoq laylak qor,
Borliq misli paxtazor.
Qorbo‘ron o‘ynash maza,
Dillarda qolmas g‘ubor.

Bahor-u yoz, kuz va qish,
Cheksiz rahmat, ming olqish!
Hayot go‘zal, xo‘p totli,
So‘nmasa istak, xohish.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Yil fasllariga mos sarlavha qo‘ying.

She’rni yod oling.

Oltindir,
Oltinga sotilmas. *(Vaqt)*

Bobur va kabutar

(Rivoyat)

Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo‘lib o‘sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a’yonlari bilan qasrda o‘tirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo‘nibdida, „g‘ulu-g‘ulu“ qilaveribdi. Umarshayx a’yonlaridan: „Kabutar ne deydur?“ deb so‘rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko‘rmay, qilichlari qonsirab qolgan a’yonlar: „Oliyhazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak, deydur“, – deb javob berishibdi.

Gapga qo‘shilmay, bir chekkada jim o‘tirgan Mirzo Bobur: „Yo‘q, kabutar unday demaydur,

http://eduportal.uz

ota, u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabar keltiribdur“, – debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog‘idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: „Oliyhazrat, qovun ayni pishdi. Kelib, qo‘l urib bersalar“, deb yozilgan ekan. Mirzo Boburning gapi to‘g‘ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o‘g‘lidan: „Bunchalik topqirliging boisi nedur?“ – deb so‘rabdi.

– Ota, – debdi Bobur, – bu kabutarga e’tibor qilmadingiz. O‘tgan yili qovun sayli xushxabarini xuddi mana shu jonivor keltirgan erdi, kaminaning ko‘zi kabutarning o‘ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti uni tanidim va shu so‘zni taxmin etdim, – deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a’yonlariga qarab: „Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin!“ – deb farmoyish beribdi.

1. Umarshayx a’yonlaridan nimani so‘radi?
2. A’yonlar nima deb javob berishdi?
3. Boburning ziyrakligini nimada ko‘rasiz? Matndan shu o‘rinni toping.

Bobur tanigan kabutar rasmini chizing.

http://edu.ziyonet.uz

O‘qituvchining o‘gitlari

Anvar Obidjon

Ey o‘quvchi, bilki, har so‘z
Nondek aziz, nondek uvol.
Til boyligin bir bog‘ desak,
Har bitta so‘z – bitta nihol.

Ulg‘ayib yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda mening qutlug‘ tilim –
Navoiyning she’ri, degil.
Yurtim – Ulug‘bek-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy bilim-u kasbing bilan.

Ey o‘g‘il-qiz, obro‘yingni –
Baland tutmoq qo‘lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

1. O‘qituvchi ona tilimizning boyligini nima bilan qiyoslagan?
2. O‘quvchilar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

http://edu.portal.uz

Xazonchinak [1]

O‘tkir Hoshimov

1

– Ertaga G‘ani amakingnikiga boramiz, – dedi shanba kuni Erkinga dadasi.

Erkin suyunib ketdi. G‘ani amaki qishloqda turadi. Uning 3-sinfda o‘qiydigan Abdulla degan o‘g‘li bor. Abdulla Erkin bilan do‘stlashib qolgan edi.

– G‘ani amakingning bog‘ida xazonchinak qilamiz, – dedi dadasi. Ular avval shahar ko‘chalaridan o‘tishdi, keyin qishloqning tuproq yo‘llaridan yurishdi. Nihoyat, mashina kattakon yong‘oq daraxti tagiga kelib to‘xtadi.

Erkin mashinadan tushdi. O‘rtog‘i Erkin bilan ko‘rishdi va ishkomlarni aylangani ketishdi.

Ishkom yashil gumbazli yo‘lakning o‘zginasi edi. Uzum novdalarida sariq, qizil yaproqlar lovullab ko‘rinar, oyoq ostida xazon shitirlar edi.

– Qani, uzum yo‘q-ku? – dedi Erkin alanglab.

– Xazonchinak deb shuni aytadi-da! Uzumlari uzib olinganidan keyin qolib ketganini qidiramiz. Mana, qara! – Abdulla sap-sariq uzum yaprog‘ini u yoq-bu yoqqa surib, uzum topdi.

---

[1] **Xazonchinak** – kuzda yig‘ishtirib olingan hosilning qoldig‘i.

http://edu.portal.uz



– Men uzay, men uzay! – dedi qo‘l cho‘zib Erkin.

– Mayli, uza qol. Ammo xazonchinakning qoidasi – har kim o‘zi topgan uzumni o‘zi uzadi.

Erkin narigi tokning yoniga chopib bordi. Yaproqlarini titkilab qarasa, uzum boshi osilib turibdi.

– Menam topdim! – dedi qichqirib. Erkin har gal uzum boshini topganida quvonib ketardi.

– Yaqinda toklarni ko‘mamiz. Ko‘mmasak, sovuq urib ketadi. Uzum novdalarini xashak bilan o‘rab, ko‘mib qo‘yamiz. Keyin bahor kelib, yer iliganda, yana ochamiz. Tag‘in ishkomlarga ko‘tarib bog‘laymiz, – dedi Abdulla.

Erkin toklarni qanday ko‘mishni juda ko‘rgisi keldi. Kelayotgan dam olish kuni Erkin o‘rto-

http://edu.portal.uz

g‘inikiga yana boradi. Abdullaga yordamlashadi. Tok novdalarini qirqish, bog‘lash, ko‘mish usullarini o‘rganib oladi.



1. Erkin nima sababdan suyunib ketdi?
2. Erkinning Abdulla bilan uchrashuvi va ularning suhbati haqida so‘zlab bering.
3. Ishkom tasvirini hikoyadan topib o‘qing, fikringizni tushuntiring.



Hosil bayrami

Zahro Hasanova

O‘zbekiston – go‘zallikda tengi yo‘q diyor. Tuprog‘i serhosil, quyoshi beminnat nur sochib turadi. Har faslning o‘zgacha xislati, fazilati bor. Vatanimiz haqida har qancha faxrlanib gapirsak arziydi. Ana shu go‘zal go‘shaning bir-biridan sermazmun bayramlari ham bor. Shunday bayramlardan biri „Hosil bayrami“dir. Bu bayram kuz faslida nishonlanadi. Hosil bayrami o‘zbek xalqining eng go‘zal, eng tarovatli bayramlaridan hisoblanadi.

Bu bayram dalalardagi yig‘im-terim ishlari yakunlanayotganda, bog‘dagi meva-chevalar yig‘ishtirib olish avj pallaga chiqqan paytda o‘tkaziladi. Uning o‘ziga xos tomonlari xalqimizning qadriyatlariga borib taqaladi. O‘zbek xalqi azal-azaldan mehmondo‘st, bag‘ri keng, topganini qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni bilan

http://eduportal.uz

bo‘lishib yeydigan, birgalikda baham ko‘radigan xalqdir.

Hosil bayramini bolalar ham intiqib kutishadi. Chunki ular kuz haqida bilgan she’r va qo‘shiqlarini yig‘ilganlar davrasida zavq bilan aytib berishadi.

Bu bayramning xalqimiz tomonidan „Hosil bayrami“ deb nomlanishi bejiz emas. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda, 25 – 26-sentabr kunlari nishonlanadi.



1. O‘zbek xalqining qanaqa an’analarini bilasiz?
2. Hosil bayramining o‘ziga xos tomonlarini bilib oling.
3. Hosil bayrami qachon nishonlanadi?



Ilmli ming yashar

Nurmat Maqsudiy

(Hikoya)

Yolqinjon kuz kunlarining birida tog‘asinikiga mehmon bo‘lib bordi. Tog‘asi fermer xo‘jaligi bog‘ida guruh boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. U jiyanini ko‘rib xursand bo‘ldi.

– O‘-o‘, Yolqinjon, kelganing juda yaxshi bo‘libdi-da, – dedi. – Hali senga xo‘jalik bog‘ini ko‘rsataman.

Tog‘asi Yolqinjonni uzumzorga olib bordi. Yolqinjon uzumlarni ko‘rib hayratda qoldi. Baland

http://eduportal.uz

ishkomlarga o‘rmalab chiqqan husayni, charos va boshqa xil tok novdalarida katta-katta uzum boshlari oltinday tovlanar edi. O‘hho‘, uzum boshlarining kattaligini qarang! Har bittasi Yolqinjonning buvasidan qolgan qumg‘ondek keladi-ya!

– Tog‘a, bu uzumlarni qanday qilib yetishtirdingiz? – deb so‘radi Yolqinjon.

– Tokni qanday parvarish qilish to‘g‘risida bir dongdor sohibkor kitob yozibdi, – dedi tog‘asi. – O‘sha sohibkor o‘zining oltmish yillik tajribasini shu kitobda bir-bir bayon qilibdi.

Tog‘asi o‘sha kitobni o‘qibdi. Keyin o‘rganganlarini ishga solibdi. Natijada so‘ridagi uzumlarni yetishtiribdi.

– Sohibkor kim o‘zi? – deb so‘radi Yolqinjon.

– Sohibkor deb o‘z ishining ustasiga aytiladi, – deya javob berdi tog‘asi.

– Voybo‘, – dedi Yolqinjon o‘zicha, – o‘sha sohibkorning oltmish yillik ishini birdaniga o‘rganib oldingizmi? Unda yoshingiz qancha bo‘ladi?

– Yoshim qirqda. Agar unga sohibkorning oltmish yillik tajribasini qo‘shsang, yoshim rappa-raso yuz yosh bo‘ladi.

1. Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Hikoya nima uchun „Ilmli ming yashar“ deb nomlangan?

http://edu.portal.uz

Oltin kuzim

Po‘lat Mo‘min

Oltin kuzim,
Oltin kuzim, oltin kuz,
Ta’rifingga,
Maqtovingga izlab so‘z,
Vodiylarni, vohalarni kezaman.
Paxtazor-u,
Bog‘-u rog‘lar bezangan.
Bahor, yozgi
Mehnatimga yakunsan,
Oltin kuzim,
Ham saxiysan, to‘kinsan.
Yoqimtoysan,
Iliqqina bahorsan,
Bahordan ham
Aslida bebahosan.
Arzir seni
Faxrlanib maqtasam,
Keng quchog‘ing
Saroylarday muhtasham.
Ishkomlarda
Uzumlarning chamani,
Quvontirar
„Oq oltin“zor hammani.
Jami narsa
Muhayyo bu saroyda.
Hammadan ham



https://eduportal.uz

Beqiyosdir chiroyda.
Oltin kuzim,
Oltin kuzim, mo‘l kuzim,
Tayyordirman
Xizmatingga men o‘zim.



1. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.
2. Shoir „oltin“ so‘zini nima uchun ishlatgan?



She’rni yod oling.



Qizcha va qarg‘alar

Normurod Norqobilov

(Hikoya)

1

Kuz. Bu hovliga ko‘chib kelishganlariga hafta bo‘lmay, Hanifaning diqqatini bir juft qarg‘aning harakati tortdi. Hovli etagida tagi betonlangan baland ishkom bo‘lib, qarg‘alar ishkomga qo‘ngancha, qayerlardandir o‘marib kelgan yong‘oqlarini o‘sha keng beton yo‘lakka tashlab, so‘ng chaqilgan yong‘oq mag‘izlarini bitta qoldirmay terib yerdi. Hovli sharoitiga endi ko‘nika boshlagan qizaloq dastlab shunchaki tomoshabin bo‘lib yurdi. So‘ng bir kuni qarasaki, qarg‘alar bir yong‘oqni chaqolmay ovora bo‘lyapti. Bu holni peshayvon derazasidan kuzatib turgan qizchaning qushlarga

http://eduportal.uz

rahmi kelib ketdi. Ishkom tomon yugurdi. Qushlar hurkib havoga ko‘tarildi, biroq yerda yotgan „qaysar meva“ni ko‘zlari qiymay, qayta ishkomga qo‘ndi, qag‘illashib, o‘z noroziliklarini bildirdi. Qizcha yo‘lak chekkasida yotgan tosh bilan yong‘oqni chaqdi, dastlab o‘zi yemoqchi bo‘ldi, so‘ng fikridan qaytib, kaftidagi chaqilgan mag‘izni yerga tashladi-da, o‘zi sal nariga borib turdi. Birozdan so‘ng birinchi qarg‘a hadik bilan yerga sho‘ng‘idi, ortidan ikkinchisi va ular birpasda yong‘oq mag‘zini yeb bitirdi.

Bu yumush bora-bora qizaloqqa juda yoqib qoldi. Qushlar bu holga tez ko‘nikdi, qizchadan deyarli hurkmay qo‘ydi – tumshuqlaridagi yong‘oqni yerga tashlab, qani, chaq, degan ma’noda o‘ktam ohangda qag‘illashni odat qildi. Qizcha o‘sha-o‘sha yong‘oqni chaqar, mag‘zini yerga sochar, qushlar esa sochilgan yemakni apil-tapil cho‘qib-terib, so‘ng yangi meva ilinjida qo‘shni bog‘larga uchib ketardi.

1. Qizcha qarg‘alarga qanday yordam berdi?
2. Qarg‘alar qizchadan hurkmay qo‘yganining sababini izohlang.

2

Ammo qizcha va qarg‘alar o‘rtasida yuzaga kelgan bu o‘ziga xos do‘stlikka ota va ona e’tibor bermadi. Bir kuni tongda ularni qar-

http://edu.uz

g‘alarning o‘ta qattiq qag‘illashi bezovta qildi. Ota yelkasiga to‘nini tashlab hovliga chiqdi, kesak otib ularni quvdi. Ammo qushlar uzoqlamay, yana qaytib keldi. Bu safar ular o‘n chog‘li edi. Ishkom va daraxtlarga qo‘ngancha, qag‘illab, olamni boshiga ko‘tara boshladi.

Bu hol ikki kun, ya’ni shamollab, ko‘rpato‘shak qilib yotgan qizcha peshayvonda paydo bo‘lguncha davom etdi. U ko‘rinish berishi bilan qushlar tinchlandi, sho‘xchan g‘imirlab, o‘z quvonchlarini izhor etgan bo‘ldi. Ayrimlari yerga sho‘ng‘ib, lapanglagancha, eshikka yaqinroq kelishgacha jur’at etdi.

Bir muddatdan so‘ng esa ishkom tagiga yong‘oqlarning birin-sirin tirsillab tushgani eshitila boshlandi.

1. Qarg‘alarning qattiq qag‘illashi sababini ayting.
2. Har bir qism yuzasidan reja tuzing.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Kuz fasli haqida qanday asarlarni o‘rgandingiz?
2. „Xazonchinak“ so‘zini qaysi asarda uchratdingiz. U qanday ma’noni anglatadi?
3. „Qizcha va qarg‘alar“, „Bobur va kabutar“ asarlaridan foydalanib, „Ziyraklik – yaxshi fazilat“ mavzusida matn tuzing.

http://edu.ziyo.uz

MAKTABIM – QUTLUG‘ MAKONIM, KITOBIM – BUYUK IMKONIM



Kitob, mening do‘stimsan

Zafar Diyor

Varaqlasam bir boshdan
Quvnab bag‘rim ochilur.
Oltin harf-so‘zlardan
Totli ma’no sochilur.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!

Har sahifang men uchun
Bir hikoya so‘zlaydi.
O‘qib olim bo‘lgin, deb,
Yaxshi niyat ko‘zlaydi.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!

Seni jondan sevaman,
Meni tilga o‘rgatding.

http://edu.ziyonet.uz

Hadya qilib ilm-fan,
Yorug‘ yo‘llar ko‘rsatding.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!



1. „Hadya qilib ilm-fan, Yorug‘ yo‘llar ko‘rsatding“ misrasini qanday tushundingiz?
2. Nima uchun kitobni eng yaqin do‘stimiz deymiz?



She’rni yod oling.



Vaqting ketdi – naqding ketdi

Kavsar Turdiyeva

(Ertak)

1

Sizlarda shunday bo‘ladimi? Biror ish qilish zarurligini bilasiz-ku, ammo to‘satdan hamma vaqtingiz umuman kerak bo‘lmagan o‘yin bilan o‘tib ketadi.

Shaharchada kompyuter o‘yinlari xonasi ochildi-yu, hamma mittivoylar shu yerga qatnay boshlashdi. Uni kim ochdi, dersiz? Albatta, boshqa shaharchadan kelgan Foydaxo‘r.

U birin-ketin hamma joyda kompyuter xonalari ochib, ancha foyda ko‘rgan. Quvnoq shaharchada ham ishini davom ettirdi. Xona esa mijoz-o‘yinchilar bilan to‘ldi-qoldi. Foydaxo‘rning asosiy shiori: Vaqt – bu pul! Yarim soat o‘tirasizmi, bir soatmi, shunga qarab pul-

http://eduportal.uz

ni to‘lab ketaverasiz, pulingiz bo‘lmasa molingizdan hisob-kitob qilishingiz mumkin. Masalan, novvoy bo‘lib ishlayotgan Bo‘rsildoq kompyuter o‘yiniga Foydaxo‘rga pul o‘rniga non tashiyapti. Chunki bor pulini o‘ynab tugatib bo‘lgan.

Foyda Foydaxo‘rning ko‘zini ko‘r qilib qo‘ygan. U hamma joyga e’lonlar osar, natijada maktablardagi o‘quvchilar darsga kirish o‘rniga kompyuter xonasiga qatnashar, haydovchilar ham o‘yinlarga qiziqib ketgani uchun, mashinalar to‘xtab qolgan, do‘konlar ham yopiq edi.

Shunday voqealar bo‘lib turganda, Qoyilbek qanday qilib bu bema’nigarchilikka chek qo‘yish mumkin, deb Ziyrakbekka maslahat soldi.

– Ha, o‘ylab ko‘rish kerak ekan!

Qoyilbek biroz o‘ylandi-da, ko‘zlari yorishib ketdi.

– Do‘stlar, men topdim! Mittilar orasida „Bir oy ichida nimalarga erishding?“ degan so‘rovnoma, so‘ng „Vaqting – baxting“ degan tanlovni ham o‘tkazamiz.

– Juda to‘g‘ri! Ziyrakbekka bu ish yoqdi.

Tanlov boshlandi. Uni Yoqimtoy va Iltimosxonlar olib bordilar.

1. Foydaxo‘rning asosiy shiori nima edi?
2. Siz o‘z vaqtingizni qanday taqsimlashingizni daftaringizga yozing.

http://edu.tdpu.uz

2

– Aziz do‘stlar! Iltimos, eshitinglar: „Ajoyib-g‘aroyib tanlovimiz ochiq!“ deb e’lon qilinadi. Biz sahnaga bir oy davomida yutuqlarni qo‘lga kiritgan, vaqti bekor ketmaganlarni taklif qilamiz.

Yalolaxon yangi qo‘shig‘ini aytdi. Shirmoyxon yangi suratlarini olib keldi.

Shunda sahnaga Bo‘rsildoq va Pufakvoylar ham taklif qilindi.

– Marhamat, bir oy ichida qilgan foydali ishlaringizni aytib bering, – dedi ularga boshlovchilar.

Ishkalvoy yerga qaradi.

– Men kompyuter o‘ynadim va o‘ttiz marta yutdim.

– Bundan nima foyda ko‘rdingiz?

– Hech nima.



http://edu.portal.uz

– Siz-chi, Bo‘rsildoq? Non yopib odamlarni xursand qildingizmi?

– Yo‘q, men non yopib qarzlarimni to‘ladim.

– Qanday qarzlaringizni?

– Har kuni kompyuter o‘ynaganim uchun yig‘ilgan qarzimni.

– Endi esa, aziz do‘stlar, biz „Vaqting – baxting“ nomli tanlovning eng quvonchli daqiqalariga yetib keldik.

– Biz g‘oliblarni mukofotlaymiz. Mukofotlarni topshirishni Ishbilarmonga bersak.

Ishbilarmon g‘olib ishtirokchilarni mukofotladi. Ayniqsa, Qoyilbek ko‘p maqtovlar oldi. Axir uning havoni tozalovchi moslamasi hamma uchun kerak edi-da.

Pufakvoy va Bo‘rsildoq bekor o‘tgan vaqtlariga juda-juda achinishdi. Axir bir oyda qancha ishlar qilish mumkin edi.

Qoyilbek xafa bo‘lib turgan Pufakvoy va Bo‘rsildoq tomonga yaqinlashdi.

– Do‘stlarim, – dedi u, – aslo xafa bo‘lmanglar. Bunday tanlovlar endi har yili o‘tkaziladi. Sizlar kelgusida o‘zingizni ko‘rsatishingiz mumkin.

– To‘g‘ri, – dedi Pufakvoy, – men pufakchalarga turli rasmlar chizaman, ajoyib o‘yinchoqlar yasayman.

– Men esa turli-tuman shaklli va mazali nonlar pishiraman. Balki nonlarim butun dunyoga mashhur bo‘lar.

http://edu-portal.uz

– Unda shoshilinglar! – dedi Qoyilbek. – Axir vaqting ketdi – naqding ketdi, deb bekorga aytishmagan-ku!

1. Qoyilbek va Ziyrakbek nima uchun tanlov uyushtirishdi?
2. Nega Bo‘rsildoq mukofot olmadi?
3. Siz ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Donishmand quyon va kichkintoy jirafa

Faxriddin Hayit

(Ertak)

Tunov kun o‘rmonda bir
Voqea bo‘ldi g‘alat.
Quyonlar maktabiga
Keldi ikki jumla xat.
– Yuborarmish maktabga, –
Pichirladi koyinib, –
Allaqanday Jirafa
Mushtdek kichkintoyini.
Topshiriqlar bo‘ldi hal,
Sinf, ustoz – barcha shay.
G‘ala-g‘ovur boshlandi,
Ostonada zum o‘tmay.
Shoshib chiqdi maktabning
Shalpangquloq rahbari.
Turar ikki notanish,
Ushlab kitob-daftarin.



http://eduportal.uz

Simyog‘ochdek bo‘yni bor,
Ustoz Quyon hang-u mang.
Mulozamat qildi so‘ng:
– Keling, mehmon, tortinmang.
Barcha turib qoldi lol,
Ikki tomon hayratda.
Hamma topishmoqning bir
Javobi bor albatta.
Va nihoyat topildi,
Muammoning yechimi.
Inobatga olinib,
Jirafaning bichimi.
Chiqardi katta buyruq
Donishmand shalpangquloq.
Endi u derazadan
Bosh suqib olar saboq.

1. Ertakni ifodali o‘qing. Maktabda qanday voqea sodir bo‘ldi?
2. Quyon qanday yechim topdi?

Ona tilim

Tursunboy Adashboyev

Buyuk Temur jahon bo‘ylab,
O‘z dovrug‘in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo‘lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan
Rang va qiyos olgan tilim.

http://edu portal.uz

Shoh Mashrabni bulbuldayin,
Sayratgan ham ona tilim.

Mirtemirni shoir qilib,
Yayratgan ham ona tilim.
Shunday tildan tonar bo‘lsam,
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.

Alla bo‘lib jaranglagan,
Ona tilim – jon-u dilim.
Gulla, yashna el tilida,
Nur sochaver jon-u dilim.

Ne-ne buyuk bobolarim
Jaranglatib aytgan so‘z.
Har so‘zingda bir hikmat bor,
Hech qachon tegmasin ko‘z.

1. She’rda ona tilimiz haqida nima deyilgan?
2. Shoirning „Ona tilim – jon-u dilim“ misrasini izohlang.

She’rni yod oling.

Unutilmas bayram

Erkin Malikov

(Hikoya)

Men nogiron bolalar uyiga bayram kunlari borib turaman. Bolalar she’rlar aytishadi, kitobchalar bilan mukofotlanishadi. Bir qator she’r

http://edu.portal.uz

aytishadimi, yuz qatormi, farqi yo‘q. Ba’zilari ertak aytib beraman deb, „Bor ekan-da, yo‘q ekan“dan nariga o‘tmaydi. Shunga ham tarbiyachilari xursand. Sababi bu yerda xotirasi past, biron-bir a’zosi nogiron bo‘lib qolgan bolalar davolanishadi. Ba’zi bolalar gilamga chordana qurib, ba’zilari yonboshlab olishadi. Chunki kursilarda o‘tira olmaydilar. Ba’zi bolalar nogironlar aravachasiga mixlangan.

Bu safar ham bayram kunlari yig‘iladigan xonaga jam bo‘ldik. Odatdagidek, bolalar o‘rtaga chiqib, she’r, ertak aytar va kitoblar bilan taqdirlanardi. Oldingi qatordagi nogironlar aravachasida o‘tirgan kattagina qiz e’tiborimni tortdi. U har bir ishtirokchi o‘rtaga chiqqanda, hayajon bilan kuzatar, to‘xtamay chapak chalar, kitob bilan mukofotlangan o‘rtoqlariga havasi kelardi. Uchrashuvimiz oxirlaganda birdan aravachada o‘tirgan qiz o‘rnidan turib ketdi. Yonimda o‘tirgan bosh shifokor bir cho‘chib tushdi. Tarbiyachilardan biri „Voy“, deb yubordi. Qiz esa ikki qadam oldinga yurdi-da, hech kim tushunmaydigan tilda chug‘ur-chug‘ur qildi. Keyin menga qaradi. Menda kitob qolmagan edi.

Bosh hamshiraga atalgan kitobni, o‘zining iltimosiga ko‘ra, qizchaning qo‘liga tutqazdim. U kitobni quchoqlaganicha qaytib borib aravachasiga o‘tirdi.

Mening hayajonim tadbir tugagandan keyin boshlandi. Bu qiz shu yoshgacha aravachasidan

http://ziyouz.com/kutubxonasi

turmagan va bir og‘iz so‘z aytmagan ekan. Bugungi bayram uni davolabdi. Yurib ketishiga, tili chiqishiga sabab bo‘libdi. Bu uning orzusi emasmidi?! Men beixtiyor: „Ey yaxshilar, bolalar orasida ko‘proq bo‘ling, sizlarning tashrifingiz ular uchun bir shifodir“, degim kelardi.



1. Nima uchun oldingi qatorda o‘tirgan qiz muallifning e’tiborini tortdi?
2. Aravachada o‘tirgan qiz nimadan ta’sirlandi?
3. Nogiron bolalarning orzularini amalga oshirish uchun kattalar nima qilishi kerak ekan?



Xo‘roz nega uchmaydi?

Zulfiya Mo‘minova

(Ertak)

1

Qanotlilar sinfida
Xo‘roz ekan bilimdon.
Qiynalmay besh olarkan,
Hamma fandan har qachon.
Ertalab turishdan – besh,
Maydalab yurishdan – besh,
Tumshuqdagi donini
Kichikka berishdan – besh.
Xo‘roz o‘zidan xursand
Mag‘rur qadam tashlabdi.

http://eduportal.uz

Chor atrofida hamma
Uni maqtay boshlabdi.
Biram quvnoq, qaqildoq,
Xo‘rozjonga ofarin!
Dangasalikdan yiroq,
Xo‘rozjonga ofarin!
Xo‘roz bir tong: „O‘qish ko‘p,
Charchab tolaman“, – debdi.
„Nima qilibdi, bir kun
Darsdan qolaman“, – debdi.
Tongda Ukki: „Turgin“, – deb
Jahl-la baqiribdi.
O‘rtoqlari birma-bir,
Maktabga chaqiribdi.
Avval Turna chaqirib,
Uyg‘onishin kutibdi.
Mayna: „Tur“, – deb ko‘ziga
Oynachasin tutibdi.
Kaklikning-chi, qichqirib,
Ovozlari bitibdi.
Xo‘roz esa yostiq-la
Qulog‘in berkitibdi.
Turmagach, bari sekin,
Maktab tomon ketibdi.

1. Ertakni ifodali o‘qing.
2. Shoir xo‘roz timsolida qanday o‘quvchilarni nazarda tutyapti?

http://edu portal.uz

2

Qanotlilar sinfida
Shu kun qizibdi saboq,
Xo‘rozga dangasalik
Qimmatga tushdi biroq.
O‘sha kun qanotlilar
Omadga yuz tutibdi.
O‘qituvchi shu kuni
Uchish darsin o‘tibdi.
Xo‘roz esa g‘aflatdan
Par yostiqni quchibdi.
Ushbu darsda do‘stlari
Falak sari ko‘chibdi.
Baxmal misol qanotlar
Bulutlarni silabdi.
Ularga jami jonzot
Yuksak parvoz tilabdi.
Qushlar xursand bo‘lishib,
Baxtli kun sabog‘idan,
Qanot silkib o‘tishdi,
Xo‘rozning qo‘nog‘idan.
Xo‘roz esa bu baxtni
Qucha olmay qolibdi.
Qanotlari bo‘lsa ham
Ucha olmay qolibdi.
Shunday qilib qissadan
Chiqqan hissa ayondir,
Darsni bir kun qoldirgan
Bir umr pushaymondir.



http://e-dtp.uz

1. Ertakni ifodali o‘qing.
2. Xo‘roz nima uchun ucha olmas ekan?
3. Ertak qismlariga sarlavha qo‘yib, og‘zaki bayon qiling.

Sahar azon aytar so‘fi,
Boshiga kiyib qizil do‘ppi. *(zoɹ,oX)*

Hisobda adashgan bola

(Hikoya)

Zamira Ibrohimova

1

Anvar uchinchi sinfda o‘qiydi. Hamma o‘quvchi bolalar kabi u ham a’lo baholarni juda yaxshi ko‘radi, ammo-lekin... dars tayyorlashni yoqtirmaydi. Uy vazifalarini chala-chulpa bajaradi.

Mana bugun ham zo‘rg‘a dars tayyorlashga o‘tirdi. „Matematika“ kitobini ochib, uyga berilgan vazifani o‘qiy boshladi. Tili o‘qiyapti-yu, xayoli telefon o‘yinida. Masalani o‘qib bo‘lgach, „Nimalarni yozishadi, boshni qotirib. Shunaqa ham masala bo‘ladimi? Oshga qancha masalliq ketishini hisoblash shartmi, bor masalliqni qozonga solib, shartta-shartta qovuradi, bo‘ldi-da“, – dedi o‘zicha asabiylashib. Aksiga olib shu tobda uni mudroq bosib, maza qilib uxlagisi kelardi. O‘rnidan turib, karavotiga cho‘-

http://edu.portal.uz

zildi. Yostig‘i shunday yumshoq, yoqimliki, onasi allalayotganday, Anvar shirin uyquga ketganini bilmay qoldi.

2

U tush ko‘ra boshladi. Tushida bo‘ylari o‘sib, katta yigit bo‘lib qolganmish. U bir choyxonaning bosh oshpaziga shogird bo‘libdi. Ertalabdan ish boshlanibdi. Bosh oshpaz unga:

– Bugun palov pishiramiz. Bozorga borib, oshga kerak bo‘ladigan masalliqlardan olib kel. Anvarjon, yaxshilab eshitib olgin, sakkiz kilogramm guruchga teng miqdorda sabzi ol, sabzidan ikki marta kam go‘sht ol, guruchdan to‘rt marta kam yog‘ ol, yog‘dan ikki marta kam piyoz olgin... To‘xta, yaxshisi masalliqlar ro‘yxatini yozib ola qol, – debdi.

– Yozish shart emas, hammasini tushundim, – debdi Anvar va shoshqaloqlik bilan bozorga ketibdi.

Bozordan sakkiz kilogramm guruch, sakkiz dona sabzi, ikki kilogramm go‘sht, to‘rt litr yog‘, ikki dona piyoz olib kelibdi.

Bosh oshpaz Anvarning xaridini ko‘rib hayron bo‘libdi.

– Sen bola, oshpaz uchun ham hisob-kitobni bilish juda muhim ekanligini bilmas ekansan-ku! Senga hisobni o‘rgatishga vaqtim yo‘q. O‘qib, bilimingni oshirib kel, – deb uni

http://edu.uz

shogirdlikka olmabdi. Anvar uyatdan qizarib-bo‘zarib bosh oshpazning yonidan chiqib ketibdi.



1. Anvar nega asabiylasha boshladi?
2. Anvar nima uchun bosh oshpazning yonidan qizarib chiqib ketdi?



3

„Endi nima qilsam ekan?“ deb o‘ylab tursa, muzqaymoq sotuvchi „Hoy yigit, kel, ozgina qarashib yubor“, – deb uni chaqiribdi. „Maza, muzqaymoq sotaman“. Anvar xursand bo‘lib, muzqaymoq sotuvchining yoniga boribdi. O‘zi tengi bir bola unga besh mingtalik pul uzatib:

– Aka, menga yetti yuz ellik so‘mlik muzqaymoqdan besh dona bering, – debdi.

Anvar pulni olib, bolaga muzqaymoq uzatibdi, ammo qancha qaytim berishni bilolmay, indamay turaveribdi.

– Aka, qaytimini bermaysizmi? – debdi bola.

– Bor-bor, boshni qotirma, qanaqa qaytim, senga beshta muzqaymoq berdim-ku, – debdi Anvar do‘q urib.

Bolaning onasi kelib, Anvarni urisha ketibdi. Qayerdandir boshqa xaridorlar ham kelib shovqin ko‘tarib, uni sudrab olib keta boshlashibdi. Anvar oyoq-qo‘llarini potirlatib, tipirchilab, baqirarmish.

http://e-qlportal.uz

4

U o‘z ovozidan cho‘chib, uyg‘onib ketibdi. O‘ng-u so‘liga qarab:

– Xayriyat-ey, tushim ekan... Voyy, hisobni bilmaganim yomon pand berdi-ku! – debdi peshanasiga shappati urib. So‘ngra yuzini muzdek suvga yuvib kelibdi. Matematika kitobini ochib, uyga berilgan vazifani diqqat bilan qayta o‘qib, masalaning shartini tartib bilan yoza boshlabdi...

U daftarini yopar ekan, beixtiyor tushini eslab, miyig‘ida kulibdi. „Ey, Anvar, masalani yaxshilab o‘qib, shartini tushunib olsa, osongina yechsa bo‘lar ekan-ku! Endi bildingizmi, matematika har qadamda kerak ekanligini“, – debdi o‘ziga o‘zi.

1. Anvar muzqaymoq olgan bolaga qancha qaytim berishi kerak?
2. Matematika fani muhim ekanligini matndan xulosa chiqarib, o‘z so‘zingiz bilan ayting.

Chalavoyning to‘la tushi

Olqor Damin

Tushimda-chi, tushimda
Qiziq ishlar bo‘lganmish.
„Ikki“larga to‘rxaltam
Roppa-rosa to‘lganmish!

http://darsuz.uz

Ko‘rmagandek hech narsa
Ketarmishman shaharda.
Olarmishman chap qo‘lga,
O‘ngim tolsa agarda.
To‘rxaltaga, goh menga
Hamma hayron boqarmish.
Izza bo‘lish qayoqda,
Qaytaga xush yoqarmish.
Birov oxir:
– Qo‘yib chiq, bor uyingga! –
der emish.
– O‘zim gumdon qilay yo,
Ber bu yoqqa, ber! – dermish.
„Eha, eha, nega?..“ deb
Tegarmishman joniga.
„Yo‘qot bularingni!..“ – deb
Tushirdi-ku jag‘imga.
Shundoq ketsam uyg‘onib,
Soat ham o‘n bo‘libdi.
„Tinchlikmi?..“ deb tepamda
Oyim kulib turibdi.

1. She’rni ifodali o‘qing. Nima uchun sarlavhaga „Chalavoyning to‘la tushi“ deb nom qo‘yilgan?
2. „Shundoq ketsam uyg‘onib, Soat ham o‘n bo‘libdi“ misrasidan nimani tushundingiz?

http://edu.portal.uz

Jumboq hikoya

Muhabbat Hamidova

(Hikoya)

Sardorning xotirasi yaxshi emas. Qancha harakat qilsa ham, she'rni to'laligicha yodlab ololmaydi. Yo'q, yodlaydi. Ammo doskaga chiqishi bilan hammasi esidan chiqib ketadi. Bu haqda o'rtog'iga aytgandi. O'rtog'i shunday maslahat berdi:

– Men yodlashning oson yo'lini bilaman. She'rni daftarga uch-to'rt marta ko'chirib yozaman. Avval daftarga qarab ovoz chiqarib o'qiyman, keyin uni yopib, yoddan aytaman. Esimdan chiqqan joyida daftarga qarab olaman. Darrov esimga tushadi. Doskaga chiqqanimda esa daftar varag'ini yirtib, cho'ntagimda ushlab turaman. Shunda xotirjam bo'laman.

Bu fikr Sardorga ma'qul tushdi. Ammo kattagina she'rni qayta-qayta ko'chirishga erindi. Kitobni ko'tarib yurib yodlash esa oson emas. O'ylab yo'lini topdi. Qo'ylarini qirga haydab ketayotganida kitobdan she'r yozilgan sahifani shartta yirtib oldi. Qo'ylari o'tga yoyilib ketgach, tepalikka chiqib, cho'ntagidagi varaqni oldi. Tikka turganicha baland ovoz bilan she'rni o'qishga tushdi. Ovoz jarangidan o'zi zavqlanar, iloji boricha ifodali o'qishga intilardi.

http://edu.ort.uz

Shu taxlit o‘qidi, o‘qiyverdi.

Ertasiga Sardor she’rni yoddan, tutilmasdan, ifodali qilib aytgani uchun ustozi „besh“ baho qo‘ydi.

– Oyijon, men „besh“ oldim, mana, – deya kundaligini oyisiga ko‘rsatdi Sardor.

– Tabriklayman, bolam, rahmat, – o‘g‘lini bag‘riga bosdi oyisi.

– Oyijon, menga emas, kitobga rahmat, – dedi Sardor cho‘ntagidan ezilib ketgan varaqni olib.

Oyisi bir Sardorga, bir uning qo‘lidagi g‘ijimlangan varaqqa qaradi. Keyin:

– Bilmadim, bolam, kitob sening rahmatingni qabul qilarmikan, – dedi xomush.

1. Hikoyani o‘qing. Sardor to‘g‘ri ish qildimi?
2. Siz she’rni qanday yodlaysiz?

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limdan yod olgan she’rlaringizdan birini ayting.
2. Vaqtning qadri haqida qanday asar o‘rgandingiz? Nimalarni bilib oldingiz?
3. Bo‘limdagi qaysi asarlarda darslarga befarq qaragan o‘quvchilar misol qilingan?
4. „Mening maktabim“ yoki „Men sevgan kitob“ mavzusida besh-olti gapdan iborat matn tuzing.

http://eduportal.uz

HUNAR – HUNARDAN RIZQING UNAR






Hunarni sev

Tolib Yo‘ldosh

Hunarni sev, hunarni!
Hunar senga asqatar.
Hunar otin soni yo‘q,
Sanasang, qator-qator.

O‘rgan, sen ham yigitsan,
Yetmish turi oz senga.
„Hunarli er kam bo‘lmas“
Maqolin ol esingga.

Mayli, duradgor usta,
Chilangar bo‘l, xohishing.
Xalqqa biror manfaat
Yetkazsin qilgan ishing.

Binokor bo‘l, ha, balli,
Bizga zo‘r uylar kerak.

http://darsportal.uz

Bastakor bo‘l, marhamat,
Sho‘x, shirin kuylar kerak.

Hunarli bo‘l, ilm ol,
Har ikkisi ham zarur.
Hunar – bu baxt-u iqbol,
Belga quvvat, ko‘zga nur.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda hunarga qanday ta’rif berilgan?
3. Siz qaysi kasb yoki hunarni egallamoqchisiz?

She’rni yod oling.

Aql ko‘pga yetkazar, hunar – ko‘kka.

Bahs

Sunnatilla Anorboyev

(Hikoya)

1

Oqsoy qishlog‘ida Halim, Salim, Karim degan bolalar bor. Ular sinfda ham yonma-yon o‘tirishadi. Darsni ham birga tayyorlashadi. Ta’til yaqinlashgani sababli uch o‘rtoq yozda qiladigan ishlari to‘g‘risida suhbatlashib qolishdi.

– O‘qish tugagan kunning ertasigayoq yaylovga ketaman, – dedi Karim. – Bo‘ribosarni ergashtirib, qo‘y boqishda otamga ko‘maklashaman. Katta bo‘lsam-chi, otamdek cho‘pon bo‘laman. Cho‘ponlikdan yaxshi kasb yo‘q olamda!

http://eduportal.uz

Karimning keyingi gapidan Halim bilan Salimning jahli chiqdi.

– Nega endi? – deyishdi ikkovlari birdaniga.

– Mana, masalan, mening otamday hisobchi bo‘lish yomon ekanmi? – dedi achchiqlanib Halim. – Fermer xo‘jaligida kim qanday ish qiladi, qancha ish haqi oladi, cho‘ponlar davlatga qancha jun, go‘sht, yog‘, sut yetkazishini otam hisoblab beradi. Katta bo‘lsam, albatta, otamday hisobchi bo‘laman.

2

Salim yuvosh bola edi. Lekin ikkala o‘rtog‘ining gapi g‘ashini keltirdi.

– Xo‘jalik mulki omborxonada saqlanadimi yoki ko‘chadami? – so‘radi Salim.

– Albatta, omborxonada!

– Omborxonani kechasi otam qo‘riqlaydi. Xo‘jalik don-duni, go‘sht-yog‘i-yu asbob-uskunalarini otamga ishonib topshirib qo‘yibdi! Men katta bo‘lsam, albatta, otamdek qorovul bo‘laman.

Shunday qilib, uch o‘rtoqning bittasi unday deb, ikkinchisi bunday deb gap talashib qolishdi.



1. Oqsoy qishlog‘idagi uch o‘rtoqning suhbatini so‘zlang.
2. Nima sababdan uch o‘rtoq gap talashib qolishdi?



http://ebook.portal.uz

3

O‘qishlar ham tugadi. Karim ertaga buvasi bilan tog‘ga jo‘naydi. Shunga yo‘l hozirligini ko‘rishdi. Lekin, negadir, qovog‘i soliq edi. Buvasi hayron bo‘ldi.

– Buva, cho‘ponlik yomonmi? – dedi Karim sekin.

– Yo‘q, chirog‘im.

– Hisobchi bo‘lish-chi?

– Hisobchilik ham yaxshi.

– Ichida eng yaxshisi qaysi?

– Kasbning yomoni bo‘lmaydi, – dedi buvasi.

Karim buvasining og‘zidan bu gapni eshitganda yuzidan olov chiqib ketdi. Axir u faqat dadamning kasbigina yaxshi, deb do‘stlarini kamsitgan edi-da!

Karim yugurganicha soy bo‘yiga ketdi. O‘rtoqlari oldiga borib, chimga cho‘zildi-yu:

– Hech bir kasbning yomoni bo‘lmaydi! – dedi o‘pkasini bosolmay hansirab.

U o‘rtoqlari bilan arazlashganini ham unutib qo‘ygandi.

– Sening otangning qorovulchilik kasbi ham yaxshi, sening otangning hisobchilik kasbi ham yaxshi...

– Sening otangning kasbi ham yaxshi! – deb unga qo‘shimcha qildi Salim.

Uchovining ham ichlarida chiroq yonganday chehralari yorishib ketdi...

http://edu.portal.uz

1. Karimning buvasi bilan suhbatini so‘zlang.
2. Karimga qanday baho berasiz?

Mohir qo‘llar qo‘shig‘i

Tolib Yo‘ldosh

Bizni mohir qo‘l qilgan
Vatan, g‘amxo‘r onamiz.
Maktabimiz qoshida
Bordir ustaxonamiz.

Qo‘lda parma, teshamiz,
Mehnat bilan yashaymiz.
Hunar bizga yoshlikdan
Do‘st bo‘lgan jondan ortiq.

O‘rganamiz biz uni,
Bolg‘a urib „Taqa-tuq“.
Qo‘lda arra, teshamiz,
Mehnat bilan yashaymiz.

Stol, stul, partaning
Bo‘lsa buzuq, singani,
Tuzatamiz birpasda
Katta usta singari.

Qo‘lda randa, teshamiz,
Mehnat bilan yashaymiz.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Siz nimalar yasashga qiziqasiz?

http://edu.portal.uz

Ilmning omonati

(Rivoyat)

Qadim zamonda usta temirchi bo‘lib, bu hunarni ipidan ignasigacha bilar ekan. Bundan tashqari u gullarni juda sevar va ustaxonasining oldida g‘aroyib gullarni parvarish qilar ekan. Temirchi qarib kuchdan qola boshlaganda, shogird olishni e’lon qilibdi. Uning oldiga uchta yigit kelib, shogirdlikka tushmoqchi ekanliklarini aytishibdi. Temirchi yigitlardan bittasini tanlab olish uchun ularni sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. Har biriga kichkina xaltachalarda o‘zi parvarish qilayotgan gullarning urug‘laridan beribdi va: „Men muhim ish bilan uzoq safarga ketyapman. Qaytgunimcha mana shu urug‘larni ehtiyot qilib saqlanglar. Urug‘larni saqlab, menga qaytargan yigitga temirchilik hunarini o‘rgataman“, – debdi.

Birinchi yigit urug‘larni uyiga olib borib, temir sandiqqa solib qo‘yibdi. U urug‘larni mana shunday saqlamoqchi bo‘libdi. Ikkinchi yigit gulchining do‘koniga borib, urug‘larni sotibdi va temirchi qaytganida xuddi shunday urug‘larni sotib olishini do‘kondorga tayinlabdi. Uchinchi yigit esa urug‘larni hovlisiga va uyi atrofiga ekib, ulardan o‘sib chiqqan gullarni parvarishlay boshlabdi.

Oradan ancha vaqt o‘tib, temirchi safardan qaytibdi. U uchala yigitni huzuriga chaqiribdi.

http://bilimdon.uz

Birinchi yigit temir sandiqda turgan urug‘larni olib boribdi. Temirchi ularni ko‘rib: „Sen ularni o‘ldiribsan, endi ular hech narsaga yaramaydi. Demak, sen hunarga ham shunday munosabatda bo‘lasan“, – debdi.

Ikkinchi yigit gul do‘konidan sotib olgan urug‘larini olib kelib ko‘rsatibdi. Temirchi ularni ko‘rib: „Bular men senga bergan urug‘lar emas, sen ularni sotib yuborib, bugun boshqa urug‘ olib kelibsan“, – debdi.

Uchinchi yigit ekkan gullarining urug‘larini yig‘ib olib boribdi. Temirchi ularni ko‘rib: „Mana shular men bergan urug‘lar, sen ularni hatto ko‘paytirib kelibsan. Demak, sening o‘rgangan hunaringdan hamma bahramand bo‘ladi“, – deb shogirdlikka shu yigitni qabul qilibdi.

„Tarbiya kitobi“dan

1. Temirchi usta shogirdlarni qaysi yo‘l bilan tanlab oldi?
2. Siz ikki yigitning tutgan yo‘liga qanday baho berasiz? Hunar haqida maqollar ayting.

Bordir kulol amakim

Obid Rasul

Bordir kulol amakim,
Nomlari usta Hakim.
Loy pishitib erta-kech,
Erinishni bilmas hech.

http://edu.portal.uz

O‘ymakorlarga taqlid,
Har naqshida nozik did.
Yangicha san’at talab,
Qo‘ndirib gul silliqlab.



Olov xumdon ichida,
Yal-yal gulxan ichida,
Oqizib ter, yuzda nur,
Ishlaydi dilda g‘urur.

U yasagan gultuvak,
Sopol lagan, osh tovoq,
Ko‘zasi chinnilardek,
Oyna misol yarqiroq.

Bu o‘tmish san’at meros,
Bobolarga bo‘lib xos.
Ungadir naqsh sayqal,
Etdi bugun mukammal.

U yasagan har idish
Xizmatdadir yoz-u qish.

1. O‘qing, tushunganingizni so‘zlang.
2. Kulolning mehnati tasvirlangan o‘rinlarni toping. Kulollar mehnatiga ta’rif bering.

Har kasbning o‘z gashti bor.

http://edu.uz

Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi?

Mirzakalon Ismoiliy

(Hikoya)

Ravshanjonning bobosi hamma ishga chechan. U kishining qo‘li gul deyishadi. Yer chopishmi, ariq olishmi, devor suvashmi, taxta randalashmi – hammasini havas bilan qiladi.

Asboblarini aytmaysizmi? Juda ko‘pki, sanagan bilan ado bo‘lmaydi. Ketmon deysizmi, belkurak deysizmi, qo‘larra, oybolta, tesha, gulqaychi, randa, andava...

Bu asboblarni o‘zi ishlatadi. Ketmon bilan yer chopadi. Belkurak bilan daraxtlarning tagini yumshatadi. Oybolta, qo‘larra, tesha bilan daraxtlarning qing‘ir-qiyshiq o‘sgan shoxlarini kallaklaydi. Randa bilan taxta randalaydi, andava bilan devor suvaydi. Shunisi qiziqki, u kishi ishi ko‘p bo‘lsa ham shoshilmaydi. Avval bitta ishni chiroyli qilib bajaradi. Keyin boshqa ishga qo‘l uradi. Innaykeyin asboblarini ishlatgan joyida tashlab ketmaydi. Ularni tozalab, joy-joyiga qo‘yadi.

Ravshan bo‘lsa, bunday qilmaydi. U ishni qilsa, bu ish qolib ketadi. Asboblarni yig‘ishtirib qo‘ymaydi. Ishlatgan yerida qoldirib ketaveradi. Avvaliga bobosi nevaram o‘zi tushunib olar, deb hech nima demadi. Har yerda qolgan asboblarni o‘zi tozalab, joy-joyiga keltirib

http://eduportal.uz

qo‘yib yurdi. Qarasa, bo‘lmaydigan. Biror asbob kerak bo‘lib qolsa, joyidan topilmaydi. U yoqni qidiradi, bu yoqni qidiradi – hech qayerda yo‘q. Ravshandan so‘rasa, u ham qayerdaligini bilmaydi. Qo‘ying-chi, tartib degan narsa qolmadi.

Oxiri bobosi Ravshanni biroz koyidi:

– Asboblarni oldingmi, ishlatib bo‘lgandan keyin darrov joyiga qo‘yish kerak. Kimga kerak bo‘lsa, u shu yerdan osongina oladi, qidirmaydi. Sen bo‘lsang, mening asboblarimni har yerga tashlab ketasan. Bunday qilsang, men xafa bo‘laman, – dedi.

– Yo‘q, yo‘q, bobojon. Sizni xafa qilmayman. Endi asboblaringizga tegmayman. Uydan bir nima olsam, ishlatganimdan keyin yana darrov joyiga keltirib qo‘yaman. Xo‘pmi? Shunday qilsam xafa bo‘lmaysizmi?

– Shunday qilsang, xafa bo‘lmayman, bolam, – dedi bobosi.

1. Bobo qanday fazilatga ega?
2. Bobo Ravshanni qaysi ishlari uchun koyidi?
3. Ravshan nima qilsa, bobosi xafa bo‘lmaydi? Siz matndan qanday xulosa chiqardingiz?

Kelib og‘zini ochar,
Tishlab olsa, qochar. *(Ombur)*

http://eduportal.uz

O‘n tilla mukofot haqida ertak

Anvar Obidjon

(Ertak)

Jar solar Eshak jarchi –
O‘rmondagi xabarchi:
– Tinglang, hang-u hang, farmon,
Muhr bosgan Yo‘lbars sulton!
Shoh istarki o‘rmonda –
Tuzilsin zo‘r komanda.
Ham bo‘linsin ikkiga,
Mohir bo‘lsin tepkiga.
Chunki shohning kenjasi –
Yo‘lbarschalar erkasi
Ishqibozmish futbolga,
O‘n tillamish har golga.
Hamda barcha o‘yinchi
Olar shohdan suyunchi.
Rozi bo‘lganlar, tinglang,
Marsh orqamdan, hang-u hang!

Shoh tillasin olay, deb,
So‘ng shinam uy solay, deb,
Fil kelsaki maydonga,
Yo‘lbars chiqib ayvonga,
Mag‘rur so‘zlab turganmish,
Barcha davra qurganmish:
– Diqqat, o‘rtoq hayvonlar,
Diqqat, mardi maydonlar!

http://eduportal.uz

Bilib qo‘ysin xaloyiq,
Trener – maymoq Ayiq.
Bo‘lmasin so‘zin birov,
Komanda tuzsin darrov!

Ayiq chiqib to‘riga:
– Sen sudya, – der Bo‘riga, –
Kimki o‘ynasa qo‘pol,
Yeb qo‘y, mayli, bemalol.
Chetga chiqib der Quyon:
– O‘ynamayman, hoy polvon,
Kechdim o‘sha tilladan,
Ajragim yo‘q kalladan.
Ayiq urib qahqaha,
Der: „Azal sen shunaqa.
Bor, jo‘nayqol, dingquloq,
Yumron sendan yaxshiroq.
Sen esa maymun – shayton,
Bo‘lasan darvozabon...“
Tulki qo‘llab hiylasin,
Olay deb shoh tillasin,
Der: „O‘ynay men hujumda,
To‘pni o‘rab dumimda.
Chalg‘itaman juda soz,
Bu o‘ringa o‘zim mos“.

1. Ertakni rollarga bo‘lib, ifodali o‘qing.
2. Eshak qanday farmonni o‘qib eshittirdi?
3. Nega Quyon o‘yindan bosh tortdi?

http://e-qo'llanma.uz

– Be, o‘rnashmas to‘p dumda,
Zo‘r zarbim bor xartumda.
Bas kelish emas hazil,
Men hujum qilsam, – der Fil.
Ayiq o‘rnidan turib:
– Bas qiling, – der bo‘kirib, –
Hujumda Jirafa qolar,
U yaxshi kalla solar.
Qanot hujumchi – Qoplon,
Chalg‘itishga ko‘p chaqqon.
Tulki o‘ynar o‘rtada,
Himoyada – to‘rttadan.
Fil raqibin aylar tang –
Eng orqada ko‘ndalang.
To‘ng‘izvoy, sal bo‘l bardam,
Filga berasan yordam.
Kirpi, seni qo‘shmaymiz,
Yangi to‘pni teshmaymiz...

To‘p o‘rtaga tashlandi,
O‘yin jadal boshlandi.
Ilib olsa kim to‘pni,
Nazarga ilmay ko‘pni,
O‘zim uray gol, derdi,
Tilla olay mo‘l, derdi.
Lekin ochko‘z, baxillar,
Noinoq, noahillar –
Qanchalar bellashmasin,
Qanchalar terlashmasin,
Baribir gol bo‘lmadi,

http://edu.portal.uz

Shohning ko‘ngli to‘lmadi.
Kirib nafsin ko‘yiga,
Horib, charchab uyiga
Qaytdi barcha o‘yinchi,
Betilla, besuyunchi...

Bo‘rivoy chaldi hushtak,
Shu bilan tamom ertak.

1. Ertakni ifodali o‘qing.
2. O‘yinda qaysi hayvonlar ishtirok etishdi?
3. Hayvonlar mukofot olmaganining sababini so‘zlang.

G‘oz – hunaring oz

Sobit G‘afurov

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. O‘rmonda bir G‘oz yashar ekan. U doim kekkayib yurarkan. Bir kuni hayvon va parrandalar yig‘inida:

– Men unaqa-bunaqa oddiy g‘ozlardan emasman. Siz parrandalarga podsho bo‘lsam arziydi, chunki hunarim juda ko‘p, – debdi.

– Xo‘sh, qani, bir ko‘raylik-chi? – deyishibdi parrandalar chug‘urlashib. Maqtanchoq G‘oz davom etibdi:

– Men sayrashni, yurishni, suzishni, osmonda uchishni, suvga sho‘ng‘ishni bilaman. Mana, shuncha hunarim bor. Qani, qaysi biringiz bunchalik ko‘p hunar egasisiz?..

http://eduportal.uz

– Quruq aravani olib qochavermay, hunarlaringni ko‘rsat, – deyishibdi atrofdagilar.

Maqtanchoq G‘oz:

– Gapimga ishonmayapsizlarmi, mana, yo‘rg‘alashimni ko‘ringlar!

– Loaqal yugurishda menga yetolmaysanku, tag‘in maqtanishingni qara, – debdi Bedana.

– Qani, uchib ko‘r-chi, – debdi Lochin bilan Qaldirg‘och.

G‘oz qanot qoqib osmonga ko‘tarilibdi-da, sal nariga borib qo‘nibdi. Lekin u Lochindek chaqqon, Qaldirg‘ochdek tez ucha olmabdi.

– Endi suzib, suvga sho‘ng‘ib ko‘rarsan, – debdi Qurbaqa vaqillab, Cho‘rtan baliq likillab. G‘oz suvga tushib, sekin suzib ko‘ribdi, suvga



http://edu-portal.uz

boshini tiqib sho‘ng‘igan bo‘libdi. G‘ozning harakatini ko‘rib, Qurbaqa bilan Cho‘rtan baliq qotib-qotib kulishibdi.

– Qani, sayrab ko‘r-chi, – debdi Bulbul.

G‘oz bo‘ynini cho‘zib chunonam g‘aq-g‘aqlab ketibdi.

G‘oz xuddi hamma ishni qoyil qilgandek kerilibdi-da:

– Qalay, hunarim zo‘r ekanmi? – deb so‘rabdi to‘planganlardan.

– Hunaring ko‘p bo‘lgani bilan zo‘r emas ekan. Sen, og‘ayni, ko‘p hunarlarni oz-oz bilgandan ko‘ra, bir hunarning ustasi bo‘l! Maqtanma G‘oz, hunaring oz! – debdi Qaldirg‘och.

1. G‘ozning qaysi jihatlari qushlarga ma’qul bo‘lmadi?
2. „Ko‘p hunarlarni oz-oz bilgandan ko‘ra, bir hunarning ustasi bo‘l“, degan gapni izohlang.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Siz qanday kasb egasi bo‘lmoqchisiz?
2. „Hunarli inson xor bo‘lmas“ maqolini siz qanday tushunasiz?
3. Bo‘limdan yodlagan she’ringizni ifodali aytib bering.
4. Nima uchun bir yigitga qirq hunar ham oz deyishadi? O‘z so‘zingiz bilan izohlang.

http://eduportal.uz

GO‘ZAL QISH MANZARASI



Kumush fasl

Zikrilla Ne’mat

Oltin kuz poyoniga yetib, dov-daraxtlarning so‘nggi yaproqlari ham duvva to‘kilib, bog‘-u rog‘larda, ekindan bo‘shagan keng maydonlarda, paxsa devorlar ustida gala-gala qora qarg‘alar paydo bo‘lib qolishdi. Ular go‘yo qora chopon kiyib olgan kishilardek, yelkalarini qisib olgancha, zovur bo‘ylari-yu yo‘l chekkalarida salmoqli qadam tashlashadi. Atrofga alanglab olgach, yerdan nimalarnidir cho‘qilab yeyishadi. Ayrimlari esa baland daraxt shoxiga yoki sim-

http://edubook.uz

yog‘ochga qo‘nib olib, bulutli osmonga qarab „qarr-qarr“ etib qo‘yishadi. „Qarg‘a qag‘illayapti, qor yog‘sa kerak, ayoz nafasi kelyapti“, – deyishadi ko‘pni ko‘rgan keksalar ko‘kdagi bulutga ishora qilib. Darhaqiqat, ko‘p kuttirmay, kechga borib yakkam-dukkam qor uchqunlay boshlaydi. Avvaliga ariq bo‘ylari va devor ostilari oqarib, tongga borib hamma yoq oppoq qorga burkanadi. Shudgorlangan dalalar oppoq qor ko‘rpasi ostida shirin uyquga ketadi.

Bolajonlar uchun esa qishning qiziqarli o‘yinlari avj oladi. Kimdir qorbobo yasaydi, kimdir tepalikdan chanada uchadi. Kimdir o‘rtoqlari bilan maza qilib qorbo‘ron o‘ynaydi. Shu boisdan ham biz zumrad bahorni, jazirama yozni va oltin kuzni qanchalik yaxshi ko‘rsak, kumush qish faslini ham shunchalik sevib, orziqib kutamiz.

Qish butun tabiat hordiq oladigan sokin va orombaxsh fasldir. Ayniqsa, O‘zbekistonimizning tog‘-u toshlari, dala-dashtlari, go‘zal qishloq-shaharlari oqqa burkanib, ko‘ngilda sof va ezgu orzularni uyg‘otadi.

1. Qora qarg‘alar yurtimizda qachon paydo bo‘ladi?
2. Qishki o‘yinlar haqida bilasizmi?
3. „Qishki o‘yinlar“ mavzusida 3 – 4 gapli matn tuzing.

Qish ohori qor bilan.

http://edu.ziyonet.uz

Qor alyori

Dilshod Rajab

Osmon qorni eladi,
Yerni oqqa beladi.
Xuddi yumshoq par to‘shak,
Dumalaging keladi.

Qor yog‘ar-ey, qor yog‘ar,
To‘lib dala-qir yog‘ar.
Boshimizdan sochqiday,
Oq marvarid, dur yog‘ar.

Xo‘p yaxmalak otamiz,
Goho qorga botamiz.
Qizib jo‘shar qon tanda,
Kim deydi sovqotamiz?

Qish yaxshi-yo, qish yaxshi,
Oppoq qor – kumush yaxshi.
Bir-birovga qor otib,
Qiyqirib, quvish yaxshi.

Qorto‘plarni otamiz,
Rosa kulib qotamiz.
Pisand qilmay ayozni,
Qish zavqini totamiz.

Qor yog‘ar-ey, zo‘r yog‘ar,
Rizq-u ro‘z mo‘l-ko‘l yog‘ar.
Xo‘b quvnatib dillarni,
Zavqimizga jo‘r yog‘ar.

http://eduportal.uz

1. Shoir qorni nimaga o‘xshatgan?
2. „Qor yog‘ar-ey, zo‘r yog‘ar, Rizq-u ro‘z mo‘l-ko‘l yog‘ar“ misralarini qay tarzda tushundingiz?

She’rni yod oling.

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan. *(Qor)*

Chana

O‘tkir Hoshimov

(Hikoya)

Farhodning dadasi chana olib keldi. Chananing orqasida suyanchig‘i bor. Sirpanchiq qanotlari yaraq-yaraq qiladi.

– O‘g‘lim, chanangni o‘rtoqlaring bilan birga uchgin, xo‘pmi? – deb tayinladi dadasi.

Farhod indamadi. Ertasiga nonushta qilar-qilmas, chanasining ipidan tortib, ko‘chaga chiqdi. Osmondan kapalak qor yog‘ar, bolalar qiyichuv ko‘tarib o‘ynashardi. Birov sirpanchiq uchar, birov qorbobo yasar edi.

Bolalar Farhodni ko‘rishlari bilan atrofini o‘rab olishdi. Farhod bo‘lsa:

– Qochinglar, bosib ketadi! – deb chananing ipidan mahkam ushlab oldi-da, Shavkatni turtib o‘tib ketdi. Ko‘chaning narigi betidagi tepalikka keta boshladi.

– Meni ham uchir, – dedi Dildora unga ergashib.

http://bolaportal.uz

– Ho, sinib qoladi, – dedi Farhod va chanasini sudrab ketaverdi.

Tepalik ustiga chiqib, chanaga o‘tirib oldi. Keyin oyog‘i bilan bir siltangan edi, chana shuvullab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga qor uchqunlari urilar, chana esa qushdek uchib borar, uning qulog‘i ostida shamol g‘uvullar, ammo u sovqotmas edi.

Chana pastga tushganidan keyin to‘xtab qoldi.

Farhodning yoniga Bahodir yugurib keldi va Farhodga qarab:

– Galma-galdan ucha qolaylik. Bir gal sen tortasan, bir gal men tortaman, – dedi.

Shunda Farhod:

– Yo‘q, ipi uzilib ketadi, – dedi-da, qovog‘ini solib oldi. Bahodir Farhodning qizg‘anchiqligidan xafa bo‘ldi va sirpanchiq uchayotgan bolalarning oldiga ketib qoldi.

U yana tepalikka chanasini sudrab chiqdi. Keyin pastlikka uchib tushdi. Besh-olti marta shunday qilgandan keyin charchab qoldi.

Farhod chanasini sudrab bolalarning oldiga bordi:

– Yur, Bahodir, galma-gal uchamiz, – dedi.

– Kerakmas! Men bolalar bilan o‘ynaymman, – dedi Bahodir.

Farhod Dildoraning oldiga bordi:

– Yur, Dildora, ikkalamiz chanada tepalikdan tushish o‘ynaymiz, – dedi.

http://edu.portal.uz

– Hali bermading-ku, chanangni! Endi kerakmas, – dedi Dildora va qizlar bilan qorbobo yasayverdi.

Farhod ularning o‘yinini birpas tomosha qilib turdi-da, zerikib ketdi. Bolalarning oldiga boray desa, Bahodir bilan Shavkatdan uyaldi. Bitta o‘zi chana uchay desa, hech qizig‘i qolmadi.

U alamidan yig‘lab yuboray dedi. Dadasi nima uchun: „Chanangni bolalar bilan birgalashib uchgin“, deganini endi tushundi. Sekin-sekin bolalarning oldiga bordi-da, chanani ularning o‘rtasiga surib qo‘ydi va:

– Hammamiz galma-galdan uchamiz, bo‘ptimi? – dedi sekingina.

Bolalar bu safar yo‘q deyishmadi.

1. Otasi Farhodga nima deb tayinladi?
2. Bahodir kimdan, nima uchun xafa bo‘ldi?
3. Farhod o‘z xatosini qachon tushundi?

Qish ham chiroyli

Quddus Muhammadiy

Hay-hay, ko‘rkam qish,
Qorlari kumush.
Guppa-guppa qor
Bo‘ralab yog‘ar.
Sovuq chirsillar,
Suv, muz qirsillar,

http://edu.portal.uz

G‘uborsiz havo
Jonlarga davo.
Tanlar ham qaynoq,
Hamma yoq oppoq.
Daraxtlar go‘zal,
Shoxlarni bezar.
Qor doka yo‘rgak,
Novdalar go‘dak.
Uyquda mizg‘ib
Yel esar izg‘ib.
Tarnov, bo‘g‘otda
Sumalak katta.
Osilib qator
Shag‘amdek qotar.
Bir gala chumchuq
Hovlida chirq-chirq.
Pir-pir uchishar,
Tomga qo‘nishar.
Anhor suvi muz,
Qora tikan tuz
Singari rangi.
O‘ynashib yangi
Besh-o‘nta bola,
O‘quvchi sara,
Yaxmalak otib,
Qor-muzga botib,
Ketdi tarqashib,
Tepadan oshib.
Hay-hay, ko‘rkam qish,



http://edupedal.uz

Qorlari kumush.
Guppa-guppa qor,
Bo‘ralab yog‘ar.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda tabiat manzarasi qanday tasvirlangan?
3. „Tarnov“, „bo‘g‘ot“, „sumalak“ so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Bosh qomus kitobimiz

Dilshod Rajab

Kitoblar ko‘p dunyoda,
Barchasidan ziyoda,
Nur sochar misli oftob,
Bizning bosh Qomus kitob!

Har so‘zida ming ma’no,
Ham mehr, ham qudrat jo,
Qadrlidir doimo,
Bizning bosh Qomus kitob!

Adolatdan so‘zlaydi,
Ezgulikni ko‘zlaydi,
Teng-tenglikni istaydi,
Bizning bosh Qomus kitob!

Huquqimiz qalqoni,
Erk, baxtimiz posboni,
Insoniylik dostoni,
Bizning bosh Qomus kitob!

http://eduportal.uz

Dadil bo‘l, men bor, deydi,
Senga madadkor, deydi,
Qonun ustuvor, deydi,
Bizning bosh Qomus kitob!



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Qomusimiz nimalar haqida so‘zlar ekan? Qomusimiz nima uchun kerak?
3. She’rning oxirgi bandi mazmunini tushuntiring.



She’rni yod oling.



Qish ertagi

Aziza Ahmedova

(Ertak)

1

Havo soviy boshlabdi. Sovuqdan dir-dir qaltirashayotgan Tipratikan, Qizilishton, Quyon bir joyga yig‘ilishib, suhbat qurishibdi.

– Men qiladigan ish qolmadi, endi dam olaman, – debdi Qizilishton.

– Nimalar deyapsan, hoy o‘rmon shifokori? – debdi unga Quyon. – Nahotki endi hech kimga keraging bo‘lmasa?

– Voy, voy, voy! Shunaqa ham sovuq bo‘ladimi? Endi qayerda jon saqlaymiz? – deya baroqdum Tulki kelib qolibdi. Tulkini ko‘rgan Quyonning jon-poni chiqib ketibdi.

Shu payt Qizilishton:

– Kelinglar, bir boshpana topaylik. Qishga

http://eduportal.uz

kerakli hamma narsani uyga tashib olamiz-da, yashayveramiz, – debdi.

– Yaxshi taklif. Lekin sizlarning qishga g‘amlaganlaringizni biz, tulkilar yeya olmaymiz. Bizga tovuq, quyon, qush go‘shti kerak, – Tulki shunday debdi-da, ko‘zlarini surbetlarcha Qizilishtonga qadabdi. So‘ng sal nariroqqa, quyuqroq butalarning orasiga kirib olibdi. Qizilishton ham qaltirab, qo‘nib turgan butog‘iga mahkamroq yopishib olibdi va:

– Yegulik haqida keyin o‘ylab ko‘rarmiz. Hozir boshpana masalasini hal qilaylik, – deb Quyonga o‘girilibdi.

2

Quyonlar yig‘ilishibdi. Tulki ham ayyor do‘stlari bilan shu yerga kelibdi. Ular birgalikda boshpana qidira boshlabdilar.

Tulkilardan biri boshqasining qulog‘iga shivirlabdi:

– Qornim rosa ochdi-da, kel, mana bu quyonlardan bir-ikkitasini maza qilib tushiraylik.

– Yo‘q, yo‘q, biroz chidash kerak. Keyin hammasi o‘zimizniki bo‘ladi, – debdi boshqa Tulki.

Nihoyat, hayvonlar bir g‘or topishibdi. G‘or kichikroq ekan, bu quyonlarga yoqib tushibdi.

– Yaxshi joy ekan, faqat biz sig‘amiz, bolalari bilan Tipratikanga ham joy topilib qoladi. Biroq

http://eduportal.uz



Tulkixon bilan do‘stlari o‘zlariga boshqa joy topishlari kerak, shekilli, – debdi Quyon.

Quyonning gapiga Tulkining jahli chiqibdi. Ammo jahli chiqqanini sezdirmabdi.

– G‘orni biz ham izlashdik. Quyonlar biroz siqilishsa, joy hammamizga yetadi, – debdi Tulkivoy.

– Yaxshisi, g‘orga sizlar avval kirib ko‘ringlar, sig‘sanglar sizlarniki, – debdi Quyon. Bu gap tulkilarga ma’qul kelibdi. Ular g‘orga kirishibdi. Qancha siqilishmasin, tulkilarning hammasi g‘orga sig‘mabdi. Buni ko‘rgan Tipratikan tulkilarga qarab:

– Quyonning gapi to‘g‘ri. Sizlar o‘zingizga joy topishingiz kerak, boshqa iloj yo‘q, – debdi.

http://elbuxoriy.uz

1. Jonivorlar nima haqida suhbatlashibdi?
2. Tulkilar qanday ayyorlik qilmoqchi bo‘lishibdi?

Ertakning 1 – 2- qismini rollarga bo‘lib o‘qing.



3

Tulkilar boshqa chora topolmabdilar. To‘planishib, shivir-shivir boshlabdilar. Tulkilarning biri:

– Rozi bo‘laveraylik. Hozircha topgan-tutganlarini g‘orga tashib, eshikni berkitib o‘tiraverishsin, – debdi.

– Birdan hujum qilamiz, hammasini qo‘lga tushiramiz, – debdi ikkinchi Tulki.

Maslahatga berilib ketgan tulkilar daraxtdagi Qizilishtonni sezmay qolibdilar. O‘rmon shifokori tulkilarning hiylasidan Tipratikanni xabardor qilibdi.

– Bekorga shivirlashmayotgan ekan-da! – debdi Tipratikan Qizilishtonga rahmat aytib. –Yaxshiyam bizni xabardor qilding. Bechora quyonlar ayyorlarning qo‘liga tushishlariga sal qolibdi-ya!

4

Tipratikan quyonlarni qutqarish yo‘lini o‘ylay boshlabdi. U quyonlardan birini g‘orga kiritibdi va tuynuk bor-yo‘qligini bilib chiqishni aytibdi. Quyon tashqariga ochilgan kichikroq tuynuk borligini bilib chiqibdi.

http://edu.orfai.uz

Shu payt baroqdum kelib:

– Biz rozimiz. Mayli, bu boshpana quyon do‘stlarimizga bo‘la qolsin. Biz tashqarida g‘orni qo‘riqlab yashayveramiz, – debdi.

Quyonlar rozi bo‘lishibdi. Tipratikan esa quyonlarga tuynukdan tezroq chiqib ketishni ishora bilan tushuntiribdi.

Quyonlar g‘orga kirib, yashirin yo‘ldan chiqib keta boshlabdilar. Quyonlarning oxirgisi chiqib bo‘lgach, Qizilishton Tipratikanga ko‘z qisibdi. Tipratikan tulkilarga g‘orga kirishga ruxsat beribdi.

Tulkilar bir-birlarini bosib-yanchib ichkariga otilibdilar. Biroq u yerda hech kim yo‘q ekan. Aldangan, och tulkilar g‘azab bilan tashqariga chiqishibdi. Bu hiylani Tipratikan o‘ylab topganini darhol bilishibdi. Ular Tipratikanga tashlanishibdi. Tipratikan esa g‘ujanak bo‘lib olib, ular tomonga dumalabdi. Xullas, ayyor baroqdum va do‘stlarining maqsadi amalga oshmabdi. Ular sharmanda bo‘lib, jo‘nab qolibdilar.

– Yashavor, Tipratikan og‘ayni! – debdi Qizilishton. – Dono maslahating bilan quyonlarning hayotini saqlab qolding.

– Ha, do‘stim, sen ham katta yordam berding, – minnatdorchilik bildiribdi Tipratikan. – Agar biz birlashmaganimizda, ayyorlar ustidan g‘alaba qilolmas edik.

http://ebook.ziyonet.uz

1. Tipratikan nimaga o‘ylanib qolibdi va qanday tadbir qo‘llabdi?
2. Nima uchun tulkilar o‘z maqsadlariga erisha olmabdilar?
3. Ertakda qanday fazilatlar ilgari surilgan? Har bir qismga mos sarlavha toping.

Ertak qahramonlariga baho bering.

Do‘sting bilan dildosh bo‘l,
Qilar ishiga qo‘ldosh bo‘l.

Laylak qor

Orif To‘xtash

Uchib tushgan laylak qor,
Momiq parga o‘xshaydi.
To‘kilishi maftunkor,
Munchoq, zarga o‘xshaydi.
Laylak qor, laylak qor,
Ko‘ngillarni yayrat, qor!



Qo‘lim tutsam, kaftimga
Kapalakday qo‘nadi.
Naqshi hayratga solib,
Zumda erib jo‘nadi.
Laylak qor, laylak qor,
Mo‘jizali, hayrat qor!

Daraxtlar ham oq rangda
Chizilganga o‘xshaydi.
Osmonning tegirmoni
Buzilganga o‘xshaydi.

http://eduportal.uz

Laylak qor, laylak qor,
Uchib-qo‘nib, yayrab qol!

Zavq berar bu manzara,
Har o‘g‘ilga, har qizga.
Uydan chiqib, singlim ham
Aylandi naq Qorqizga!
Laylak qor, laylak qor,
Qorqiz kiygan ko‘ylak qor!


Tabiat tasviriga e’tibor qarating. Fikrlaringizni og‘zaki ifodalang.


She’rni yod oling.



Qish bo‘lmasa-chi?

Yayra Sa’dullayeva

(Hikoya)

Sanobar uyg‘onsa, yotoqxonasi sovib ketibdi. Pag‘a-pag‘a qor yog‘ibdi. Hali hech kim isitgich yoqmagan edi. U erinibgina o‘rnidan turdi-yu, iliq suvga yuz-qo‘lini yuvib keldi.

Oyisi:

– Kechagina kuz edi, bugun qish ham kelib qolibdi, – dedi.

Sanobar oyisidan:

– Qish bo‘lmasa, nima qiladi? – deb so‘radi. Muruvvat opa qiziga shunday javob berdi:

– Qish bo‘lmasa, yer yaxshi hordiq chiqara olmaydi. Yer tabiatning uch faslida qattiq meh-

http://edu portal.uz

nat qilib, xalqqa noz-u ne’matlar beradi. Qishda bamaylixotir dam oladi. Qor va yomg‘ir suvlarini yig‘ib, namligini kelgusi yil hosili uchun asrab turadi. O‘zida kuch to‘playdi. Bahor kelishi bilan insonga o‘z bag‘rini ochadi, mehrini sochadi.

– Qish bo‘lmasa, yer charchab qoladimi? – deb so‘radi Sanobar ko‘zlarini javdiratib.

– To‘g‘ri topding, qizim. Yer charchab qoladi. U toliqsa, sen yeyotgan olma-anorlar, qovun-tarvuzlar, kartoshkalarning hosiliga futur yetadi. Qor yog‘masa, qorbobo yasay olmaysan, yaxmalak ucholmaysan.

Sanobar hayron bo‘lib qoldi. Rosti bilan qish bo‘lmasa, bugungiday to‘kinchilik, boylik bo‘lmas ekan-da? Hali u bunday gaplarning mag‘zini chaqib ulgurmasdan, onasi yelkasiga qoqib:

– Bo‘la qol, ona qizim, o‘qishingga kech qolma, – dedi-da, uni maktabiga kuzatdi.

Sanobar yo‘l-yo‘lakay onasining aytganlarini o‘ylab borardi. Chunki oyijonisiga bergan savoliga olgan javobni o‘rtoqlariga ham aytgisi kelardi.

1. Muruvvat opa qiziga qish haqida nimalar dedi?
2. Hikoya nima bilan tugadi? Matn mazmuniga mos maqol tuzing.

http://edu portal.uz

Momiq qor

Po‘lat Mo‘min

Yog‘adir momiq qor,
Beg‘ubor, beg‘ubor.
Tutaman kaftimni,
Yuzimni, aftimni.
Ohista silaydi
Va sog‘liq tilaydi.
Hayron-la chopaman,
Olam zavq topaman.
Qor yog‘ar elanib,
Oq rangga belanib.
Dalalar yastanib,
O‘zicha yasanib,
Ko‘rinar keng borliq.
Oq qorlik, ogohlik...
Oppoq qor yog‘adir,
Barchaga yoqadir.
Maqtasa kiroyi
Qor – qishning chiroyi.
Gapimning ochig‘i:
Qor – yerning ozig‘i.
Asli mo‘l hosildir,
Murodlar hosildir.
Yog‘adir oppoq qor,
Hamma yoq oq gulzor.



„Qor yog‘ar elanib, oq rangga belanib“ misralarini qanday tushundingiz?

She’rni yod oling.

http://edu.uzportal.uz

Qorparcha

Oydinniso

(Ertak)

1

Qorparcha yoz faslini ko‘rishni orzu qilardi. U avvallari dunyoda yoz degan fasl borligini bilmasdi. Har qishda o‘ynab-kulib, yayrab-sakrab yog‘ardi. Har bahorda bug‘lanib, osmonga qaytar, ba’zan havo sovuq kelsa, kuzni ham ko‘rib qolardi.

Bir qish u o‘ynab tushib, daraxt shoxiga qo‘ndi. Sovqotib turgan daraxtga uning tashrifi yoqmadi, qovog‘ini uydi. Qorparcha hayron bo‘ldi:

– Nega xafa bo‘lasan? Axir seni bezatish uchun keldim-ku! Qara, qanday chiroyli bo‘lib qolding!

– Shuyam chiroy bo‘ptimi? – tumtaydi daraxt. – Sovuqdan hamma yog‘im uvushib ketyapti. Sen meni yozda ko‘rganingda!..

– Yoz deganing nima u? – qiziqdi Qorparcha.

– Yoz – bu... nur fasli. Ona yer quyosh nuriga cho‘miladi. Gullar ochiladi, rang-barang kapalaklar ularga qo‘nib o‘ynaydi. Laylaklar janubdan qaytib, shoxlarimga in quradi. Tuxumidan palaponlar chiqadi. Eh, ularni bir ko‘rganingda!

http://edu.ziyonet.uz



Qorparcha o‘sha yili yerda qolib, yozni ko‘rmoqchi edi. Biroq u quyosh chiqishi bilan erib, bug‘lanib ketdi. Ko‘z ochib-yumguncha o‘zini osmonda ko‘rdi.

U endi avvalgi Qorparcha emasdi. Qalbini yozni ko‘rish istagi qamrab olgandi. Har zamonda osmondan yerga mo‘ralar, hech nima ko‘ra olmay xunob bo‘lardi.

– Meni kapalakka aylantirib qo‘ying! – deb so‘radi u ona Bulutdan.

– Nima uchun? – hayron bo‘ldi ona Bulut.

– Kapalaklar yozda yashar emish. Men yozni ko‘rmoqchiman.

– Lekin...

– Iltimos, kapalakka aylantirib qo‘ying!

Yana qish keldi. Ona Bulut Qorparchani kapalakka aylantirib, zaminga uchirib yubordi.

http://e-dunyo.uz

1. Qorparcha nega yoz faslini ko‘rishni orzu qildi?
2. Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.

2

– Kapalak qor yog‘yapti, kapalak qor! – suyunib ko‘chaga otildi bolakaylar.

Qorparcha qanotlarini qoqib, havoda raqsga tushdi. Horigach, tanish daraxt shoxiga qo‘nib:

– Hooy, salom! Ko‘rdingmi, men kapalakka aylanib keldim! Sen bilan birga yozni ko‘rmoqchiman, – dedi u daraxtga.

Daraxt kulimsiradi:

– Sen kapalak emas, kapalak qorsan. Quyosh chiqsa, erib ketasan.

– Hecham-da, – qaysarlik qildi Qorparcha, – men kapalakman!

Daraxt haq edi. Qorparcha yana havo isishi bilan erib, bug‘lanib ketdi. Biroq orzu qilishdan to‘xtamadi. Endi u ona Bulutdan laylakka aylantirib qo‘yishini so‘radi. Laylaklar ham yozda yashaydi. Daraxtning aytishicha, ular kattagina qush ekan. Ehtimol, laylakka aylansa, erib ketmas...

U qanotlarini laylakcha qoqib zaminga uchdi. Bolalar uni ko‘rib, qo‘shiq kuylay boshlashdi.

Laylak qor-u laylak qor,
Laylak qorga men xumor.

http://eduportal.uz

– Sen hech yozni ko‘rgan qor haqida eshitganmisan? – so‘radi Qorparcha tanish daraxtdan.

– Eshitganman. Ular tog‘ cho‘qqilarida yashar emish. Ko‘pchiligi yozga kelib qurtlab ketar ekan.

Qorparchaning yuzi burishdi. Yo‘q, u qurtlashni xohlamaydi. Yozni bir ko‘rsa bas, keyin erib ketsa ham mayli.

Bu safar ham Qorparchamiz bahor kelishi bilan osmonga qaytdi. U dili xufton bo‘lib, yana ona Bulutga yuzlandi.

– Shunday qilamanki, bu gal yozni ko‘rib qaytasan! – so‘z berdi ona Bulut.

U so‘zining ustidan chiqdi. Qorparcha endi uchib tushib, ochilib turgan bir kaftga qo‘ndi.

Bu – qaynoq yurakli shoir bolaning kafti edi. Qorparcha erib, uning vujudiga singib ketdi. Bu vujudda to‘rt fasl birday yashardi. Qorparcha orzu qilganiday, to‘rt fasl go‘zalligidan bahramand bo‘ldi. So‘ng shoirning ko‘zlaridan quvonch yoshi bo‘lib sizib chiqdi-da, osmonga bug‘lanib ketdi...

1. Qorparchaning orzusi qanday amalga oshdi?
2. Hikoyaning oxirgi jumlasini o‘qing. O‘z fikringizni bildiring.

http://eduportal.uz

Ayamajiz

Qudrat Hikmat

Biyday cho‘l-u dalalar,
Bo‘ralar qor kapalak.
Bog‘lar sokin, mizg‘ishar
Misoli oq kapalak.

Muz oynalar sovuq yeb,
Anhorchada qirsillar.
Tarnovlarda sumalak
Shodalari chirsillar.

Saxiy ona tabiat
Quchog‘ida havo sof.
Onda-sonda ko‘rinar
Nursiz, qizg‘ish oftob.

Ayamajiz izg‘iydi,
Ko‘chalarda tutaqib.
Shox-shabbani tortqilar,
Yalmog‘izdek yutoqib...

Ko‘k maysalar nish urib,
Yerning baland-pastida.
Go‘zal bahor selkillab,
Yetilar yer ostida.

1. Uchinchi to‘rtlikda nima deyilgan?
2. Ayamajiz paytida tabiatda qanday hodisalar ro‘y beradi?

http://eduportal.uz

Qorboboga elektron maktub

Zamira Ibrohimova

(Hikoya)

Bugun Sardor o‘zgacha hayajon bilan maktabdan keldi. Ovqatlanib bo‘lgach, ko‘tarinki kayfiyatda dars qilishga o‘tirdi. Qo‘liga ruchkasini oldi, daftarning oppoq varag‘iga „Qish“ deb sarlavha qo‘ydi. Davomiga nima yozishni bilolmay, to‘xtab qoldi.

„Nima yozsam ekan-a? Ertak to‘qish shunchalik qiyin deb o‘ylamagan edim“. Deraza yoniga kelib, tashqariga qaradi, dekabr oyi bo‘lsa ham, qishni eslatadigan hech narsani ko‘rmadi. Yer qup-quruq, osmon tip-tiniq, quyosh charaqlab turibdi. „Hmm, ustozimiz ham qiziq. Qor yog‘magan bo‘lsa, bolalar qorbobo yasamayotgan bo‘lishsa, qanday qilib qish haqida ertak to‘qib bo‘ladi... Katta yozuvchilar ham qor yog‘ishini tomosha qilib, keyin ertak yozishadi-da. Agar qish oxirigacha qor yog‘masachi, unda nima bo‘ladi? – dedi o‘ziga o‘zi. – Bir xil joylarda qishda ham havo issiq bo‘ladi, qor yog‘maydi, deyishadi. U yerdagi bolalar qor o‘ynamasa, chana uchmasa, qish juda zerikarli o‘tsa kerak. Eh, o‘sha tomonlarga borib qolsammidi, shartta Qorboboga telefonda SMS jo‘natib, sovuq havo, ko‘proq qor yubo-

http://eduportal.uz

rishini iltimos qilardim. Qor gupullab yog‘sa, bolalar qorbo‘ron o‘ynasalar, qorbobo yasasalar qanchalik xursand bo‘lishardi-ya...“



Sardor shularni xayolidan o‘tkazib, jim bo‘lib qoldi. So‘ng „Voy, shular haqida yozsa bo‘ladi-ku!“ dedi xayoliga kelgan fikrdan quvonib. Va tez-tez yoza boshladi: „Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, uzoqmas yaqin zamonda bir qishloq bo‘lgan ekan. U yerlarda qish faslida ham havo issiq bo‘lar ekan. Sovuq yo‘q, qor yo‘q, shuning uchun u yerga Qorbobo ham kelmas ekan. Bolalar sovuq qishda qor o‘ynashni, qorbobo yasashni juda xohlabdilar. Ular Qorboboga elektron pochtadan xat yuboribdilar. Qorbobo bolalardan o‘z „e-mail“iga kelgan xatlarni o‘qib, ularga tog‘lardan, o‘rmonlardan ko‘p-ko‘p qor va sovuq yuboribdi. Bolalar bundan rosa xursand bo‘libdilar. Qor o‘ynab, chana uchibdilar. Qordan qorbobo yasabdilar. Hamma murod-u maqsadiga yetibdi“, deb ertagini tamomladi.

Ertasi kuni ustoz o‘quvchilar tomonidan yozilgan eng yaxshi ertaklarni o‘qib berdi. Sar-

http://eduportal.uz

dorning ertagiga ham alohida e’tibor qaratib, yaxshi so‘zlar aytdi. Sardor bu maqtovlardan quvonib o‘tirgan edi, partadosh do‘sti Shahzod:

– Sardor, internetdan ko‘rdim, bugun qor yog‘ar ekan, – dedi quvonch bilan.

– Zo‘r-ku! – dedi Sardor yanada sevinib.

Bolalar maktabdan qaytayotganlarida osmondan oppoq qor yog‘ardi.

1. Sardor maktabdan uyiga qanday kayfiyatda qaytdi?
2. Elektron maktubning mazmunini so‘zlab bering.

Yangi yil archasiga

Dilfuza Kamoljonova

Bo‘ylari shiftga yetgan,
Igna bargli, ko‘k archa.
Zar-u marjonlar taqib,
Yasanishing o‘zgacha.

Yangi yil bayramida
Qorboboni kutamiz.
Qop orqalab kelsa gar,
Zavqqa to‘lib ketamiz.

Kichkintoylar kuylashib,
Atrofingda aylanar.



http://eduportal.uz

Egningdagi chiroqlar,
Kech kirganda tovlanar.

Ko‘rkam archa, ko‘k archa,
Bayramda bosh qahramon.
Baland tog‘lar oshib kel,
Uyimizda bo‘l mehmon.

1. Shoir archani qanday ta’riflagan?
2. She’r mazmuniga mos rasm chizing.

She’rni yod oling.

Yozda ham qishda,
Bir xil kiyimda. *(Archa)*

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Qishda o‘lkamiz tabiatida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
2. Qish fasli bolalarga yoqadimi? Nima uchun? Buni qaysi asardan bilib oldingiz?
3. „Qish“ mavzusida rasm chizing. Chizilgan rasm asosida og‘zaki hikoya tuzing.
4. Bo‘limga kiritilgan she’rlardan o‘zingizga yoqqanini aytib bering.
5. „Qish zavqi“ mavzusida matn tuzing.

O‘tda yonmaydi,
Suvda botmaydi. *(Muz)*

http://eduportal.uz

VATAN HIMOYACHILARI



Vatanimga xizmat qilaman

Zikrilla Ne'mat

Yigitdirman, yo‘qdir armonim,
O‘z burchimni yaxshi bilaman.
To tirikman, ona makonim –
Chamanimga xizmat qilaman,
Vatanimga xizmat qilaman!

Temur bobom qudrati menda,
Jaloliddin jur’ati menda,
Temur Malik shiddati menda,
G‘animlarning bag‘rin tilaman,
Vatanimga xizmat qilaman!

Mangu omon bo‘lsin deb xalqim,
Kecha-kunduz bedordir qalbim,
Shu el – mening g‘ururim, baxtim,

http://eduportal.uz

Men undan kuch-quvvat olaman,
Vatanimga xizmat qilaman!

Shu yurt mangu dilga jo bo‘lsin,
Osmonlari musaffo bo‘lsin,
Baxti uchun jon fido bo‘lsin,
Unga mangu sodiq qolaman,
Vatanimga xizmat qilaman!



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Ajdodlarimizga munosib farzand bo‘lish uchun nima qilish kerak? Vatan haqida bilgan maqollaringizdan ayting.



Balli buva

Yusuf Fayzullo

(Hikoya)

Ko‘chamiz muyulishida yashaydigan otaxonni hammamiz yaxshi ko‘rardik. Maktabga borishdayam, qaytishdayam ko‘cha eshigi yonida o‘tirgan boboga odob bilan salom berardik. U kishi bizni „Balli, bolalarim“, deya olqishlardi. Eng qizig‘i, u kishining asl ismlarini birortamiz bilmasdik, „Balli buva“ derdik. Goho katta yoshlilar „Polvon ota“ deya murojaat qilishganini eshitib, hayron qolardim: jussasi kichkinagina bu odamning nimasi polvon ekan?

Keyinchalik, „Balli buva“ haqida onam bir voqeani so‘zlab bergan edilar.

http://eduportal.uz

U paytlar uyimizdan sal narida ekinzor dalalar bo‘lgan ekan. Urush vaqtida yosh-u qari ertadan kechgacha daladan chiqishmagan ekan. Ikkinchi jahon urushi yillarida „Balli buva“ning urushga ketgan ikkala o‘g‘illaridan ham birin-ketin „Bedarak yo‘qoldi“, degan mudhish xabar kelibdi. O‘z yog‘iga qovrilib yotgan ota-onasini kuydirib, kenja o‘g‘il ham frontga jo‘nabdi. Undan ora-sira kelib turgan maktublar ota-onaning yagona quvonchi ekan.

O‘sha yili bug‘doy o‘rimi erta boshlanibdi. Bir kuni jamoa xo‘jaligi raisi dalaga kelib, „Balli buva“ni bir chetga tortib, allanimalar debdi. Rais ketgach, buva ma’yus tortib qolibdi. Chalg‘ini yelkasiga ilgancha, qo‘shnilarga bugun uyga bormasligini kampiriga yetkazib qo‘yishlarini iltimos qilibdi.

Tuni bilan tinmay bug‘doy o‘ribdi. Tong yorishganda, xo‘jalik rahbari kelib qolibdi.

Bug‘doyzorning yarmidan ko‘pi o‘rib bo‘linganini ko‘rib, hayron bo‘libdi. Bu otaxonning ishi ekanligini bilgach, bir o‘zi yigirma kishining yumushini bajargan buvani dast ko‘tarib, „Yashang, polvon ota“, deya chir aylantiribdi.

„Balli buva“ning kenja o‘g‘lidan ham „qora xat“ kelganini xo‘jalik rahbari ming bir iztirob bilan o‘sha oqshom aytgan, otaxon bor alamini ishdan olgan ekan...

Hali-hanuz mahalladoshlarimiz „Balli buva“ni eslab yurishadi...

http://edu.ziyonet.uz

1. Nima uchun mahalladoshlari otaxonni Balli buva, Polvon ota deb atashar ekan?
2. Balli buvaning qanday xislatlari bor ekan? Matndan shu o‘rinlarni toping.

Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz

(Suhbat)

Muxbir: Iskandar aka, ayting-chi, bolalarning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatiga qarab askarlarga xos fazilatlarni bilish mumkinmi?

I. Rahmonov: Albatta mumkin. Bolalarning qo‘rqoq yoki botirligi, dangasa yoki mehnatkashligi, chaqqon yoki epchilligi shundoqqina ularning harakatidan bilinib turadi. Darvoqe, xalqimizning „Bola boshidan...“ degan iborasi ham bor.

Muxbir: Askar bo‘lish uchun bolajonlarimiz oldindan qanday tayyorgarliklarni ko‘rib borishlari kerak?

I. Rahmonov: Gapi og‘zidan tushib ketadigan, onasining etagiga yopishib, hiqillab yuradigan erkatoylardan chinakam askar va zobitlar chiqmaydi. Harbiy xizmatda askarlar juda qisqa fursatda boshdan oyoq kiyinib, safga turishlari kerak. Askarning ust-boshi doimo ozoda, kiyimi dazmollangan bo‘lib, poyabzali yaraqlab turishi shart! Bularni unga birov qilib bermaydi.

http://edu.portal.uz

Ularni bajarish oson emas. To‘g‘ri, kimki kichikligidan shunaqa fazilatlarga ega bo‘lsa, ularga birmuncha oson bo‘ladi. Erkatoylar esa judayam qiynalishadi. Bolalarimiz, avval, sog‘-lom bo‘lishlari kerak. Sog‘lomlik esa jismoniy tarbiya, turli harakatli o‘yinlar va sport bilan muntazam shug‘ullanishni talab qiladi.

Muxbir: Ha, to‘g‘ri. O‘tmishda ham, hozir ham Vatanni qo‘rqoq, nomardlar emas, balki mardlar qo‘riqlagan, qo‘riqlaydi. El ana shun-day mardlarni olqishlaydi, ardoqlaydi. Askarlik hayoti o‘tadigan harbiy bo‘linma esa mardlar maktabidir.

I. Rahmonov: Shunday, bolajonlarimiz mard-lar maktabida chiniqib, toblansinlar. Mustaqil O‘zbekistonimiz Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish har bir farzand uchun sharafdir.

Iste’fodagi tibbiy xizmat podpolkovnigi Iskandar Rahmonov bilan suhbatdan

1. Suhbatdan nimalarni bilib oldingiz?
2. „Bola boshidan...“ iborasi kimning nutqida uchradi?
3. Maqolada askarlarning tartibga bo‘ysunishlari, ko‘rinishlari haqida nimalar deyilgan?
4. „Mardlar maktabi“ deganda nimani tushun-dingiz?

Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum.

http://eduportal.uz

Sport maktabi

Anvar Obidjon

Tashkil topib yaylovda
Sport maktabi,
O‘sib borar polvon-u
Chaqqonlar safi.
Ta’lim olar Qo‘zichoq
Bunda boksdan.
Endi qo‘rqmas, duch kelsa
Bo‘ri qo‘qqisdan.
Itga yozdi ariza
Shaddod yosh Taka:
„Bo‘lmoqchiman qilichboz,
Murabbiy aka“.
Tinim bilmay Cho‘chqacha
Mashq qilar kunda.
U shtanga ko‘tarar
Og‘ir vaznda.
Yashil futbol maydoni
Ayniqsa, gavjum.
Ana, Toychoq pishqirib
Qilmoqda hujum.
Darvozani Mushukcha
Qo‘riqlar hushyor.
Chunki qizil koptokda
Sichqon rasmi bor.
Kechagina maktabga
Qo‘shilgan Buzoq,

http://eduportal.uz

Gimnastlarga qo‘shilib,
Otar shataloq...
Tashkil topib yaylovda
Sport maktabi,
O‘sib borar polvon-u
Chaqqonlar safi.
Ammo Xo‘tik shubhada
Yuribdi hamon:
„Eshakdan ham, nahotki,
Chiqsa chempion?!“

1. She’rni ifodali o‘qing. Qaysi hayvonlar sport bilan shug‘ullanishdi?
2. Shoir hayvonlarga qanday ta’rif bergan?

Bobonur

Safar Barnoyev

(*Hikoya*)

Nigina akasidan kelgan xat qatidagi rasmni ko‘rib, ko‘zlari chaqnab ketdi. Sabriya bibinikiga chopdi.

Sabriya bibi suratni olib sinchiklab tikildi. Uning chehrasi yorishdi.

– Axir bu o‘zimning Bobonurim-ku! Voy, bibiginang aylansin. Qizim, mana bularga qara, ko‘zimga issiq ko‘rinyapti.

– Bibijon, Bobonur akam uzoq joyda emas, Samarqandda xizmat qilyaptilar.

Sabriya bibi:

http://eduportal.uz

– Bobonurim askar emasmi?

– Askarlar, – tushuntirdi Nigina, – ular Samarqandni qo‘riqlaydilar.

– A? – dedi Sabriya bibi, – Samarqandni qo‘riqlaydimi?

So‘ng:

– Xayriyat-ey, – deb o‘yga toldi.

Qishloq yigitlari birin-ketin bo‘y cho‘zib, harbiyga keta boshladi. Bibi ularning harbiyga jo‘natish marosimiga atab patir yopardi. Yigitchalar bilan xayr-xo‘shlashar ekan, yopgan patiridan olib chiqib:

– Nevaraginam, mana bu yeridan tishla, esonomon kelsang, rizqingni o‘zing yersan, – deb patirni ilib qo‘yardi. Ko‘pchilik askarlikdan qaytgach, o‘z nasibasini olib ketardi.

Bobonur armiyaga ketar kuni ham Sabriya bibi unga patir tutqazib:

– Mana buni issiqligida tishla, bolam, nasibang doim butun bo‘lsin! – deb uyga kirib ketgan edi...

Bibining kiprigiga yosh qalqidi. Buni ko‘rgan Nigina so‘radi:

– Bibijon, nega yig‘layapsiz?

– Bobonurimning rizqi butun ekan, shunga quvonganimdan yig‘layapman, bolam. Nasib etsa, nevaraginamni o‘zim borib ko‘rib kelaman.

Sabriya bibi rasmni qaytarib berar ekan, qo‘lini ochib duo qildi:

http://edu.portal.uz

– Iloho, yurtimizga ko‘z tegmasin, mustaqilligimiz mustahkamlanib borsin.

1. Nima uchun Sabriya bibining chehrasi yorishdi?
2. Bibi qishloq yigitlariga armiyaga jo‘nashlarida qanday tilak bildirar edi?

Notinch mamlakatlarda

Zahro Hasanova

Tezkor tarmoqlardan
Xorij xabarin berar,
Notinch mamlakatlardan
Noxush daraklar kelar.
Ko‘rdim vayron shaharda
Urushning oqibatin,
Boshiga o‘q yog‘ilgan
Odamlarning qismatin.
Beg‘ubor bolalarning
Ko‘zida mung, yig‘lar zor,
Begunoh odamlar zir
Yugurar chekib ozor.
Mayib-majruh kishilar
Har tomon izillashar,
Bolasin quchoqlagan
Onalar yo‘l izlashar.
Urush ochgan kaslarda
Hech bo‘lmagan adolat.
Yovuzning vatani yo‘q,
Ularda yo‘q diyonat.

http://edu.portal.uz

Yaratganga ming shukur,
Tinchlikdir shiorimiz.
Ilohim ko‘z tegmasin,
Yashnasin diyorimiz.
Yigitlari ulg‘ayib,
Mard, jasur o‘g‘lon bo‘lsin.
El-yurt ishonchin oqlab,
Vatanga posbon bo‘lsin.
Qizlari go‘zal, suluv,
Barchindek saodatli,
Zulfiyadek millatga
Qiz bo‘lsin saodatli.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. „Yovuzning vatani yo‘q“, degan fikrni qanday tushundingiz?
3. Shoirning „Tinchlikdir shiorimiz“, degan fikrini izohlang.



Vatan himoyachisi

Shukrullo Abdullayev

(Hikoya)

Maktabgacha ta’lim muassasasi bolajonlarning qiy-chuvi bilan gavjum. Tarbiyachi Donoxon opa jajjilar bilan qiziqarli bir ertakni sahnalashtirish maqsadida bolajonlarga murojaat qilmoqda:

– Bolajonlar, hozir biz bo‘ri, fil, to‘tiqush rolini o‘ynaydigan bolalar va qizlarni tanlab oldik.

http://eduportal.uz

Endi tulki roli uchun qatnashchilarni tanlasak bo‘ldi. Xo‘sh, Jasurbek, sen ham rollarni yaxshi o‘ynaysan. Kel, tulki rolini o‘ynay qol.

– Yo‘q, – deya e’tiroz bildirdi Jasurbek shu zahotiyoq.

– Nega? – ajablanib so‘radi tarbiyachi boladan.

– Chunki tulki yolg‘onchi, qo‘rqoq. Men uning rolini o‘ynamayman.

– Axir bu ertak-ku, kel, shu safar Tulki bo‘la qol, – iltimos qildi bog‘cha opasi Jasurbekdan. Bolakay esa „Yo‘q!“ – deb turib oldi.

– Unda qaysi jonzotning rolini o‘ynaysan? – qiziqishi ortib so‘radi tarbiyachi yana.

– Men, – dedi o‘rnidan turib Jasurbek o‘z ismiga xos jasurlik va qat’iyat bilan, – qo‘rqmas, dovyurak, o‘rmondagi jonzotlarni himoya qiladigan Sher bo‘laman, – dedi.

Shunday qilib, spektakl juda ham qiziqarli sahnalashtirildi. Uni tomosha qilgan ota-onalar, tarbiyachilar va mehmonlar rosa xursand bo‘lishdi.

Bundan Jasurbekning ham ko‘ngli ko‘tarildi. Chunki u sher vazifasini qoyilmaqom qilib bajardi. O‘rmonga begonalarni kiritmadi. Bo‘ri bilan olishib, uni yengdi. Barcha sherlarni birlashtirib, Fildan ham zo‘r chiqdi. Aldoqchi Tulkining gapiga ishonmadi. Yolg‘onchiligini fosh qildi.

http://edu.portal.uz

Oradan yillar o‘tdi. Jasurbek oliy harbiy bilim yurtida a’lo baholarga o‘qidi. Sport bilan muntazam shug‘ullanib, karate bo‘yicha jahon chempioni bo‘ldi. Oliy qo‘mondonlik akademiyasida ham tahsil oldi.

Hozirda Jasurbek – general. Armiyaga qo‘mondonlik qiladi. Uning rahbarligidagi minglab askar va zobitlar Vatanimiz chegaralarini qo‘riqlaydi. U o‘z yurtini sevuvchi sheryurak inson. Vatani uchun jonini berishga ham tayyor.



1. Tarbiyachi Jasurbekdan nimani so‘radi?
2. Jasurbekning javobidan nimani tushundingiz?
3. Siz katta bo‘lganingizda kim bo‘lmoqchisiz?



Bir yigit – bir elga rizq.



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Vatan himoyachisi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Bu haqda bo‘limdagi qaysi asarlarda bayon etilgan?
2. Bo‘limdagi she’riy asarlardan nimalarni o‘rgandingiz?
3. „Jonajon Vatanim“ mavzusida o‘qituvchingiz yordamida reja tuzing va bayon yozing.



http://edu.portal.uz

ULUG‘LARDAN O‘RGANMOQ – OQILLIK



„Qutadg‘u bilig“ hikmatlari

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,
Bilim, uquv bilan odamzod qutlug‘.

Har so‘zni o‘ylab ayt, boshing ketmasin,
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin.

Tiling tiysang, sog‘-u salomat boshing,
O‘ylab aytsang so‘zing, ziyoda yoshing.

Murodiga yetar bilimli kishi,
U dunyo, bu dunyo saranjom ishi.

Shoshilma hech ishda, sabr qil, sabr,
Shoshilinch ish oxir jon uchun jabr.

To‘g‘ri so‘zga omad yor-u salomat,
Yolg‘onchi boshida ming bir malomat.

http://darsliklar.uz

1. Hikmatlarni o‘qing. Siz shu hikmatlardan qaysi biriga ko‘proq amal qilasiz?
2. Hikmatlardan namunalar yodlang.

Donoga ergashgan dovondan oshar.

Jaloliddin Manguberdi

Mirkarim Osim

(Hikoya)

Chingizxon harbiy kuch bilan Urganchni bosib ololmagach, hiyla ishlatishga o‘tdi. Mo‘g‘ullar Jayxunning toshqinidan saqlab turadigan to‘g‘onni ochib yubordilar. Shaharni suv bosdi. Hamma imoratlar qulab, suv ostida qoldi. Ko‘plab aholi halok bo‘ldi.

Bu vaqtda shahzoda Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi kurashish uchun Eron va Afg‘onistonda qo‘shin to‘play boshlagan edi. U ko‘p qo‘shinni birlashtirib, Nesa[1] yonida Parvona shahri atrofida mo‘g‘ullar bilan qattiq kurashdi va dushman ustidan g‘alaba qozondi. Juda ko‘p o‘lja olindi.

Jaloliddinning lashkarboshilari o‘ljani taqsimlay boshladilar. Shu payt oralarida nizo chiqib, lashkarboshilarning ko‘pchiligi ketib qoldi. Jaloliddinning askarlari kamayib ketdi.

[1] Nesa – hozirgi Ashxabod shahri.

http://eduportal.uz

Jaloliddinning askarlari kamayib ketganini bilgan Chingizxon Hind daryosi sohilida Jaloliddinga qarshi yurish boshladi va g‘alaba qozondi.

Jaloliddin dushman qo‘liga tushmaslik uchun ishongan navkarlari bilan ot solib, daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib oldi.

Chingizxon o‘ziga musht ko‘rsatib ketayotgan Jaloliddinning jasorati, mardligiga qoyil qolib, lashkarlarini undan o‘rnak olishga chaqirdi.



1. Chingizxon qanday hiyla ishlatdi? Nima uchun?
2. Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi kurashini so‘zlab bering.
3. Qaysi voqea sizni hayajonga soldi? Nima uchun?



Buyuk bobomizning buyuk himmatlari

Xudoyberdi To‘xtaboyev

(Hikoya)

1

Amir Temur bobomiz tengi yo‘q buyuk sarkarda, buyuk adolatparvar inson bo‘lgan ekanlar. Lekin bosqinchilarga shafqat qilmagan ekanlar. Ularni yigirma yetti mamlakatdan quvib chiqarib, o‘sha mamlakatning aholisiga ozodlik imkonini bergan ekanlar. „Haqiqat yo‘lidan, haq yo‘lidan

http://equpor.ar.uz

boringlar“, degan ekanlar. Jasur askarlarining, mard lashkarboshilarining, hatto uzoq-uzoq qishloqlarda yashayotgan jasur yigitlarning ham qadriga yetib, yuksak-yuksak mukofotlar berar ekanlar.

Bir kun katta safardan katta muvaffaqiyat bilan qaytib kelgach, o‘zlari yaxshi ko‘rgan nabiralaridan birini olib, bog‘larida dam olayotgan ekanlar. Shu paytda hashamatli darvoza oldida turgan qorovullarga bir mushtipar ona kiyimlari yirtilib ketgan, boshida bir parchagina mato o‘ralgan holda kelib: „Men shohanshohning oldiga kirmoqchiman, och darvozangni“, – debdi. Qorovulda turganlardan biri: „Anchamuncha mamlakatlarning elchilari, o‘zlarining minglab qo‘shinlariga boshchilik qiladigan sarkardalari kirolmaydi-yu, senga yo‘l bo‘lsin“, – deb javob qaytaribdi.

Ona oyog‘i bilan yer tepib:

– Darvozani ochasan, men Onaman! – debdi.

Qorovul boshlig‘i:

– Tezroq ket bu yerdan! – deb o‘dag‘aylabdi.

Ayol yana yer depsinib:

– Men Onaman! – deb hayqiribdi.

– Bo‘lmasa, sen narigi darvozaga bor, ruxsatnoma o‘sha yerda beriladi, – debdi.

– Yo‘q, – debdi ayol, – men uch yildan buyon yo‘l yuraman. Cho‘llarda, sahrolarda suvsizlikdan qiynaldim, changalzorlardan o‘tganimda tikanlar badanimni qonatib behol qildi.

http://eduportal.uz

O‘rmonlarda bo‘rilarga yem bo‘lishim mumkin edi. Yo‘q, yo‘q, men Amir Temurning huzuriga kirishim kerak, – deb qat’iy turib olibdi.



1. Amir Temur qanday fazilatga ega inson bo‘lgan?
2. Ona nimani talab qildi?



2

– Xo‘sh, arzing nima o‘zi, arzingni ayt-chi, – deb so‘rabdi qorovulboshi.

– O‘g‘lim asirga tushgan, boshqa bir o‘g‘lim qal’amizni himoya qilayotganda o‘ldirilgan. Mayli, o‘lgani ketdi, yurtning himoyasi uchun ketdi, lekin bir zargar o‘g‘lim shu yerda, shuni so‘rab keldim, – deb yana yer depsinibdi ayol.

– Menga qara, sening o‘g‘ling qaysi qal’ani himoya qilayotganda halok bo‘lgan? – so‘rabdi qorovulboshi.

– Mening pahlavon o‘g‘lim Al-Ahrom qal’asini himoya qilishda o‘lgan, – deb javob beribdi ayol.

Ana shu paytda Amir Temur bobomiz o‘ynayotgan shaxmatini to‘xtatib, gapga quloq solib turgan ekanlar. Al-Ahrom qal’asi himoyasini eslabdilar. O‘sha yurtning yigitlari o‘z yurtlarini mardona himoya qilganlarini ko‘rgan, eshitgan ekanlar. Buning ustiga, „Men Onaman!“ deb yer depsinib turgani Amir Temur bobomizning ruhiga qattiq ta’sir qilibdi.

http://edu.portal.uz

„Men Onaman!“ degan so‘zlar quloqlari ostidan ketmabdi. Farmon bo‘libdi. Amir Temur yupun kiyingan onani huzurlariga keltirishlarini buyuribdilar.

– O‘g‘ling Al-Ahrom himoyasida o‘lganmi? – deb so‘rabdilar Amir Temur bobomiz. – Men jasoratli insonlarni agar u dushmanim bo‘lsa ham hurmat qilaman. Sening uch yildan buyon yo‘l bosib mana shu yerga yetib kelishing menga boshqa onalarga namuna bo‘lishga arziydigan bir holatni eslatdi. Men hamisha jasurlikni, jasoratni himoya qilganman, – debdilar. Farmon beribdilar, Al-Ahrom qal’asidan asirga kelganlarni aniqlashibdi. Ularning hammasi yer ostidagi qurol-aslaha yasaladigan joyda tutqunlikda ekan. Onaning jasorati uchun Amir Temur bobomiz qolgan o‘ttizta asirni ham ozod qilib, Amudaryodan o‘tgunlaricha ularni himoya qilib borishlarini tayinlabdilar.

1. Al-Ahrom himoyasida qanday voqea yuz bergan edi?
2. Amir Temur Onaga qanday himmat ko‘rsatdi?

Alpomishning bolaligi

(Ertak)

Qadim zamonda Qo‘ng‘irot elida Boybo‘ri va Boysari degan aka-ukalar yashashgan ekan. Boybo‘ri o‘g‘il farzand ko‘ribdi. Unga Hakimbek

http://edu.portal.uz

deb ism qo‘yishibdi. Boysari esa qiz farzand ko‘ribdi. Unga Barchinoy deb ism qo‘yishibdi. Xonadonlarda xursandchilik bo‘libdi.

Kundan kun o‘tibdi. Oydan oy o‘tibdi. Bolalarning tili chiqibdi. Hakimbek bilan Barchinoy to‘rt yoshga yetganda, madrasaga o‘qishga beribdilar. Ularning savodi chiqibdi, zukko bo‘libdilar.

Endi Boybo‘ri o‘g‘liga shohlik, sipohlik ilmini o‘rgatmoqchi bo‘libdi. Uni kamon otish, nayza sanchish, kurash tushish amallarini o‘rgatuvchi ustozlar qo‘liga topshiribdi. Hakimbek olti yoshga to‘lganida, mashhur Qosim merganga shogird tushibdi. Ustozi Hakimbekka yoy tortishni o‘rgatibdi.

Hakimbekning bobosidan qolgan o‘n to‘rt yarim botmon keladigan parli yoyi bor ekan. Uni hech kim joyidan qo‘zg‘ata olmas ekan. Bir kuni Hakimbek ana shu yoyni qo‘liga olib, o‘qini tortib turib, so‘ng qo‘yib yuboribdi. Yoyning o‘qi yashin tezligida uchib ketibdi. O‘q Asqartog‘ning baland cho‘qqisini yulib o‘tibdi.

Shundan so‘ng Hakimbekning yoyni ko‘targani haqidagi ovoza olamga yoyilibdi.

Xalq yig‘ilibdi. Ular orasidan bir donishmand chiqib:

– Dunyoda bir kam to‘qson alp o‘tgan edi. Shu alplarning boshlig‘i Rustami doston edi. Oxiri Alpomish alp bo‘lsin. Shunda u bir kam to‘qson alpning qatoridan joy oladi, – debdi.

Shunday qilib Hakimbek alplarning biri

http://ziyouz.com/portal.uz

bo‘lib, qatorga qo‘shilibdi va ular to‘qson alp deb atalib, tarixda qolibdilar.



1. Boybo‘ri nima maqsadda Hakimbekni ustozlar qo‘liga topshirdi?
2. Hakimbek qanday qilib alp nomini oldi? Matn mazmuniga mos maqol toping.

So‘nggi damgacha



Abdusodiq Irisov

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy yoshligidanoq ko‘p narsalarni bilishga, ularni kuzatishga qiziqar ekan.

Beruniy tog‘ jinslarini o‘rganishni, kuzatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yibdi. U maqsadini amalga oshirish uchun shogirdlari bilan tog‘ga boribdi va kuzatish ishlarini boshlabdi. Biroq tobi qochib, tog‘ jinslarini o‘rganayotgan joyda shogirdlariga topshirib, uyiga qaytibdi. Shogirdlar ishni davom ettiribdilar.

Tabiblar Beruniyni davolash uchun ko‘p harakat qilishibdi, ammo foydasi bo‘lmabdi. Kundan kunga dardi og‘irlasha boribdi. Shu ahvolda ham tajriba boshlagan shogirdlarini chaqirtirib, ulardan kuzatuv ishlarini surishtirar ekan.

Tajriba yaxshi borayotganini eshitib, yengil tortar ekan. Natija yomon chiqayotganini eshitsa, o‘zini yomon his qilar ekan. Tabiblar Beruniyga tashvishlanish, hayajonlanish mumkin

http://dtportal.uz

emasligini, hatto yomon oqibatlarga olib borishini aytishibdi. Osoyishta bo‘lib, tinchlanishni uqtirishibdi. Baribir u tinib-tinchimabdi.

Beruniyning dardi kundan kunga zo‘rayib, ahvoli og‘irlashibdi. U: „Shogirdlarimni chaqirtiringlar“, – debdi. Shogirdlarini tez keltiribdilar.

– Xushxabar bormi? – deb so‘rabdi shogirdlaridan Beruniy.

– Ustoz, xotirjam bo‘ling. Natija juda yaxshi chiqdi. Siz bilib aytgan ekansiz, tog‘da qimmatbaho toshlar bor ekan! – deb javob berishibdi shogirdlari.

Beruniy ko‘zlariga sevinch yoshini olib:

– Endi osoyishta ketsam bo‘ladi. Boshlagan ishimning natijasini kutayotgan edim. O‘sha qimmatli toshlarni xalq mulkiga aylantiringlar, – deb shogirdlariga tayinlabdi.

1. Beruniy o‘z oldiga nima maqsad qo‘ygan edi?
2. Beruniyning kuzatish ishlarini shogirdlarining davom ettirishiga sabab nima? Izohlang.
3. Ustoz va shogirdlari suhbatini so‘zlang.
4. Beruniyning qimmatli toshlar haqida fikrini matndan o‘qib bering va eslab qoling.

Ibn Sinoning shogirdlari

(Rivoyat)

Tabiblarning tabibi Ibn Sino kunlardan bir kun qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib qolibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin

http://edu.ziyonet.uz

do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Ular yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qilishibdi. Shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa bunday debdi:

– Shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadir. Shu boisdan meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i qilib o‘tirmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatiga har doim amal qilinglar. Boshqalarni ham ularga da’vat etinglar, – debdi.

Shunda Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

– Ustoz, siz qoldirib ketayotgan tabiblar kimlar? – deb so‘rabdi.

Ibn Sino:

– Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarning biri – tozalik. Ikkinchisi – parhez. Uchinchisi – badantarbiya. Qolgan ikkisi mizoj kayfiyatidir. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishni unutmang. Ko‘-ringan ovqatni yemaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez me’yorini bilish lozim. Tana a’zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mizojni unutmaslik, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish kerak. Mana shu aytganlarimga amal

http://edu.portal.uz

qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi.



1. Ibn Sino shogirdlariga nimalarni so‘zladi?
2. Ibn Sino qoldirgan tabiblarni matndan topib o‘qib bering.
3. Rivoyat sizda qanday taassurot qoldirdi?

Bolari bilan Pashsha



Abdulla Avloniy

(Masal)

Bir Pashsha qir tarafdan uchib kelayotgan Arini ko‘rib:

– Do‘stim, qayerdan kelyapsan? – dedi. Ari:

– Qirdan kelyapman. Biroz bol yig‘dim. Uy yasash uchun mum ham hozirlab keldim, – dedi. Pashsha:

– Oh, birodar! Bir boshing uchun buncha harakat qilasan! Sen ham men kabi yashasang nima bo‘ladi? Mening yashashimda hech bir mashaqqat yo‘q. Insonlar hozirlagan dastur-xonlardan har xil taomlarni yeb-ichib umr o‘t-kazaman. Ba’zi vaqtlarda sen tayyorlagan bol-dan ham to‘ygunimcha yeyman. Mana! Ya-shamoq mana! Umr kechirish uchun olamda bundan ham yaxshi turmush bo‘ladimi? Menda bol tayyorlash mashaqqati ham yo‘q, uya solish kulfati ham yo‘q, – dedi.

Ari bu so‘zlarga javoban shunday dedi:

http://edu portal.uz

– Oh, do‘stim! Sening bunday turmushing o‘z boshingdan beri kelmasin. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo‘ladimi? Insonlar seni dasturxondan quvib haydaydi. Oxiri bir o‘rgimchak luqmasi bo‘lishdan boshqa narsaga yaramaysan. Ammo men tayyorlagan mum hamma yerni yoritadi. Bolim dunyoning hamma yerida maqbuldir. Shu sababli insonlar meni o‘zlari tarbiya qiladilar. Har yerda meni maqtaydilar. Qo‘y, birodar, mening ishim ko‘p. Sen bilan behuda so‘zlashib turishga vaqtim yo‘q. – Ari shunday deb uchib ketdi.

Xulosa shuki, mehnatning oxiri rohat, yalqovlikning oxiri xorlikdir.

1. Masalni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Masaldan qanday xulosaga keldingiz? Matnga mos maqol toping.

Donolarning donosi

Abduqodir Hayitmetov

1

Bobomiz Alisher Navoiy bolalik chog‘laridayoq hammaning e’tiboriga tushganlar. Eng avvalo, odobli bo‘lganlar. Ko‘p kitob o‘qiganlar. Zehnlari o‘tkirligidan minglab misra g‘azallarni yod bilganlar. Kichiklikda yozgan she’rlariga ustozlari ham qoyil qolishgan. Ona tilini yaxshi bilganlar. Fors va arab tillarini puxta o‘rganganlar.

http://edupoint.uz

Alisher Navoiy birinchilardan bo‘lib ona tilida „Xamsa“ (besh doston) yozdilar. Navoiyning ko‘pgina g‘azallari hamon qo‘shiq bo‘lib yangramoqda.

Navoiy bobomizning talay misralari xalq maqollari, hikmatli so‘zlarga aylanib ketgan. Jumladan:

Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.

Bu hikmatga, eng avvalo, o‘zlari amal qilganlar. Barcha asarlarida halollikka, mardlikka, yaxshilikka chaqirganlar. Hatto shohning vaziri bo‘lganlarida ham xalq uchun ko‘p yaxshi ishlar qilib, el mehrini qozonganlar.

2

Shoir bobomiz, ayniqsa, ustozlarni ulug‘laganlar:

„Harf o‘rgatgan o‘qituvchingni hurmat qilib, haqini uzmoqchi bo‘lsang, xazinalardagi barcha oltinlar bilan ham uzolmaysan“, – deganlar.

Navoiy bobomiz asarlarini o‘qigan sari chuqur tushuna boramiz. Ba’zida esa o‘qib, uqishga qiynalamiz. Axir yozilganiga besh asrdan oshdi-da! Shuning uchun ustozning „Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim ...“ degan nasihatlariga amal qilib, so‘rab-so‘rab o‘rganaveramiz.

Xullas, ul zotning ijodini daryoga o‘xshatamiz.

http://eduportal.uz

Bu daryodan dunyo xalqlari bahramand bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Navoiy bobomizning nomlari butun dunyoga mashhur.

1. Matndan Navoiyning til haqidagi hikmatini topib o‘qing. Ma’nosini tushuntiring.
2. Nima uchun xalqimiz Alisher Navoiy nomini mehr bilan tilga oladi?
3. Alisher Navoiy ustozlar haqida nima deganlar?

Bolam

Berdaq

Taltaymagin erka bo‘lib,
Yig‘lamagin to‘lib-toshib,
Qolmagin och, ranging so‘lib,
Mard bo‘l yoshlikdan, ey bolam!

Yomon bo‘lib tushma ko‘zga,
Dog‘ qo‘ndirma oppoq yuzga.
Uchma aslo yolg‘on so‘zga,
Yomondan qoch, yoshsan, bolam.

Elni qoshingdan qochirma,
Yo‘q deb, boringni yashirma,
Quvlik, shumlik yo‘liga kirma,
Oq ko‘ngil bo‘l doim, bolam.

Otangdan pand-u nasihat:
Qo‘ldan kelsa, bo‘l bohimmat.
Birovlar qilmasin uyat,
Ertangni ko‘p o‘yla, bolam!

http://eduportal.uz

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Berilgan nasihatlarga amal qiling.
3. „Bohimmat“ so‘zining ma’nosini izohlang.

Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.

Baxilning yomonligi

(Rivoyat)

Bir mahallada saxiy va badavlat odam yashar ekan. U doim odamlarga yaxshilik qilar va ularni tez-tez uyiga mehmonga chaqirib turar ekan. Mahalla ahli uning hurmatini joyiga qo‘yar ekan. Lekin shu mahallada bir baxil kishi o‘sha odamni yomon ko‘rar ekan. Orqasidan ig‘vo qilib, paytini topsa, unga ziyon yetkazar ekan. Haligi saxiy odam qachon ziyofat bersa, o‘sha baxilni ham chaqirar va izzat-ikrom qilar ekan. Haligi odam ziyofatga kelib, saxiyning osh-nonini yeb, tashqariga chiqib, yana uni yomonlar ekan. Mahalla ahli uning bu ishidan hayron bo‘lar ekan.

Bir kuni shu mahalladagi odam saxiydan so‘rabdi:

– Siz falonchining sizga dushman ekanligini bilmaysizmi? Nega uni uyingizga chaqirib mehmon qilasiz?

– Bilaman, lekin qo‘shnichilik hurmatidan chaqiraman. Bir kun insofga kelib qolar deb umid

http://eduportal.uz

qilaman. Qolaversa, uning gaplarini eshitib, yana nimani rejalashtirayotganini bilib olaman, – debdi.

Ey farzand, dushman kichkina, qo‘lidan nima ham keladi, deb g‘aflatda qolma. Uning niyatidan doim xabardor bo‘lib tur.



1. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Saxiy va baxil odamga munosabat bildiring.



Baxil, bo‘lmaydi ahil.



Lol bo‘lgan tulki

Yamin Qurbon

(Masal)

Zog‘cha yerdi daraxtda pishloq,
Tulki kelib gap qotdi shu choq:
„O, azizim, mehribon Zog‘cha,
Ovozingga qoyildir barcha.
Dovrug‘ingni eshitib birdan,
Sevindim chindan!
Shundan beri men senga mushtoq,
Sayrab bergin, yo‘q dema, o‘rtoq!“
Pishlog‘ini xuddi shu lahza
Qanotiga qisdi-da Zog‘cha,
Qah-qah urib qaytardi javob:
„Seni sira ko‘rmakka yo‘q tob.
Likillatmay menga dumingni,
Borib, alda katta buvingni!

http://eduportal.uz

Ko‘r hassasin yo‘qotar bir gal,
O‘tib ketdi endi u mahal!“
So‘ng pishloqni cho‘qidi asta.
Tulki nochor mo‘ltirab pastda
Xo‘rsindi-yu kuldi zo‘raki,
Lunjlaridan oqdi so‘lagi.

1. Masalni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Zog‘cha va Tulkiga munosabat bildiring.
3. Masaldan qanday xulosa chiqardingiz?

Sayilda

Mirzo Karim

1

Jarchi viloyat ahlini Xokan adirlariga chorlaydi.

Zahiriddin Muhammad erta tongdanoq bugungi sayilga tayyorgarlik ko‘rar, otalig‘i Shayx Maziddindan o‘rgangan hunarlari: ot choptirish, qilich urishtirish va zarb berish bo‘yicha musoba-qalashishga shoshilardi. U to‘riq otga minib, otasiga o‘zining qudratini, ot choptirish mahoratini, yoshiga mos qilib yasalgan qilichini urishtirish va zarb berish tayyorgarligini ko‘rsatishga oshiqardi.

Umarshayx Mirzo kaftlarini bir-biriga qattiq urdi. Karnay, surnay, nog‘ora tovushlari shu zahoti tindi.

Zahiriddin Muhammad qilich yalang‘ochlab, navkar bilan olisha ketdi. Ularning shiddatli

http://eduportal.uz

olishuvlari qalqonni jaranglatar, har ikkisi epchillik bilan chap berishardi.

Zahiriddin qilichni zarb bilan urdi. Bu safar navkar Zahiriddin Muhammad zarbiga bardosh berolmadi. U otdan qulab tushdi. Tomoshabinlar Zahiriddinni olqishlashdi.

Zahiriddin Muhammad qiblagohi qarshisiga kelib, tiz cho‘kdi. Umarshayx Mirzo farzandining peshanasidan o‘pib, shunday dedi:

– Ota zarbini olibsan, balli, o‘g‘lim! Bobursan, Bobur...



1. Zahiriddin Muhammadning navkar bilan olishuvi haqida so‘zlang.
2. Har bir qismga sarlavha qo‘ying. Sarlavhaga mos reja tuzing.



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. „Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik“ bo‘limida sizga qaysi asar ko‘proq yoqdi?
2. Bo‘limda qaysi ajdodlarimiz haqida ma’lumot oldingiz?
3. „Shoshilma, har ishda sabr qil, sabr“, degan hikmatni qanday tushunasiz?
4. Bo‘limda qaysi buyuk insonning Ona bilan suhbati berilgan?
5. „Ulug‘ bobolarimiz hayoti bizlar uchun o‘rnak“ mavzusida bahs uyushtiring.



http://eduportal.uz

XALQ OG‘ZAKI IJODI

O‘yin qo‘shiqlari

Sanama

Bir, ikki... o‘n... o‘n ikki,
O‘n ikki deb kim aytdi?
O‘n ikki deb men aytdim,
Ishonmasang, sanab boq:
Birim – bilak,
Ikkim – elak.
Uchim – ichak,
To‘rtim – terak.
Beshim – beshik,
Oltim – olganim,
Yettim – yetganim,
Sakkizim – jonon qizim,
To‘qqizim – qizil yuzim,
O‘nim – ishimdagi unum.
O‘n birim – aytilmagan sirim.
O‘n ikkim – chiqa tur san, ukkim.

Chillak

Qo‘llarida qizil gul
Yashnab keladi.
Taglarida duldul ot
Kishnab keladi.
Qo‘llarida ketmoni
Chopib keladi.

http://edu portal.uz

Moshiniga oq shoyi
Yopib keladi.
Qo‘ltig‘ida kitobi
O‘qib keladi.
Qo‘lda qalam, qo‘shiqlar
To‘qib keladi.
Zum...m, zum...m...
Havoda chaqmoq!
Kim kech qolsa,
O‘shadir ahmoq...
Zum...m, zum...m...

1. She’rlarni ifodali o‘qing.
2. Siz qanday o‘yin qo‘shiqlarini bilasiz?

Chittigul



Chittigul-e, chittigul,
Etagingga gul bosay,
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin,
Beling belbog‘da bo‘lsin.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Tapir-tupur ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Arobada un keldi,

http://eduportal.uz

Childirmada gul keldi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Gul yaxshi-yu, gul yaxshi,
Gulning popugi yaxshi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
O‘rtada o‘ynagan qizning
Haydar kokili yaxshi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.

Arra-marra

Tilla sandiq ochildi,
Tagiga bodom sochildi.

Ul bodomni terolmay,
Qanotlarim qayrildi.

Qanot bering, uchaylik
Oqsaroyga tushaylik.

Oqsaroyning oq toshi,
Oqsoqol buvam qoshi,
Chakalakzorning boshi,
Arra-marra,
Bo‘yningizga bir marra.

1. O‘yin qo‘shiqlarini ifodali o‘qing.
2. Qo‘shiqlarni yod oling.

http://edu.portal.uz

Vatan haqida

Vatanni sotgan er bo‘lmas.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning taxti bor.

Ona yurting – oltin beshiging.

Do‘stlik haqida

Baliq suvsiz yashamas,
Inson do‘stsiz.

Daraxtni tomiri,
Odamni do‘sti saqlar.

Kitob haqida

Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q.

Kitob – bilim manbai.

Ilm-fan haqida

Bilagi zo‘r birni yiqar,
Bilimi zo‘r mingni.

Ko‘p o‘qigan – ko‘p bilar.

Odob-axloq haqida

Bola aziz, odobi undan aziz.

Yomondan qoch, yaxshiga yondash.

http://eduportal.uz

Ota-ona va farzand haqida

Ota-onang – davlating.

Ota-bola – bir bog‘,
Biri – gul, biri – bog‘bon.

1. Siz yana qanday maqollarni bilasiz?
2. O‘qituvchingiz yordamida maqollar muso-baqasini uyushtiring.

Maqollar mazmuniga mos matn tuzing.

Topishmoqlar



Boshi bor-u sochi yo‘q,
Ko‘zi bor-u qoshi yo‘q.
Tangasi bor, puli yo‘q,
Qanoti bor, uchuvi yo‘q.



Zuv-zuv barag‘ay,
Tomdan qarag‘ay.
Cho‘p, loy cho‘qig‘ay,
Savat to‘qig‘ay.



U yoqqa o‘tdim, bildingmi,
Bu yoqqa o‘tdim, bildingmi.
Oq quvrayning boshini
Chertib o‘tdim, bildingmi.

http://eduportal.uz

Yashil po‘sti bor,
Qizil go‘shti bor.
Uyda, bozorda
Yaqin do‘sti bor.



1. Topishmoqlarni yod oling.
2. Siz qanday topishmoqlarni bilasiz?
3. Topishmoq aytish musobaqasini uyushtiring.

O‘zingiz bilgan topishmoqlar javobiga mos rasmlar chizing.




Qush ini

(Rivoyat)

Bir kuni ertalab qarib qolgan ikki qush inlaridan uchib chiqa olmasliklariga ko‘zlari yetibdi. Yemish topa olmay, tezda kunlari bitishini bilib, inni tark etmay, birgalikda hayotdan ko‘z yumishga qaror qilishibdi. Lekin shu yerdan uchib o‘tib ketayotgan ularning bir bolasi ota-onasini ko‘rib, yonlariga kelibdi. Bu holni ko‘rib, boshqa aka-singillariga xabar berish uchun uchib ketibdi. Tez orada ikki qushning hamma bolalari birin-ketin uchib kela boshlashibdi. Ularning har biri tumshug‘ida ota-onasi uchun yegulik olib kelibdi. Bolalari olib kelgan ovqatlarni yeb, ikki qush ancha quvvatga kiribdi, lekin baribir ucha olishmabdi. Shunday qilib,

http://eduportal.uz



ikki qushning bolalari endi palaponlari qatorida ota-onalarini ham boqa boshlashibdi. Buning uchun ular endi ko‘proq uchishlari va ko‘proq yegulik topishga harakat qilishlari kerak edi. Ular tongdan to shomgacha tinishmas va qattiq charchashar, lekin ota-onasini tashlab qo‘yishga ko‘zlari qiymas edi.

Bir kuni qushlardan birining palaponlari uchirma bo‘libdi va otasiga ergashib qari qushlarning uyasiga uchib kelibdi. Otasining ularga ovqat berayotganini ko‘rib:

– Bular kimlar? Nega ularga ovqat beryapsiz? – deb so‘rabdi. Dadasi:

http://edu.uz

– Bular mening otam va onam. Kichikligimda ular meni ham xuddi shunday boqishgan, – debdi.

„Tarbiya kitobi“dan



1. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Qushlarning tutgan ishlariga baho bering.

Halollik

(O‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. Uning kambag‘al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kun u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasini kambag‘al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odam bir qalin og‘aynisidan qo‘sh ho‘kiz olib kelib, yer haydayotganida, omochning tishi qattiq narsaga tegibdi. Dehqon parvo qilmay, ishida davom etibdi. Qaytib o‘sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag‘al dehqon: „Ilgari bu yerda daraxt bo‘lgan, uning to‘nkasi qolib ketgan, shekilli“, deb o‘ylabdi.

U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kovlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to‘la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug‘ sepibdi. So‘ng ho‘kizlarni egasiga topshiribdi. Xumchadagi til-

http://edu portal.uz

lani ko‘tarib, to‘g‘ri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

– Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim, ichidan tilla chiqdi. Uni o‘zingizga olib keldim, – debdi.

Dehqon kambag‘alga:

– Men sizga yerni sotganman. Demak, u yerda nimaiki bo‘lsa, sizniki bo‘ladi. Men yer tagida nima borligini bilmaganman. Sizga Xudo beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yashang, – deb xumchani olmabdi.

Kambag‘al dehqon esa: „Bu boshqa kishining noni. Uni olsam, o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lib qolaman“, deb o‘ylab, xumchani yana boy dehqonga uzatibdi. Ikkalasi hech kelisha olishmabdi.

Nihoyat, bir donishmandning oldiga boradigan, undan so‘rab, bu ishni hal qiladigan bo‘lishibdi.

Donishmand: „Qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo‘lib beringlar“, – deb maslahat beribdi. Bunga dehqon ham, kambag‘al ham rozi bo‘libdi.

Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag‘al, yetim-yesirlarga tarqatishibdi. Kambag‘al dehqon esa o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

http://edu.portal.uz

1. Boy dehqon nima uchun o‘z yerini sotibdi?
2. Kambag‘al dehqon va uning oshnasi nima uchun donishmand huzuriga borishibdi?
3. Kambag‘al dehqon to‘g‘ri ish qildimi?

Halol mehnat yerda qolmas.

Donishmand yigit

(O‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir donishmand chol yashagan ekan. Uning uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. O‘g‘illari voyaga yetgach, chol ularga shunday debdi:

– Bolalarim, men sizlarni hech narsadan kam qilmay o‘stirdim. Endi otlaninglar, turli shaharlarga borib, qo‘rg‘on solib kelinglar!

To‘ng‘ich o‘g‘il otasi topgan oltin-kumushlardan olibdi. Farg‘ona vodiysining hamma shaharlariga boribdi. U yerlarga bittadan kattakon uy solibdi.

O‘rtancha o‘g‘il bo‘lsa, Buxoro, Samarqand tomonlarga borib, qo‘rg‘onlar qurdiribdi.

Kenja o‘g‘il oqil, dono ekan. U o‘ziga o‘zi: „Dadam turli shaharlarda qo‘rg‘on solinglar, deyish bilan har bir shahardan do‘st, yor-birodar orttiringlar, demoqchi. Men boshqa shaharlarga borib, uy solib yurmayman!“ – debdi-da, safarga chiqib ketibdi.

http://edu.portal.uz

U qayerga borsa, o‘sha yerda eng yaxshi, vafodor kishilar bilan do‘stlashibdi. U o‘z safari davomida o‘rtoqlari orasida mashhur bo‘lib ketibdi. U akalaridan avval uyiga qaytibdi.

Chol bir kuni:

– Qani, kim qaysi shaharga qanday qo‘rg‘on qurdi? Yuringlar, bir aylanib ko‘rib kelamiz, – debdi.

U o‘g‘illari bilan birga katta o‘g‘li qurgan qo‘rg‘onga boribdi. Qarasa, uy-joyning o‘zi so‘ppayib, odamsiz turgan emish.

Chol indamabdi. So‘ngra o‘rtancha o‘g‘lining qilgan ishini ko‘zdan kechiribdi. Uniki ham xuddi akasinikiga o‘xshar ekan.

– Bu qo‘rg‘onlarning odamlari qani? – deb so‘rabdi chol. To‘ng‘ich va o‘rtancha o‘g‘il unga javob bera olmabdi. Hammalari kenja o‘g‘ilning yor-birodarlari yashaydigan joylarga borishibdi. Ularni kenja o‘g‘ilning yor-u do‘stlari izzat-hurmat bilan kutib olibdilar, ketma-ket ziyofatdan bo‘shamay qolibdilar, shunda chol o‘g‘illariga qarab bunday debdi:

– Har bir shahardan orttirilgan do‘st u yerga bir qo‘rg‘on qurish bilan teng. Mening maqsadimni faqat kenja o‘g‘lim tushunibdi. Mening ismim, bilim-tajribam unga meros bo‘lib qolsin.

http://e-adabiyot.uz

1. Ota o‘g‘illariga bergan topshiriqni ayting.
2. Otaning maqsadini qaysi o‘g‘il to‘g‘ri tushunibdi?
3. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Ahillik – ulug‘ baxt

(Qirg‘iz xalq ertagi)

Qadimda donishmand bir chol o‘tgan ekan. Uning yetti o‘g‘li bor ekan. Lekin ular otalarining so‘ziga kirmas, har qaysisi o‘zicha ish tutar ekan. Kattalari kichiklarini do‘pposlab, kichiklari kattalariga qarshi bo‘lib yurar ekan. Odamlar:

– Aqlli cholning o‘g‘illari xo‘b ahmoq bo‘lib o‘syapti-da, – deyisharkan. O‘g‘illarni yolg‘iz uchratganda, ularga tanbeh berisharkan.



http://edu.portal.uz

Kunlardan bir kun chol o‘rmonga boribdi-da, yo‘g‘onligi bosh barmoqday keladigan novdalardan yettitasini qirqib kelibdi. So‘ng o‘g‘illarini chaqirib:

– Bolajonlarim, sizlarning kuchingizni sinab ko‘rmoqchiman. Mana shu yettita novdani bir dasta qilib sindiringlar-chi, – debdi.

O‘g‘illari navbat bilan urinib ko‘rishibdi, lekin uddasidan chiqa olishmabdi. So‘ngra otasi o‘g‘illariga bittadan novda beribdi, o‘g‘illar ularni bir zumda sindirishibdi. Shundan keyin ota o‘g‘illariga:

– Mana, ko‘rdingizmi, bitta novdani tez sindirdingiz, dastalanganiga esa kuchingiz yetmadi. Agar birlashib, ahil yashasangiz, hech qanday dushman sizlarni yenga olmaydi, – debdi.

Chol oradan sal o‘tmay olamdan o‘tibdi. O‘g‘illari esa inoq yashay boshlashibdi. Kichiklari kattalarining so‘ziga quloq soladigan, hammalari ishlab, bir-birlariga ko‘maklashadigan bo‘lishibdi.

Shundan keyin xalq „Ahillik – ulug‘ baxt“ degan naqlni tez-tez takrorlaydigan bo‘libdi.

1. Chol novdalarni o‘g‘illariga nima uchun dastalab beribdi?
2. Ertakdan qanday xulosaga keldingiz?

Mavzuga mos maqol toping.

Kuch – birlikda.

http://edu.ziyonet.uz

ZUMRAD BAHOR NAFOSATI



Siz bunga qodirsiz

Yusuf Fayzullo

Aziz bolajonlar! Yurtimizda erta bahorda boshlangan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari hamon keng miqyosda davom etayotganidan xabaringiz bormi?

Ha, xabarim bor, ko‘p qavatli uylar, mahallalardagi xonadonlar atrofi tozalanib, daraxtlar oqlanyapti, deysizmi?

Barakalla, ziyrak ekansiz. Ayting-chi, bu xayrli ishda o‘zingiz ham ishtirok etyapsizmi? Hozircha yo‘q, deysizmi? Unda menga quloq soling. Sizga bir odam haqida gapirib beraman. Xulosa chiqarish sizdan.

http://edu.gl.uz

Biz ko‘p qavatli uyda yashaymiz. Saida xola yon qo‘shnimiz. U kishi anchadan buyon nafaqadalar. Har kuni ertalab turib, to‘qqizinchi qavatdan birinchi qavatgacha zinalarni supurib, suv sepib chiqadilar. Keyin esa yo‘lak ro‘parasidagi bolalar maydonchasida o‘zlari bunyod etgan gulzorni begona o‘tlardan tozalab, sug‘oradilar. Maydoncha atrofidagi mevali daraxtlarni alohida mehr bilan parvarishlaydilar. Saida xola tufayli ko‘p qavatli uyimiz har doim maqtovga sazovor bo‘ladi.

Hozirgi kunda Saida xolaning yordamchilari ancha ko‘payib qolgan. U kishining dugonalari, nabiralari xolaning eng yaqin ko‘makchilariga aylangan. Bolajonlarning yerga ishqi tushgani bois, gulzorimiz yanada kengayib bormoqda.

Siz ham uyingiz atrofi, mahallangiz obodligi uchun biror ish qilyapsizmi? Yo‘q bo‘lsa, shoshiling. Hech bo‘lmasa, darvozangiz oldidagi daraxtlarni oqlab qo‘ying, ariq bo‘yidagi begona o‘tlarni yulib tashlang. Agar o‘rtoqlaringizni ham jalb qila olsangiz, yana ham yaxshi. Mahallangiz gulzorga aylanadi. Bu ishlar qo‘lingizdan kelishiga ishonamiz.

1. Saida xola qanday ishlarni amalga oshirdi?
2. Siz qanday xayrli ishlarni qilmoqchisiz?

http://eduportal.uz

Bahor yaqin

Zafar Diyor

O‘tib ketdi qishning sovuq,
Ham bo‘ronli kunlari.
Ortda qoldi oy, yulduzsiz,
Tim qorong‘i tunlari.

Endi quyosh ko‘proq boqar,
Dalalarga, bog‘larga.
Quchoq-quchoq yog‘du sochar,
Adirlarga, tog‘larga.

Bezanishar dala-qirlar,
Chechak taqar o‘tloqlar.
Bahor yaqin, bahor yaqin,
Bahor yaqin, o‘rtoqlar.

Ko‘nglim yana tog‘day o‘sar,
Ko‘rkam bahor kelganda.
Quvongayman dasta-dasta
Gul-chechaklar terganda...



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Bahor yaqinlashib kelayotganda tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
3. Siz bahorni sevasizmi? Nima uchun?



She’rni yod oling.



http://eduportal.uz

Oyijonlar, onalar

Kavsar Turdiyeva

Ayting, qachon nurga to‘lar
Xonadon-u, xonalar?
Ostonadan qadam qo‘ysa,
Unga aziz onalar!
Safargami, shahargami,
Olislasak bir qadam,
Bizni darrov eslagan kim,
Izlagan qaysi odam?

Naqarot:
Bu ayadir, bu oyidir, bu buvidir, onadir,
Bolasi deb, lolasi deb onajonlar yonadir.

Bolajonlar istaganda,
Kim quyoshga aylanar?
Yuragida ko‘rinmas ip
Bolasiga boylanar,
Bolasi deb, lolasi deb,
Kim dunyoni kezadi?
Qoqilganin, yiqilganin
Ko‘rmasa ham sezadi.

Naqarot:
Bu ayadir, bu oyidir, bu buvidir, onadir,
Bolasi deb, lolasi deb onajonlar yonadir.

Qani, ayting, kim bizlarga,
Suyuklardan suyukdir?

http://eduportal.uz

Xonlardan ham, beklardan ham,
Shohlardan ham buyukdir.
Ulug‘vordir, beg‘ubordir,
U erishgan martaba.
Takrorlaylik, takrorlaylik
Nomin ko‘plab martaba.

Naqarot:
Bu ayadir, bu oyidir, bu buvidir, onadir,
Bolasi deb, lolasi deb onajonlar yonadir.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. „Mening onam“ mavzusida hikoya tuzing.

Tabiat bilan suhbat

(*Rivoyat*)

Bo‘ron dedi:

– Kuchda menga teng keladigani yo‘q. Men qudratliman. Istasam, dov-daraxtni ildiz-pildizi bilan sug‘urib tashlayman. Xohlasam, tog‘ni tolqon qilaman. Istasam, bog‘larni soyga uloqtiraman. Istasam, quyosh yuzini to‘sib, daryolar o‘zanini o‘zgartira olaman. Ha, men ana shunday dahshatliman.

Jala dedi:

– Ey Bo‘ron, sen menchalik emassan. Mana, meni zo‘r desa bo‘ladi. Jahlim chiqib, qahrim qo‘zib, bir quysam bormi, seni tin-

http://eduportal.uz

chitaman, yer yuzini suvga bostiraman. Hech kim, hatto sen ham qochishga joy topolmay qolasan.

Daryo dedi:

– E, namuncha maqtanasanlar. Ming maqtansanglar-da, bu dunyoda eng zo‘ri menman. Sen, Bo‘ronvoy, menga yo‘liqqaningda o‘z-o‘zingdan tinchiysan. Jalavoy, shuni unutmaginki, sen menga qo‘shilganingdagina kuchlisan. Aks holda, seni zamin yutib yuboradi.

Quyosh dedi:

– Nima deb vaqillayapsanlar o‘zi? Mening haroratimga bardosh berolmay to‘rt tomonga qochib ketasanlar-ku.

Daryo dedi:

– Bekorga tortishmaylik. Kelinglar, yaxshisi kim kuchliligini Odamdan so‘rab qo‘ya qolaylik.

Bo‘ron Odamga dedi:

– Dunyoda eng zo‘ri kim? Menmi, Jalami, yoki Daryo?

Odam dedi:

– Yo‘q. Dunyoda shunday bir kuch borki, u seni ham, Jalani va Daryoni ham jilovlab oladi va istagan ko‘yiga soladi. Ey Quyosh, qudratlisan, lekin ko‘p katta ketma. Seni ham izmiga sola oladigan qudratli kuch bor.

– Xo‘sh, nima o‘zi o‘sha qudratli kuch? –

http://eduportal.uz

deb baravariga so‘rashdi jahldan darg‘azab bo‘lgan Bo‘ron, Jala, Daryo va Quyosh.

Odam dedi:

– Bu qudratli kuch – Do‘stlik! Do‘stlik bor joyda esa g‘alaba muqarrar.


„Hadis ilmi saboqlari“ kitobidan

1. Matnni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Matndan qanday xulosa chiqardingiz?

Bahor keldi

Quddus Muhammadiy

Qo‘llarida soz bilan,
Gulg‘uncha parvoz bilan,
Silkinib parvoz bilan,
Uchib turna, g‘oz bilan,
Qadrdon bahor keldi.
Bahorni kuting bog‘da,
Bog‘ emas, dala, tog‘da.
Maysa yashnagan chog‘da,
Qushlar sayrar butog‘da,
Sevikli bahor keldi.
Har narsada o‘zgarish,
Erib, oqib jo‘nar qish.
Har yoqda yashnar turmush,
O‘rik gulladi kumush,
Mehnat bahori keldi.
Bezanar maktab bog‘i,



http://eduportal.uz

Gulga to‘lib quchog‘i.
Toshar hayot irmog‘i,
Maktab dam olar chog‘i,
O‘quvchi, bahor keldi.
O‘tmasin go‘zal fursat,
Qani g‘ayrating ko‘rsat.
Imtihon, sinovga vaqt
Hozirmi, darslaring taxt,
Hushyor bo‘l, bahor keldi.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. „O‘tmasin go‘zal fursat, Qani g‘ayrating ko‘rsat“ misralarini tushuntiring va izohlab bering.
3. Shoir bahor kelishini qanday tasvirlagan?



She’rni yod oling.



Varrak

Yo‘ldosh Shamsharov

(Hikoya)

Bahor. Adirlarda g‘ir-g‘ir shabada esadi. Adirlar bolalar bilan gavjum bo‘lib ketadi. Osmonda varraklar shox tashlab uchadi.

Rashid goh u bolaga, goh bu bolaga:

– Ipidan birpas ushlab turay, – deb yalinadi.

– Nari qoch! Oyoq ostida o‘ralashaverma. Uyingga jo‘na!

Daroz laqabli bola esa:

– Puling bormi? Bor, pul olib chiq oyingdan, – deb Rashidga tirjaydi.

http://eduportal.uz

– Uyalmaysanmi, kichkina bolani aldagani? – dedi Sobir.

– Pul olib chiqsa, varrak uniki bo‘ladi. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Oyisi tikuvchi, puli ko‘p.

– Odam emassan-da, – Sobir shunday deb teskari o‘girilib ketdi.

Rashidning xo‘rligi keldi. Yig‘lamsirab uyga qaytdi. Oyisi uyda ish tikardi, bezovta qilgisi kelmadi. Arz-dodini akasiga aytdi:

– Menga ham varrak yasab bering. Anavi Darozning varragidan chiroyli bo‘lsin.

Akasi uydagi savacho‘plardan olib, o‘tkir pichog‘i bilan o‘rtasidan yordi, silliq qilib yo‘ndi. Dokani yerga yoyib, savacho‘plarni sirachlab yopishtirdi. Oyisi qiyqimlarning har xilini ulab, dum qilib berdi. Boshining ikki yog‘ida shoxchaga o‘xshab chiqib turgan savacho‘plarga qizil shoyidan quloq yopishtirishdi.



http://edu.ziyonet.uz

– Oyi, mashina ipingizni berasizmi? – so‘radi Rashid.

Oyisi bosh chayqab jilmaydi-da:

– Burgutday qanotini kerib turishini qarang-lar. Mana buni varrak desa bo‘ladi! – deb yubordi.

Rashidning „burgut“i balandlab, asta tebra-nib uchardi. Shoxidagi qizil kokillari pirpirardi, uzun dumi u yoqdan bu yoqqa tebranar edi. Rashid „iching kuysin“ deganday, Darozga qa-rab-qarab qo‘yardi.

Rashidning varragi osmonga ko‘tarilishi bilan bolalar yugurib kelishdi. Varrakni birga uchir-dilar. Hamma bolalar xursand. Daroz-chi?

Kech kirib, qorong‘i tusha boshlaganda, bo-lalar birin-ketin varraklarini tushira boshladilar. Bugun bolalar Darozga emas, Rashidga er-gashdilar.

Rashid uchun eng quvonchlisi shu bo‘ldiki, 26-mart kuni poytaxtimizda „Varraklar bayrami“ Respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Rashid var-ragi bilan tanlovda qatnashdi. Uning varragi tanlovda birinchi o‘ringa loyiq topildi.



1. Nima uchun bolalar Rashidga ergashdilar?
2. Daroz bolaga qanday baho berasiz?
3. Rashid nimadan quvondi?

Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.



http://edu.uz

Soy suvi haqida ertak

Zohir A'lam

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. U bola-chaqasi bilan tog‘ning etagiga kelib joylashibdi. Tog‘ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan sharqirab suv oqar ekan.

Dehqon darrov to‘rt tanobcha yerni haydabdi, soydan suv olib sug‘orib, ekin ekibdi. Keyin esa tog‘dagi daraxtlarni kesib, uy quribdi. Hovli tevaragini chetan devor bilan o‘rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi. Shu orada bir yil o‘tibdi.

Kelasi bahorda dehqon ekin ekib, sug‘ormoqchi bo‘lgan ekan, qarasa, soyda suv yo‘q emish. Dehqon soyga:

– Soy, menga suv ber. Ekinimni sug‘oray, – debdi.

– Men suvni senga qayerdan olib beraman? Yaxshisi, qordan so‘ra, – javob qilibdi soy.

Dehqon qorning oldiga boribdi.

– Ey, qor! – debdi. – Sen soyga suv ber. Men ekinimni sug‘oray.

Bu gapni eshitib, qorning achchig‘i kelibdi va:

– Men bu yil me’yorida yog‘dim. Lekin namni ushlab turadigan daraxtlarni o‘zing kesib ketding. Daraxt bo‘lmasa, qishda yog‘gan qor

http://eduportal.uz

bahorda erib, oqib ketadi. Soyga suv kelmaganiga o‘zing aybdorsan, – debdi. Dehqon o‘ylab turib, qorning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Bir talay ko‘chat keltirib, tog‘ga ekibdi. Ular tezda o‘sib, katta-katta daraxtlarga aylanibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo‘yi suv oqadigan bo‘libdi. Dehqon esa xohlagan paytda ekinini sug‘orib, ulardan mo‘l hosil olib, farovon hayot kechiribdi.

1. Nima uchun soyning suvi qurib qolibdi?
2. Dehqon nimalardan suv so‘rabdi?
3. Qorning dehqonni ayblab aytgan gaplarini matndan topib, o‘qib bering.
4. Yozuvchi ertak orqali nima demoqchi?

Bog‘im

Habib Rahmat

Dunyoni bog‘ etishni
Orzu qilar odamlar.
Daraxt ekish sirlarin
O‘rgatdilar dadamlar.

O‘yib bir gaz chuqurcha
Nihol ekdim avaylab,
Parvarish qildim dildan
Unga mehrimni boylab.

Ko‘kka cho‘zib qomatin
Quloch yozar shoxlari.



http://edu.portal.uz

O‘sishidan zavqlanib,
Yana mehr boyladim.

Chaman bo‘lib ko‘rindi
Har bir daraxt, har bir shox.
Ko‘ring qanday chiroyli
O‘zim bunyod qilgan bog‘.

1. She’rda qaysi fasl tasvirlangan?
2. She’rda nima haqida gap boradi?
3. Dadasi bolasiga nimani o‘rgatdi? Shu o‘rinni topib o‘qing.
4. Bola nimadan xursand bo‘lmoqda?

Beminnat yordam

(Rivoyat)

Bir kuni bog‘bon bir nechta terak ekdi. Ular tezda bo‘y cho‘zib o‘sa boshladi. Teraklarning yonginasidan tok ko‘karib chiqdi. Uning ham kundan kunga bo‘yi cho‘zilib, barglari ko‘paya bordi. Lekin tok novdasi nimjon bo‘lganligi uchun u yer ustida yotardi. Teraklardan birining tokka rahmi kelib, uning poyasini shoxiga ilib yerdan ko‘tardi. Tokning bag‘riga shamol tegib, yanada tezroq o‘sa boshladi. Tok novdasi o‘sgan sari terakka ko‘proq chirmashar edi. Tez orada ular qalin do‘st bo‘lib qoldilar. Bir kuni bog‘bon kelib, terakka chirmashib o‘sayotgan tokni ko‘rdi va: „O‘zi chiqqan tok bu yil mevaga kiribdi. Terakka qo‘-

http://edu portal.uz

shilib balandlab ketsa, mevasini yig‘ish qiyin bo‘ladi“, – deb terakning yuqori shoxlarini kesib qo‘ydi. U bilan bir kunda ekilgan teraklar unga qarab:

– Mana shu tokka o‘ralashib, pastda qolib ketding, tashla uni, bizga o‘xshab yuqoriga intil, – deyishdi. Lekin terak do‘stini tashlab o‘sishga ko‘zi qiymadi. Chunki uning bo‘yi baland bo‘lmasa ham, do‘stiga va odamlarga foydasi tegayotganidan xursand edi.

Ey farzand, shunday odamlar borki, o‘zlari ko‘zga tashlanmasalar-da, qo‘ldan kelgan barcha yordamlarini ayamaydilar.



1. Terak va tok qanday do‘stlashdi?
2. Siz bu do‘stlikka qanday baho berasiz?
3. Daraxtga chirmashib o‘sadigan qanday o‘simliklarni bilasiz?



Navro‘z keldi

Dilshod Rajab

Navro‘z keldi, xush keldi,
Dala to‘la ish keldi.
Dehqon bobo qalbiga
G‘ayrat keldi, jo‘sh keldi.

Jilg‘a chopar chuldurab,
Bulut goho guldurab,
Yomg‘ir quyar shovullab,
Lola chiqar lovullab.

http://edu.portal.uz

Qirda yonar lolalar,
Qirga chopar bolalar.
Sho‘x yellarga soch chayib,
Birga chopar bolalar.



Qanot yozgan burgutday
Kengaygan qir-dalalar.
Ertaklarda topilmas
Bu ajoyib pallalar!

Navro‘zi olam keldi,
Baxtimiz chaman keldi,
Elga ham bayram keldi,
Dilga ham bayram keldi!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda bahor faslining qaysi davri tasvirlangan?
3. „Navro‘z keldi“ she’ri asosida rasm chizing. She’rni yod oling.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limdagi qaysi asarlarda bahor manzarasi tasvirlangan?
2. Tabiatga bo‘lgan munosabatingizni bildiring.
3. Bahorgi milliy o‘yin va an’analar haqida aytib bering.
4. Bahor kelishi bilan dala va bog‘larda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
5. „O‘lkamizda bahor“ mavzusini og‘zaki bayon qiling.

http://edu.pdf.uz



Myunxauzenning boshidan kechirganlari

Erix Raspe

1. Oyga birinchi sayohat

Turkiyada poliz ko‘katlaridan bo‘lgan bir o‘simlikni eslab topdim. U juda tez o‘sar, hatto ba’zan xuddi osmongacha yetar edi.

Bu Turkiya loviyalari edi. Bir daqiqa ham hayallamasdan, shu loviyalardan birini ekdim. U shu ondayoq o‘sa boshladi.

U faqat yuqoriga qarab o‘saverdi va tez kunda Oyga chirmashdi!

– Qoyil!!! – dedim-da, shoxlariga tirmashib, yuqoriga chiqaverdim.

Bir soatdan keyin o‘zimni Oyda ko‘rdim. Oyda kumush boltamni ko‘p axtardim, uni topish oson bo‘lmadi. Oy ham kumush, bol-

tacha ham kumush rangda bo‘lgani sababli kumushda kumush ko‘rinmas ekan. Ammo axiyri boltachani bir to‘da chirigan poxol ustidan topdim. Xursand bo‘lib uni kamarimga qistirib oldim va Yerga qaytmoqchi bo‘ldim. Biroq ish boshqacha bo‘lib chiqdi: loviyaning poyasi quyosh issig‘idan qovjirab, uzilib-uzilib ketibdi. Buni ko‘rgach, qattiq xafa bo‘ldim.

Nima qilish kerak? Nima qilsam ekan? Nahotki men Yerga qaytolmasam? Nahotki umrim boricha Oyda qolsam? Voy, yo‘q! Aslo bo‘lmaydi! Noiloj poxol yoniga o‘tirib olib, undan arqon yasay boshladim. Arqon ko‘ngildagidek uzun bo‘lib chiqmadi, lekin nachora! Chap qo‘limga boltachani, o‘ng qo‘limga arqonni ushlaganim holda sirg‘alib, pastga tushaverdim.

Tez orada arqon ham tugab qoldi, men bo‘lsam osmon bilan yer o‘rtasida, havoda osilib qoldim. Bu juda qo‘rqinchli hol edi. Lekin pisand qilmadim. Uzoq o‘ylab turmasdan, boltachani oldim va arqonning pastki uchiga mahkam yopishib turib, yuqorigi uchini kesdim va uni pastki uchiga uladim. Shunday qilib, yerga yaqinlashdim. Lekin yerga tushishga hali ham anchagina masofa bor edi.

Arqonning yuqori uchini ko‘pgina marta kesib, pastki uchiga bog‘lashga to‘g‘ri keldi.

http://eduportal.uz

Nihoyat, shunday pastladimki, hatto shahardagi uylarni va saroylarni ham ko‘ra oldim. Yerga hammasi bo‘lib uch yoki to‘rt mil[1] qolgan edi.

Birdan arqon uzilib ketdi. Hash-pash deguncha yerga chirpirak bo‘lib tushdim. Bir vaqt qarasam, yerga eng kamida yarim mil botib ketibman.

O‘zimga kelgandan keyin ko‘p vaqtgacha bu chuqurdan qanday chiqishni bilolmay, esankiradim. Kun bo‘yi hech narsa yemay, ichmay o‘yladim. Nihoyat, o‘ylab topdim, tirnoqlarim bilan pillapoyachalar yasab, yer ustiga bazo‘r chiqib oldim. Ha, Myunxauzen hech qayerda qolib ketmaydi.



1. Ertakni o‘qing. Myunxauzenning topqirligiga e’tibor bering.
2. Shu voqeaga o‘xshash birorta ertakni bilasizmi?



2. Otlar qo‘ltiqda, arava yelkada

...O‘sha yili qish juda qattiq keldi. Hatto quyosh ham shamollab, yuzlarini sovuqqa oldirdi, uning ustiga tumov ham bo‘ldi.

Quyosh shamollaganidan keyin, undan issiq o‘rniga sovuq keldi. Men o‘z foytunimga[2] o‘ti-

[1] **Bir mil** – 2 kilometr chamasidagi masofa.

[2] **Foytun** – to‘rt g‘ildirakli, ochilib-yopiladigan soyabonli yengil arava.

http://edu.ponal.uz

rib, naqadar sovqotganimni bir ko‘rsangiz edi. Ko‘cha tor, ikki tomoni devor. Shu tor ko‘-chada o‘zimiz arang ketayotgan bir paytda, to‘satdan oldimizdan biror arava yoki foytun chiqib qolib, ishni pachava qilib yurmasin deb, foytunchi xizmatkorimga surnay chalishni buyurdim. Xizmatkor surnayni qo‘liga olib, kuch bilan puflay boshladi. Ammo surnaydan hech bir tovush chiqmadi. Tovushlar sovuqda muz-lab qolgan ekan. Holbuki, biz tomonga bir foytun kelmoqda edi.

Hech narsa qilib bo‘lmadi. Men darrov tu-shib, otlarni foytundan chiqardim. Keyin foy-tunni yelkamga ko‘tarib oldim. U juda og‘ir edi. Bir sakradim-da, devorning narigi tomo-niga oshib tushdim. Yana bir sakrash bilan foytunni qaytadan yo‘lga olib tushdim. Nafa-simni biroz rostlagach, otlar yoniga qaytib keldim, ularni ikkala qo‘ltig‘imga oldim va ikki sakrash bilan arava yoniga olib keldim. Bu sakrash vaqtida otlardan biri zo‘r berib te-pindi.

Ha, juda noqulay bo‘ldi. Ammo men uning keyingi oyoqlarini kastumimning cho‘ntagiga solib qo‘ydim, so‘ngra ot jonivor noiloj jimgina turaverdi. Keyin otlarni aravaga qo‘shib, yo‘lga chiqdim va tez fursatda bir musofirxona[1]ga kelib tushdim.

[1] **Musofirxona** – mehmonxona.

http://edu.portal.uz

1. Ertakning ikkinchi qismini o‘qing.
2. Siz Myunxauzenning o‘rnida qanday yo‘l tutar edingiz?

Moychechak

Tavfiq Fikrat

Bahor kelsa bezanadi
Tepalarning yaydoqlari.
Zumrad kabi o‘tloqlari
Kelin bo‘lib yasanadi.
Kelin yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.

Dalalarda bir yoqimli
Sariq, qizil, gunafsharang
Gullar ko‘payar rang-barang,
Lekin menga eng go‘zali
Kular yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.

Yaproqlari jimjimali,
Bu ham ayri bir go‘zallik.
Tani paxmoq, bo‘yni nozik,
Ham go‘zal, ham karashmali.
Kelin yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.

Shamol esar: goh u yonga,
Goh bu yonga egiladi.
Teng boradi, teng keladi,



http://edu.portal.uz

Rohat berarlar insonga.
Kular yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda qaysi fasl tasvirlangan?
3. Moychechakka shoir qanday ta’rif beryapti? Ana shu o‘rinlarni topib o‘qing.



She’rni yod oling.



Uch aka-uka va baxt

Ilvira Daukayeva

1

Ajoyib bahor kunlaridan biri edi. Uch aka-uka yam-yashil o‘tloqdan yurib borar edilar. Nogahon ovoz eshitildi.

– Yordam! Yordam beringlar! Men bu yerda, chuqurdaman! Yordam beringlar! – kimdir yordam so‘rab chaqirayotgan edi.

Aka-ukalar chuqurga tomon yugurdilar, ular chuqur tubida nur sochayotgan, ajoyib, biroq qo‘rqqan va qiynalgan yuzni ko‘rdilar.

– Bu yer chuqur va kir ekan! Dahshat! – jirkanib dedi katta aka.

– Ko‘zi qayerda ekan, shu yerga ham tushadimi? – dedi o‘rtancha ensasini qashib.

– Shunday bo‘lib qoldi, bir necha kundan beri shu yerdaman, iltimos, qutqaringlar... – dedi u.

http://eduportal.uz

– Sendan nur chiqyapti, kimsan o‘zi? – dedi kenjatoy.

– Men Baxtman! – dedi u.

– Baxt?.. Ahmoqlik! Baxt chuqurga tushib ketmas edi, xa-xa-xa, – kuldi katta aka.

– Yoki o‘zi chiqa olardi! – ishonmay to‘ng‘illadi o‘rtanchasi.

– Men bahor shabadasi bilan uchayotgan edim, birdan menga yovuz to‘fon yopirildi. Meni har tomonga otdi, keyin mana shu chuqurga tashlab yubordi.

– Bechoragina... Men seni tortib olaman, – dedi kenjatoy va qo‘lini Baxtga cho‘zdi.

Katta akalar ishonmadilar va unga tashlanib, yo‘lini to‘sdilar:

– Oldin Baxt ekanini isbotlasin! – baqirdi o‘rtanchasi.

– Ha, isbotla! Balki shunaqa deb aldayotgandirsan?! – talab qildi katta aka.

– Istagan narsangni tila, men uni bajaraman! – dedi ishonch bilan Baxt.

– Negadir ishonmayapman, – shubhalandi katta aka.

– Tilak tilang, ko‘rasiz! – dedi ularga ishonch bilan Baxt.



1. Baxt bilan aka-ukalar qay tarzda uchrashdilar?
2. Aka-ukalar haqida o‘z fikringizni bildiring.



http://eduportal.uz

2

– Unda yaxshi! Unda... men yaxshi ovqat pishiradigan xotinga uylanmoqchiman... Nima qilibdi? Men mazali ovqat yeyishni yaxshi ko‘raman, – dedi katta aka.

– Shunday bo‘lsin! Tilaging bajo bo‘ldi! – dedi Baxt.

– Siz meni qidiryapsizmi, azizim? Men keldim.

Aka-ukalar ovoz kelgan tomonga qarashdi. Lo‘ppi yuzli qiz katta akaga tabassum bilan qarab turgan edi.

– Yuring uyga, tushlik tayyor, xuddi siz yaxshi ko‘rganingizdek tayyorlab qo‘ydim.

Katta aka hamma narsani unutib, qizning qo‘lidan tutib, uyiga qarab ketdi...

– Unda menga ham... ko‘p tilla, juda ko‘p oltin bo‘la qolsin! – hiringladi o‘rtanchasi.



http://eduportal.uz

– Shunday bo‘lsin! Tilaging bajo bo‘ldi! – dedi Baxt.

– Birdan osmondan tillalar yog‘ila boshladi. Aka-ukalar oltin yomg‘iridan zo‘rg‘a o‘zlarini chetga oldilar.

– Ajoyib-ku! Shuncha oltin! Bular mening oltinlarim! – quvonib ketdi o‘rtanchasi. – Nariroq tur, xalaqit berma!

Oltinlarni olib, yugurib ketdi. Kenjatoy uning izidan qarab qoldi. Keyin chuqur chetiga bordi va Baxtga qarab, dedi:

– Mening qo‘limni tut, men seni tortib chiqaraman!

Biroq Baxt uning qo‘lidan tutishga shoshmadi va ishonmay so‘radi:

– Sen mendan nimani tilagan bo‘larding?

– Xudoga shukur, menda hamma narsa bor. Senga nima kerak?

– Meni bu yerdan chiqar, men qiynalib ketdim.

Kenjatoy qo‘lini cho‘zib, Baxtni tortib oldi.

– Senga katta rahmat. Men bu yerda qolib ketaman deb qo‘rqqan edim, – dedi Baxt va yorqin nurlar bilan tovlanib, yer yuziga baxt socha boshladi.

Kenjatoy ketmoqchi bo‘lib turganida, Baxt undan so‘radi:

– Sen qo‘rqmas, dovyurak, oliyjanobsan. Har doim yoningda yurishimga ruxsat berasanmi?

http://eduportal.uz

– Ha, albatta, men juda ham xursand bo‘laman, – javob berdi kenjatoy.

Endi kenjatoy va Baxt ajralmas, qadrdon bo‘lib qolgan edilar.

1. Baxt nima uchun kenja ukani savolga tutdi?
2. Baxt boylik bilan o‘lchanadimi?

Kasblarning rangi qanaqa?

Janni Rodari

Har kasbning o‘zgacha, farqli rangi bor,
Mana ko‘ring, novvoy – oppoq, xuddi qor.

Sochlari oq uning, qosh, kiprigi oq,
Ertalab qushlardan turar oldinroq.

O‘tyoqarning rangi qora-quradir,
Bo‘yoqchining rangi ola-buladir.

Zavodga kiring-da, ishchiga qarang:
Uning ish kiyimi ko‘kday havorang.

Ishlovchining qo‘li moyli, sap-sariq.
Tekinxo‘rning qo‘li rangsiz, op-oriq.

Barmoqlari nozik, belgi yo‘q biron,
Na moy yuqi bor-u, na qurum-qatron.

Sevinmang terisi oq deb bu ora,
Ularning ishlari juda qop-qora.

http://eduportal.uz

1. Shoir kasblarning rangini qanday ta’riflayapti?

2. Shoir tekinxo‘rni kim deb atayapti?

Pinokkioning sarguzashtlari

Karlo Kollodi

(Ertak)

1

Bor ekan-u yo‘q ekan, bir g‘o‘la bo‘lgan ekan. G‘o‘la bo‘lgandayam unaqangi asil nav daraxtning g‘o‘lasi emas, shunchaki o‘tinbop bir g‘o‘la ekan.

Kunlarning birida o‘sha yog‘och g‘o‘la bir keksa duradgorning uyiga tushib qolibdi. Bu duradgor cholning ismi Antonio bo‘lsa ham, odamlar uni „Usta Olcha“ deb atashardi. Nimaga desanglar, burnining uchi g‘arq pishgan olchaga o‘xshab, doim qip-qizil, yaraqlab turardi.

Usta Olcha g‘o‘lani ko‘rib, juda ham xursand bo‘ldi.

– Juda vaqtida ko‘rib qoldim-da, bu g‘o‘lani. Endi undan stolga oyoq yasayman, – dedi. Shunday dedi-yu, ishga kirishdi. U g‘o‘lani po‘stloqdan tozalamoqchi bo‘lib, qo‘liga o‘tkir boltasini oldi. Shu payt g‘o‘la ichidan allakimning yolvoruvchi ovozi eshitildi:

– Voy, urmang meni!

http://edu.portal.uz

Usta Olchaning qay ahvolga tushganini ko‘z oldingizga keltirayotgan bo‘lsangiz kerak. U tamoman esankirab qoldi. Tovush qayoqdan kelganini bilish uchun ustaxonaning har tomoniga ko‘z yugurtirib chiqdi. Biroq ustaxonada hech zog‘ yo‘q edi.

– Haa, bo‘ldi, tushundim, – deb hiringladi u. – Qulog‘im shang‘illagan bo‘lsa kerak. Qani, ishga kirishaylik!

Shundan keyin u yana boltani qo‘liga oldi-yu, g‘o‘lani chopdi.

– Voy, og‘ritvordingiz-ku! – deb chinqirdi boyagi tanish ovoz. Usta Olcha uchun bu dahshatning o‘zginasi edi. Qo‘rqqanidan og‘zi lang ochilib qoldi, tili iyagigacha osilib tushdi. Birozdan keyin o‘ziga keldi.

– Bo‘ldi, tushundim, – dedi qo‘rqoqligidan xijolat bo‘lib. – Qulog‘im shang‘illaydigan bo‘lib qolgan. Qani, ishga!

Usta g‘o‘lani silliq qilib randalash niyatida boltani chetga qo‘yib, qo‘liga randa oldi. Lekin randani g‘o‘la ustida yurgizishi bilanoq yana qulog‘iga o‘sha chiyildoq ovoz eshitildi:

– Vuy, tegmang axir menga. Hamma yog‘imni qitiqlab tashladingiz-ku!

Bu gal usta Olcha xuddi yashin urgandek „gurs“ etib yerga yiqildi. Birozdan keyin hushiga kelib, ko‘zini ochsa, hali ham yerda cho‘zilib yotibdi.

http://sulumportal.uz

Afti jin chalgandek qiyshayib ketgan, burnining to‘q qizil uchi qo‘rqqanidan to‘q zangori rangga kirgan edi.

1. Usta Olcha kim edi?
2. Yog‘och g‘o‘la bilan qanday hodisalar ro‘y berdi?

2

Shu mahal eshik taqillab qoldi...

– Kiravering, – dedi duradgor zo‘rg‘a, lekin o‘rnidan turishga majoli yetmadi.

Ustaxonaga Jepetto ismli bir odam kirdi. Qo‘shni bolalar bu cholning jig‘iga tegish uchun unga „Zog‘ora non“ deb laqab qo‘yishgan edi. Chunki uning boshidagi sap-sariq parigi zog‘ora nonga juda ham o‘xshab ketardi.

– Salom, usta Antonio, – dedi Jepetto. – Nega yerda o‘tiribsiz?

– Chumolilarga to‘rt amaldan dars beryapman.

– Omad tilayman!

– Xush ko‘rdik, Jepetto amaki.

– Huzuringizga bir iltimos bilan keldim.

– Bemalol so‘rayvering, – deb javob berdi duradgor o‘rnidan turarkan.

– Bugun ertalab miyamga bir fikr kelib qoldi.

http://eduportal.uz

– Qani, eshitaylik.

– Bironta yog‘och topib, undan alomat yog‘och odam yasasam chakki bo‘lmasdi. U yog‘och odam raqs tushishni, qilichbozlik qilishni, umbaloq oshishni bilishi kerak. Shunga siz nima deysiz?

– Barakalla, Zog‘ora non! – deb chinqirdi boyadan beri allaqayoqdan eshitilayotgan haligi ovoz. Jepetto amaki g‘azabdan achchiq qalampirday qizarib ketdi, jahl bilan duradgorga o‘shqirdi:

– Meni haqorat qilishga qanday jur’at etdingiz?

– Kim sizni haqorat qildi?

– Siz meni „Zog‘ora non“ deb atadingiz.

– Men aytganim yo‘q u so‘zni.

– Aytdingiz!

– Yo‘q!

– Aytdingiz!

Ular qizishgandan qizishib, bir-birlariga yopishib goh tishlasha, goh timdalasha boshladilar.

Nihoyat, jang tugab, ular bir-birlaridan ajralishganida Jepettoning sariq parigini usta Antonio changallab olgan, duradgorning oq parigini esa Jepetto tishlab turar edi.

– Ber parigimni! – deb baqirdi usta Antonio.

http://eduportal.uz

– Sen ham ber parigimni, keyin yarashamiz.

Chollar pariklarini ayirboshlab olishgach, bir-birlarining qo‘lini siqishib, umrbod qalin do‘st bo‘lib qolishga so‘z berishdi.

Shundan keyin Jepetto shumtaka g‘o‘lani qo‘ltig‘iga qistirib, oqsoqlagancha uyiga jo‘nadi.



1. Buratino haqidagi filmni ko‘rganmisiz? Pinokkio qaysi jihati bilan Buratinoni eslatadi?
2. Albatta, „Pinokkioning boshidan kechirganlari“ kitobini olib o‘qing. Uning boshqa sarguzashtlarini ham bilib olasiz.



Anbe va Ranbe

(Hind xalq ertagi)

1

Sichqoni ko‘p bir xonadonda qari mushuk yashar ekan. U sichqon tutishga yaramay qolibdi. O‘ylab-o‘ylab buning chorasini topibdi. Bir kuni u sichqonlarni chaqirib shunday debdi:

– Sichqonlar, hoy sichqonlar, men sizlarni nega chaqirganimni bilasizmi?

To‘g‘risini aytsam, shu paytgacha men sizlarga doim yomonlik qilardim va ranjitib kelardim. Buni bo‘ynimga olaman. Endi o‘z qilmishimdan uyalyapman. Xullas, sizlarga bo‘lgan munosabatimni o‘zgartirishga ahd qildim. Endi mendan qo‘rqmanglar. Faqat sizlardan

http://eduportal.uz

birgina talabim bor: har kuni ikki mahal saf tortib oldimdan o‘tib turasizlar. Men sizlarga tegmaslikka so‘z beraman.

Mushukning va’dasini eshitib, sichqonlar o‘zlarida yo‘q quvonishibdi va uning shartiga darrov rozi bo‘lishibdi. Mushuk uyning bir burchagiga joylashib olibdi.

Sichqonlar ta’zim qilib, uning oldidan bitta-bitta o‘ta boshlashibdi. Nihoyat, uning oldidan oxirgi sichqon ta’zim qilib o‘tib borayotgan ekan, mushuk shappa uni tutib olibdi-da, paqqos tushiribdi.

Avval o‘tib ketgan sichqonlar hech narsani sezishmabdi. Sichqonlar shu tariqa kamayib boraveribdi.

1. Mushuk qanday hiyla ishlatdi?
2. Sichqonlar qanday kamayib bordi?

2

Sichqonlar orasida Anbe va Ranbe degan ikki do‘st bor ekan. Ular mushukning hiylasini sezib qolib, shunday qarorga kelishibdi: bundan keyin mushukning oldidan o‘tayotganda Ranbe safning oldida, Anbe esa oxirida o‘tadigan bo‘libdi.

Safning boshida borayotgan Ranbe mushukka chuqur ta’zim bajo qilar ekan, bor ovozi bilan:

– Do‘stim, Anbe, qayerdasan? – deb qichqiribdi.

http://eduportal.uz



Safning oxirida kelayotgan Anbe unga:

– Shu yerdaman, do‘stim Ranbe, – deb javob qilibdi.

Sichqonlarning hammasi mushuk oldidan o‘tib bo‘lmaguncha, ular bir-birlari bilan shu tariqa xabarlashib turishibdi.

Mushukning hiylasi ish bermaganidan, och qola boshlabdi. Fig‘oni oshgan mushuk shart-ta Anbega tashlanib qolibdi. Biroq u ham anoyi emas ekan. Birpasda ko‘zdan g‘oyib bo‘-libdi.

Qolgan sichqonlar ham bir zumda inlariga kirib yashirinishibdi. Mushukning aldoqchi ekani oshkor bo‘lganidan so‘ng u birorta sichqon tuta olmay, ozib-to‘zib ketibdi.

1. Sichqonlar qanday chora topdilar?
2. Anbe va Ranbe ishtirok etgan o‘rinlarni rollarga bo‘lib o‘qing.

Bahs

Anvarbek Duysinbiyev

Bir kun daryo bo‘yida
Qoq peshin payti
Ikki do‘st o‘tirardi,
Safsata aytib.
Olis tog‘larga qarab,
O‘tirgan yerdan
Gap talashib qolishdi
Ikkovi birdan:
– Alp bo‘lsam, anov tog‘ni, –
Deb qo‘ydi Sanjar, –
Cho‘lga surib qo‘yardim
Yelkamda dangal.
– Men esa, – dedi O‘ljas
Do‘st-birodar –
Darhol eltib qo‘yardim
Tog‘ni joyiga.
Sanjar dedi:
– Bir tepsam
Hovling, uyingni,
Topolmay qolar eding
Ko‘cha-ko‘yingni.
O‘ljas dedi: qaytadan
Qurar edim uy.
Hovlimda dang‘illatib



http://eduportal.uz

Qilar edim to‘y.
– Shunaqami? – der Sanjar.
– Shunday, – der O‘ljas,
Jangga aylanar janjal,
Olovlanar bahs.
Yoqalashib ketishdi,
Olishib jiqqa.
So‘ng ikkovi dumalab,
Tushdi ariqqa.
Shu taxlit suv bo‘yida,
Qoq peshin payti
Ikki do‘st uylariga
Shalvirab qaytdi.
Ikkovi ham alp emas,
Ojiz, po‘k edi.
Sal-pal kuchi bo‘lsa ham
Aqli yo‘q edi.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Maqtanchoqlikning oqibati nimaga olib keldi? Kamtarlik haqida maqollar ayting.



Mittivoy va Karlson

Astrid Lindgren

– Xo‘sh, endi bir ko‘ngilni yozaylik, – dedi Karlson bir zumdan keyin. – Kel, avval, tom-ma-tom chopamiz.

Mittivoy jon deb rozi bo‘ldi. U Karlsonning qo‘lidan ushlab oldi, ikkovi tomga chiqishdi.

http://eduportal.uz

– Bezorilarni ko‘rishni istaysanmi? – deb so‘radi Karlson Mittivoydan, sal nafaslarini rostlab olishgach. – Boloxonalarimning birida ikkita zo‘r, ashaddiy bezori turadi.

Karlson ko‘rsatgan boloxona derazalaridan g‘ovur-g‘uvur, kulgi, qiyqiriq eshitilardi.

– Ho, ular kayf-safo qilishyapti! – dedi Karlson. – Yur, nimani ermak qilishayotganini borib ko‘ramiz.

Karlson bilan Mittivoy yana bo‘g‘ot yoqalab emaklab ketishdi. Ular boloxonaga yetishganda, Karlson boshini ko‘tarib, derazaga qaradi. Derazaga parda osib qo‘yilgandi. Biroq Karlson pardadan bir teshik topdi, o‘sha teshikdan hamma narsa ko‘rinardi.

– Bezorilarnikida mehmon bor ekan, – deb shivirladi Karlson. Mittivoy ham teshikdan qaradi. Xonada ko‘rinishi bezoriga o‘xshagan ikki odam bilan yuvosh, yoqimtoy yigit o‘tirardi.

– Bilasanmi, nima gap bor? – deb shivirladi Karlson. – Menimcha, bezorilarning niyati buzuq, ular biror xunuk ish qilishmoqchi. Lekin biz ularga xalaqit beramiz...

Karlson teshikdan yana bir bor qaradi.

– Garov o‘ynaymanki, ular qizil galstuk taqqan yigit bechorani shilishmoqchi!

Bezorilar bilan galstuk taqqan yigit deraza oldidagi stolcha atrofida ovqatlanib o‘tirishardi.

Bezorilar o‘qtin-o‘qtin mehmonning yelkasiga qoqib qo‘yishardi.

http://eduportal.uz

– Omading bor ekan, yigit, Fille bilan meni uchratib qolding, – dedi Rille.

– To‘g‘ri, Rille bilan meni uchratib qolmaganingda, bilmadim, holing nima kechardi, – dedi Fille ismli yigit.



1. Karlson va Mittivoy qayerga bordilar?
2. Rille va Fille kim edi?



2

Keyin Fillening bir ishini ko‘rib, Mittivoy hang-mang bo‘lib qoldi: Fille Oskarning shimining cho‘ntagiga qo‘lini solib, hamyonini olib o‘z shimining orqa cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

Oskar hech nimani sezmay qoldi. Chunki xuddi shu payt Rille uni quchoqlab olgan edi. Rille quchog‘ini yozganda, uning qo‘lida Oskarning soati paydo bo‘ldi. Rille soatni shimining orqa cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Oskar buni ham sezmadi.

Biroq tomda yashovchi Karlson semiz va do‘mboq qo‘lini parda tagiga ehtiyotlik bilan suqdi-da, Fillening cho‘ntagidan hamyonni olib qo‘ydi. Fille ham hech nimani sezmadi. Keyin Karlson yana do‘mboq qo‘lini parda tagiga suqib, Rillening cho‘ntagidan soatni oldi.

Rille, Fille va Oskar biroz gaplashib o‘tir-

http://eduportal.uz

ganidan so‘ng, Fille cho‘ntagiga qo‘lini solib ko‘rsaki, hamyon yo‘q. U Rillega g‘azab bilan qaradi-da, shunday dedi:

– Menga qara, Rille, yur tashqariga chiqib kelaylik. Ikkovimiz gaplashib olishimiz kerak.

Xuddi shu payt Rille ham qo‘lini cho‘ntagiga soldi, qarasaki, cho‘ntagida soat yo‘q. Endi u ham Fillega jahl bilan tikildi-da:

– Yur! Mening ham senga aytadigan gapim bor! – dedi.

Oskar yolg‘iz o‘zi zerikib dahlizga chiqdi.

Karlson derazadan lip etib sakrab tushdi-da, hamyonni chinni idishga solib qo‘ydi. Soatni esa lampaga ilib qo‘ydi. Fille, Rille va Oskar xonaga kirishlari bilan soatni ko‘rishdi. Biroq Karlsonni payqashmadi. Chunki u dasturxon yozilgan stol tagiga kirib olgandi. Mittivoy ham stol tagida edi.

– Qaranglar, soatim lampada osilib turibdi-ya, – dedi Oskar hayron bo‘lib. – Tavba, u yoqqa qanday ilinib qoldi?

U lampa oldiga borib, soatni oldi-da, kamzulining cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

– Iye, hamyonim kosaning ichida, rost, qaranglar-a! – deya yana qichqirib yubordi Oskar kosani ko‘rsatib. – Juda qiziq bo‘ldi-ku.

Rille bilan Fille Oskarga hayron bo‘lib qarab qolishdi.

http://eduportal.uz

Karlson bilan Mittivoy qilgan ishlaridan qotib-qotib kulishardi.



1. Mittivoy nimaga guvoh bo‘ldi?
2. Karlson qanday yo‘l tutdi?
3. Ertak qahramonlariga munosabat bildiring.



Dog‘da qolgan qarg‘a

(Laos xalq ertagi)

Bir kuni Qarg‘a barglar orasida mudrab yotgan Chigirtkani ko‘rib qolibdi. Endi yeyman deb, cho‘qilamoqchi bo‘lib turganda, Chigirtka ko‘zini ochibdi va boshini ko‘tarib Qarg‘aga:

– Hurmatli Qarg‘a, malol kelmasa, bir-ikkita topishmoq aytsam, unga javob bersangiz, keyin meni yesangiz, – debdi.

Qarg‘a qag‘illab boshini chayqab:

– Yaxshi! Yaxshi! Faqat imillamasdan tezroq ayt topishmog‘ingni, – debdi.

Chigirtka unga:

– Hurmatli Qarg‘a, ayting-chi, dunyoda eng o‘tkir narsa nima? – debdi.

– O‘ylab o‘tirishning hojati yo‘q. Qarr! – xursand bo‘lib ketibdi Qarg‘a. – Bu – yoyning uchi.

– Afsuski, topa olmadingiz, – debdi Chigirtka. – Ayting-chi, dunyoda nima tez yuradi?

– Qarr! Qarr! Ikki g‘ildirakli arava! Ikki

http://edu.portal.uz

g‘ildirakli poyga aravasi! – suyunib qichqira ketibdi Qarg‘a.

– Yo‘q, yana topolmadingiz. Endi ayting-chi, dunyoda eng kuchli nima?

– Yo‘lbars! Qarr, qarr!

– Hecham-da! Eng og‘iri-chi?

– Yer! Bizning yer! – jahli chiqib qag‘illabdi Qarg‘a.

– Yo‘q-yo‘q! Boshqa narsa, – e’tiroz bildiribdi Chigirtka.

Qarg‘a topishmoqni topolmaganidan, Chigirtka juda xursand bo‘libdi. Qarg‘aning esa jahli chiqibdi. Ular qozining huzuriga borishibdi. Avval Qarg‘a qoziga hammasini so‘zlab beribdi. Navbat Chigirtkaga kelibdi. U:

– Muhtaram qozi! Qarg‘a meni yemoqchi edi. Men unga: „Agar topishmoqlarimni topsangiz, yeyavering“, – dedim. Ammo Qarg‘a



http://edu.portal.uz

javob topa olmadi. Axir dunyoda hamma narsadan o‘tkir – aql, tezdan tezi – fikr, eng kuchli narsa – himmat va halollik, og‘irdan og‘iri – jinoyatchining qalbi ekani ma’lum-ku. Iltimos qilaman, muhtaram zot, endi adolat qilib, kim haq, kim nohaqligini ayting, – debdi.

Qozi biroz o‘ylanib turibdi-da, keyin boshini silkitib debdi:

– Chigirtka haq, Qarg‘a, siz yutqazdingiz.

Shunday qilib qarg‘a dog‘da qolibdi.



1. Ertakni ifodali o‘qing.
2. Chigirtka bergan savollarga yana nima deb javob berish mumkin?
3. Qarg‘a nima uchun dog‘da qoldi?



O‘tirishi tulkiday,
O‘t yeyishi yilqiday. *(Chigirtka)*



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limdagi qaysi ertaklarning filmlarini ko‘rgansiz?
2. Maktab kutubxonasida qanday qiziqarli kitoblar o‘qigansiz?
3. Qaysi asarlarda topqirlik belgilari uchraydi?
4. Uyda ko‘rgan multfilmlaringiz asosida ertak yozing.
5. Qaysi kasblarning rangi haqida bilib oldingiz?



http://eduportal.uz

TINCHLIK VA DO‘STLIK BO‘LSIN BARQAROR



Tilak

Faxriddin Hayit

Oftob mangu sochar nur,
Oy ham mangu yonadi.
Ko‘k ostida ona yer
Koptokdek aylanadi.

Shu zaminda hur, obod,
Bir diyor bor, gul diyor.
Yurtda tinchlik barhayot,
Yurtda barcha baxtiyor.

Naqarot:
Mangu bo‘lsin farovon,
Vatanim O‘zbekiston!

Porlab tursin, oy-quyosh,
Aylanib tursin zamin.

http://edu.portal.uz

Shodlikka bo‘lsin yo‘ldosh
Bolalikning har dami.
Har nahorda yangidan
Nur taratsin tog‘ oshib.
Taraqqiyot tongida
Charaqlab baxt quyoshi.

Naqarot:
Mangu bo‘lsin farovon,
Vatanim O‘zbekiston!



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. „Ko‘k ostida ona yer koptokdek aylanadi“ misrasini tahlil qiling.



She’rni yod oling.



Ko‘prik ustidagi do‘st

Ulug‘bek Hamdam

(Hikoya)

1

Har gal dala hovlidan qaytayotganimda, yo‘lda ikki yalangoyoq bolakayni uchratar edim. Birining oti – Nikita, ikkinchisiniki esa Umidjon. „Ismlarini qayerdan bila qoldingiz?“ demoqchimisiz? O‘zlaridan-da. Voqea bunday bo‘ldi: hovlimdagi chog‘roq bog‘da ishlab, kechga tomon torgina yo‘ldan shaharga qaytayotsam, muyulishda qo‘qqisdan ro‘paramdan bir mashina chiqib qoldi. Yo‘l chetida bolalar o‘ynab

http://eduportal.uz



o‘tirishardi. Shitob bilan kelayotgan mashinani o‘tkazib yuborish uchun shartta tormozni bosib, mashinani bolakaylarning shundoq tumshug‘iga tirab to‘xtatdim. Ular yalt etib menga qarashdi. Jilmayib qo‘yishdi. Jilmayib deganim juda yumshoq chiqdi, „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman.

– Salom! – dedim men ham bolalarning sevinchidan ta’sirlanib.

– Salom! – deya mashinaning ochiq oynasidan qo‘lini suqdi ularning mallatobi.

– Oting nima seni? – so‘radim men.

– Nikita, – deb javob berdi bola.

– Seniki-chi? – deb so‘radim nariroqda iymanibroq turgan qoramag‘izdan.

– Umidjon!
– Yoshing nechada, Nikita?
– To‘qqizda.
– Seniki-chi, Umidjon?
– O‘n ikkida.
– Bo‘ylaring teng-ku.

Ular javob o‘rniga yana jilmayishdi.

– Xayr, bolalar!
– Xayr, amaki!

Men mashinani yurg‘izib, yo‘limda davom etdim. Odatda, dam olish kunlarim dala hovlida kechadi. Bu yerga kelib-ketarkanman, deyarli har safar Umidjon-u Nikitaga ro‘para keladigan bo‘ldim. Ular ham uzoqdan mening mashinamga ko‘zlari tushishi bilan o‘yinlarini tashlab, ko‘rishish uchun hozirlik ko‘rishardi. O‘z navbatida, men ham beg‘ubor bolalarning shugina istagiga peshvoz chiqmasdan o‘tolmayman: tormozni bosaman, ular chopib kelib, biri sarg‘ish-qizil, boshqasi qoramag‘iz yuzlarida menga tanish, menga qadrdon bo‘lib borayotgan quyoshchalarni porlatgancha birin-ketin qo‘llarini oynadan uzatishadi.

1. Yozuvchi Nikita va Umidjon bilan qanday tanishdi?
2. „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ degan gapni siz qanday tushundingiz?

http://edu.ziyonet.uz

2

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, muyulishdagi ko‘prik ustida ko‘rib qoldim. U yo‘lga ikki ko‘zini tikkancha oftobda javdirab turardi. To‘xtadim. Bolakayning kayfiyati yo‘q edi. Kiyimi rosa kirlangan, yuzida ham quyoshcha aks etmasdi negadir. U mashinaning ochiq oynasidan indamaygina qo‘lini uzatdi.

– Salom! – dedim men.

– Salom! – dedi u.

– Umidjon qani?

– Umidjon mashg‘ulotga ketdi.

– Qachon keladi?

– O‘n ikki-yu o‘ttizda.

Soatga qaradim: mil o‘n ikki-yu o‘ttiz beshni ko‘rsatardi.

– Keladigan vaqti allaqachon bo‘libdi-ku.

– Ha.

– Qachondan beri kutyapsan?

– Ertalabdan beri.

– Qayerda, shu yerda, ko‘prikning ustidami?

– Ha.

– O‘ynagani boshqa bolalar yo‘qmi?

– Bor.

– Nega o‘ynamayapsan?

– Umidjonni kutyapman.

Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomog‘imga bir nima kelib tiqildi. Asta qo‘zg‘alib yo‘limda davom etdim...

http://eduportal.uz

Mening Nikitadek biron do‘stim bormi, deyman xayolan. O‘zim ham biron Umidjonni do‘st tutib, quyoshning tig‘ida Nikita kabi kutdimmi?..



1. Nikita nima uchun g‘amgin edi?
2. Siz Nikitaning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?
3. Ayting-chi, sizning ham shunday do‘stingiz bormi?



Chin do‘st tug‘ishganing bilan teng.



Inson insonga o‘rtoq

Hamidulla Yoqubov

Turob ekdi ko‘k piyoz,
O‘t bosibdi ayni yoz.
O‘tni yulib bir o‘zi,
Toldi barmog‘i, ko‘zi.

Chakkasiga qo‘l tirab:
– Nima qilsam? – der Turob.
Birdan Savri, Sotvoldi
Yordamga kelib qoldi.

Oh, dehqonning vaqti chog‘,
Yeng shimarib uch o‘rtoq
O‘tay boshlar polma-pol,
Top-toza qilar darhol.

Suv, nurga to‘yib piyoz,
Erkin o‘sar beqiyos.

http://eduportal.uz

Ha, Turob emas yakka,
Tengdoshlar shay ko‘makka.

Inson insonga har chog‘
Qadrdon, ahil o‘rtoq.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda nima haqida gap boradi?
3. Siz o‘rtoqlaringizga qanday ishlarda ko‘-maklashgansiz?



She’rni yod oling.



Qirq ko‘ylagi bor,
Bir tugmasi yo‘q. *(Piyoz)*



Do‘stlikning bahosi

Bu voqea Vyetnamda bo‘lgan edi. Jang paytida yetimxona yoniga bomba kelib tushdi. Bir necha bola og‘ir yarador bo‘ldi. Yaradorlar orasida bir qizchaning ahvoli, ayniqsa, og‘ir edi. Agar unga tezlik bilan qon quyilmasa, halok bo‘lishi mumkin edi. Yaqin atrofda shi-fokorlar bo‘lmagani sababli elchixonadan chet ellik shifokorlarni chaqirtirishga to‘g‘ri keldi. Ular tezlik bilan qizchaning qon guruhini aniq-lashdi. Aksiga olib, shu yerdagilardan biror-tasining qon guruhi qizchanikiga to‘g‘ri kelmas ekan. Shifokorlarning bolalardan yordam so‘rash-dan boshqa ilojlari qolmadi. Ular yarim vyet-namcha, yarim inglizcha qilib maqsadlarini bo-

http://edu.portal.uz

lalarga tushuntirishdi. Qon berishga kim rozi ekanligini so‘rashdi. Barcha bolalar jim bo‘lib shifokorga tikilib qoldilar. Shu payt bir bolakay qo‘lini ko‘tardi-yu, tushirdi, keyin yana ko‘tardi. Shifokorlar unga minnatdorchilik bildirib, tezlik bilan yotqizib, tomiridan asta qon ola boshladilar. Bir mahal bolaning ko‘zidan yosh oqa boshladi. Hamshira uning ahvolini so‘ragan edi, yig‘idan to‘xtadi, lekin birozdan keyin yana yig‘lay boshladi. Hamshira xavotirda: „Muolajani to‘xtataymi?“ – deb imo-ishora bilan so‘radi. Bolakay „Yo‘q“, dedi. Ammo yig‘isini to‘xtata olmas edi. Shu vaqt vyetnamlik hamshira kelib qoldi. U bolakay bilan bir necha og‘iz gaplashdi. Bolaning yuzi yorishib, yig‘idan to‘xtadi. Chet ellik shifokorlar gap nimada ekanini bilmoqchi bo‘lishdi. Shunda vyetnamlik hamshira: „Bu bolalar sizni to‘g‘ri tushunishmabdi. Qizchaning hayotini saqlab qolish uchun hamma qonni berish kerak, deb o‘ylashibdi. Bu bolakay esa rozi bo‘lib, endi o‘lyapman, deb o‘ylagan ekan“, – debdi. Shunda shifokorlar: „Unday bo‘lsa, nega rozi bo‘libdi?“ – deb so‘rashdi. Hamshira bolakay bilan o‘z tilida gaplashdi, so‘ng davom etdi: „Men unga siz bergan savolni bersam, biz do‘stmiz, dedi“.

„Tarbiya kitobi“dan

http://edu.ziyonet.uz

1. O‘zi mehrga zor bo‘lgan bu bola haqida nima deysiz?
2. Siz yaqin do‘stlaringizdan yordam so‘raganmisiz?

Tinchlik ko‘chasi

Kavsar Turdiyeva

Menda sira so‘lmas gullar,
Qushlar yayrar chamanda.
Qizlar esa qo‘g‘irchog‘in
Ismin qo‘yar Samanta.

Tinchlik – hayot poydevori,
U orzu qay dillarda.
Shuning uchun takror-takror
Jaranglaydi tillarda.

Ahillik ko‘chasi

O‘rtamizdan o‘tmas qil,
Biz ahilmiz, ha, ahil.
Bu his kundan kun oshar,
Bizda har kuni hashar.
Bitmayaptimi uying?
Boshlanyaptimi to‘ying?
Darsdan oldingmi ikki?
Yo boshqa ishing chakki?
Demak, bil shu on, shu dam,
Yetib keladi yordam.
Barcha-barcha ko‘chalar,

http://eduportal.uz

Urishganlar nechalar.
Havas bilan qarashar,
Bizga kelgach yarashar.



1. She’rlarni ifodali o‘qing.
2. Tinchlik va ahillik ko‘chasining qaysi xislatlarini bilib oldingiz?



She’rlarni yod oling.



Oq tumshuq jasorati

Hamidulla Murodov

(Hikoya)

1

Yozning o‘rtalari. Havo dim. Yo‘l yurib charchagan Azamat o‘tovga kirib, o‘rtaga tashlangan ko‘rpachaga cho‘zildi: „Birozgina mizg‘ib olsam“. Ko‘zi ilingan ekan, o‘tov yonidagi soyada yotgan Oq tumshuqning vovullashidan sergaklanib ko‘zini ochdi. Erinibgina yon-atrofni kuzatdi – hech narsa ko‘rinmadi. „Oq tumshuq hurib, uyqumni ham beliga tepdi-da“, deb itdan o‘pkalandi ham. Keyin iltijoli ohangda „Jim bo‘l, jim, Oq tumshuqjon!“ – dedi.

Bechora it Azamat yotgan o‘tovdan biroz naridagi supacha soyasiga borib yotdi.

Lekin ko‘p yotolmadi, yana ortiga qaytdi, qattiq-qattiq irilladi. Azamat yana itni jerkib tashladi.

http://edu.portal.uz



– Irillamay nari bor, charchaganman, biroz dam olay, nari bor! Bor! Bor!..

Oq tumshuq nari ketishga ketdi-yu, ko‘p o‘tmay yana qaytdi. Qaytdi-yu, kela solib endi o‘tovning o‘zi boya etigini yechib qo‘ygan joyiga uzala tushib yotib oldi.

– Voy, ahmoq it, nari haydagan sari o‘zim tomon yaqinlashadi-ya...

U yana noiloj o‘rnidan turdi. Itni o‘zidan nariga haydashga tutindi. Keyin oyog‘iga biron narsa kiyib olish maqsadida o‘tov eshigi tomon yurdi. It ketmadi, qaytanga Azamat itni haydashga tushsa, yonida bo‘lishga intilardi.

Azamat yechgan etigini kiymoqchi bo‘lib etikka qo‘l cho‘zdi. Oq tumshuq bo‘lsa, undan

http://edu.portal.uz

oldin etikka chang solib, joyidan ancha nariga otib yubordi. Otilgan etik ancha nariga borib tushdi.

Azamat itning qilig‘i sirini tushuna olmadi, aksincha unga buyruq ohangida gapirdi.

– Oq tumshuq, bor etigimni olib kel! Tez! Oq tumshuq bo‘l...



1. Oq tumshuq nima uchun bezovta bo‘ldi?
2. Azamat itga qanday munosabatda bo‘ldi?

2



Oq tumshuq uning gapini anglaganday etik tomon yurdi. Oldiga borganda esa bir qattiq irilladi-da, etikni qo‘njidan emas, poshnasi tomonidan tishlab torta boshladi. Azamat qandaydir xavfni anglaganday bo‘ldi. „Nahotki etikda biron narsa bo‘lsa?“

Nahotki degan o‘yda u qo‘liga ukalari o‘ynab shu joyda qoldirishgan o‘zining cho‘ponlik tayog‘ini oldi. Olishga oldi, birdan ko‘zi etik og‘zidan chiqib turgan boshga tushdi: „Ilon! Ilonning boshi! Ilon...“ U hammasini tushundi. Ilon etik ichiga kirib olgan ekan. Agar Azamat etikni olib kiyganda bormi, hozir nima bo‘lishini ko‘z oldiga keltirdi. Darrov qo‘lidagi tayoq bilan etikda ko‘ringan ilon boshiga zarba berdi. Zarba qattiq bo‘lmadi chog‘i, ilon etikdan chiqib ketish uchun bemalol o‘rmalay boshladi. Bu shu joylarda ahyon-ahyonda uch-

http://edu.portal.uz

rab turadigan zaharli qora ilon edi. Azamat bu gal urishda naqd boshini mo‘ljallab urdi.

Zarba qattiq bo‘ldi shekilli, ilon darrov g‘ujanak bo‘lib olib, o‘zini himoyalashga urindi. Zarbalarning biri tegib, biri tegmasdi. Shunday bo‘lsa ham u ilonning duch kelgan joyiga urar, ilon bo‘lsa jon holatda vishillar, Azamatning zarbalaridan qochishga intilardi. Oq tumshuq bu zarbalarning biri ilonga tegib, boshqasi tegmay qolayotganini sezdimi, yo ilon qochib qolishni rejalaganini bilib qoldimi, bir sapchib, ilonning bo‘ynidan tishlab oldi. It bir necha bor bir tishlagan joyini qayta-qayta tishladi. Oxirgi tishlaganda bir siltadi-yu, o‘zidan biroz nariga otib yubordi. Ilon borib tushgan joyida ortiq qimirlamadi. U o‘lgan edi.

– E, Xudoyim-ey, bir asrabdi-da meni, – dedi Azamat it yoniga kelgach, uning boshini minnatdorlik bilan silab. – Seni jerkib-jerkib tashlaganim uchun kechir, sen... sen mening jonimni asrab qolmoqchi ekansan-a, Oq tumshug‘im! Vafodor itim!..

1. It Azamatga qanday yordam berdi?
2. Itning vafodorligini qanday baholaysiz?
3. Siz uyda qanday hayvonlar parvarish qilasiz?

http://eduportal.uz

Vatan haqida qo‘shiq

Ulug‘bek Hamdam

(Hikoya)

Qirrador do‘ppi kiyib olgan, istarasi issiq oqsoqol bolakayning qo‘lidan mahkam ushlab olgan ko‘yi mamlakatning bosh shahriga kelib tushdi. Otaxon bolajonni to‘g‘ri „Xotira“ maydoniga yetakladi. Ular sakkiz qirrali yulduz ichra gurullab yonib turgan olovni aylanib o‘tdilar-da, „Motamsaro ona“ haykali qoshida bir muddat to‘xtab, o‘yga cho‘mdilar. Bobo pichirlab duo o‘qidi, so‘ng birgalashib naqshinkor ayvon tomon yurdilar.

– Vuy, anavi kitoblarni!.. – hayratini yashirolmadi bolakay.

– Ha, ajoyib-a! – nabirasining zavqiga sherik bo‘ldi bobo ayvon devorlariga o‘rnatilgan oltinrang ulkan mis kitoblarni avaylab varaqlarkan. – Hamdamov K. 1918 – 1943, – o‘qidi bobo ovoz chiqarib. Keyin o‘qigan joyiga ko‘rsatkich barmog‘ini eltib: – Bolam, bu kishi mening otam, sening esa katta bobong bo‘ladi, – dedi.

– Bobo, nega katta bobo bu yerda, kitobning ichida? – so‘radi nabira qiziqib.

– Chunki u kishi urushda halok bo‘lgan. Vatanimizga bostirib kirgan dushmanga qarshi jangda…

http://edu.portal.uz

– Bobo, yana gapirib bering.

Bobo o‘yga toldi. Ammo hozir negadir o‘z otasi qismatini emas, balki elining uzoq tarixida yuz bergan boshqa bir voqeani hikoya qilib bergisi keldi. – O‘shanda ham ulkan yov qo‘shini yurtga bostirib kirib, qo‘li baland keladi-da, vatandoshlarimizni qamal qilib oladi. Qamal oylab davom etgani bois, ichkarida na yegulik qoladi, na ichgulik. Axiyri, yurt xoqoni xalqiga qarab: „Nima qilaylik? Taslim bo‘lib xotin-qizlarimiz jonini omon saqlab qolaylikmi yo urushib barchamiz halok bo‘laylikmi?“ deya murojaat qiladi. Ko‘pchilik bir ovozdan „Taslim bo‘laylik, yo‘qsa, qamalda ochlik va suvsizlikdan baribir o‘lib ketamiz“, deydi. Faqatgina bir temirchi yigit „Yo‘q!“ deydi. U yovga taslim bo‘lib, Vatan sha’nini bulg‘ashdan ko‘ra, uni himoya qilib o‘lishni afzal ko‘radi. Dushman qo‘shini tomon bir o‘zi jangga otiladi.

– Keyin-chi, keyin? Jangda kim yengadi bobo, kim? – shoshiradi boboni nabirasi.

– Albatta, vatandoshlarimiz, turonliklar! O‘sha temirchining ismi Turon edi. Turonliklar sen bilan mening bobolarimiz, momolarimiz bo‘lgan, bolam.

Bobo hikoyasini tugatgandan so‘ng, uzoq muddat sukutga cho‘mdi. Bolaning bo‘lsa, nigohlarida hayrat qotib qolgandi. Birpas o‘tib, bobo yana davom etdi:

http://edu.portal.uz

– Bu – Vatan haqida qo‘shiq bo‘ladi, bolam. Uni yodlab olgin-u, aslo unutmagin. Kun kelib esa, uni hikoya qilib berish gali senga yetadi.

1. Bobo nabirasiga qanday voqeani hikoya qilib berdi?
2. „Bu – Vatan haqida qo‘shiq bo‘ladi, bolam. Uni yodlab olgin-u, aslo unutmagin“, deganda nimani angladingiz?

May dasturxoni

Go‘zal Begim

Chalib nog‘ora, karnay,
Dasturxon yozibdi may.
Mehmonlari bir talay
Kelishsin-da kechikmay.

Sim qoqibdi qulupnay,
Olchaga der: „Aylanay,
Boramizmi bazmga?
Gilosxon yonimda shay!“



Tut to‘kilibdi tap-tap,
Dovcha kelibdi sakrab.
O‘rik, olma sal shoshib,
Borar daraxt, bog‘ oshib.

Bodringjon va rediska
Yo‘l yuribdi har kecha.
Sabzi, piyoz, bulg‘ori
Sabzavotlar ilg‘ori.

http://eduportal.uz

Ko‘k ko‘ylak kiygan karam
Etagi par-par biram.
Pomidor kartoshkaga
Der: „Hammadan men ko‘rkam“.

Qovun, tarvuz palakda,
Anor xola pinakda.
Uzum „oh“ tortib qo‘yar,
Mayning tirnog‘in bo‘yar.

Barcha izzat-ikromda
Qozonxon-u likopda.
Etakchasin taqib may,
Xizmat qiladi tinmay.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda mevalar, sabzavotlar, poliz ekinlari haqida nimalar deyilgan?



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh! desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman“. Bu jumla qaysi hikoyada uchraydi?
2. Ko‘chalar ta’rifi qaysi shoir ijodida uchraydi?
3. „Oq tumshuq“ hikoyasida it egasini qanday qutqarib qoldi?
4. „Chin do‘st“ mavzusida matn tuzing.



http://eduportal.uz

YOZ – O‘TADI SOZ



Yoz zavqi

Ravshan Isoqov

Yoz boshqacha-da. Nega deysizmi? Axir o‘quvchilar o‘quv yilini tugatib, eng katta ta’tilga chiqishadi-da.

Yozda ertalabdanoq quyosh qizdira boshlaydi. Kunlar uzundan uzun, tunlar bir tutam – qisqa bo‘ladi. Bog‘larda mevalar pishadi. Polizlardagi pishiqchilikni aytmaysizmi?

Yoz bizning o‘lkamizda issiq bo‘lsa ham, nega unda bolalar yozni yoqtirishadi? Chunki ta’til paytida bolalar go‘zal tabiat quchog‘ida joylashgan oromgohlarda, tog‘ yonbag‘irlarida

miriqib dam olishib, kuch-g‘ayratga to‘lib, sentabrda yana maktabga qaytishadi.

Yozda yana suvlar iliq bo‘ladi. Bunday suvlarda, ayniqsa, tog‘lardan oqayotgan zilol, muzdek suvlarda cho‘milish maza-da! Ko‘l va anhor bo‘ylari, cho‘milish havzalari sho‘x va shodon bolalarning beg‘ubor qiyqiriqlariga to‘lib ketadi. Istirohat bog‘lari har qachongidan gavjum bo‘ladi. Turli atraksionlarda uchib, muzqaymoq yeyishga nima yetsin.

Yoz oqshomlarida hech osmonga qaraganmisiz? Yulduzlarning ko‘pligini...

Bunday tunda hovlida, ariqchadan shildirab oqayotgan suvning qo‘shig‘iga quloq tutib, xayol surib yotish, shirin orzularga berilish qanday maza-ya!

1. Bolalar yozni nima uchun sevishadi?
2. Siz yozgi ta’tilni qanday o‘tkazmoqchisiz?

Hayvonot olamiga sayohat

Sharifa Salimova

Gorilla

Haybatimdan hurkadi ot,
O‘rmon ketar zirillab.
Atrofimda shimpanzelar
Xizmat qilar pirillab.
Maymunchalar sho‘xlik qilsa,
Pand-nasihat qilaman.


http://eduportal.uz

Bezorilik qilganlarning
Jazosini beraman.
U daraxtdan bu daraxtga
Qushdek uchib yuraman.
Yiqilmasin bolajon deb,
Kaftim tutib turaman.
Salqin o‘rmon, toza havo
Mening jon-u dilimdir.
Bilsang bolam, sog‘lom yashash
Eng sehrli ilmdir.



Sher

Sher tilida sherlar bilan
So‘yla, bolam.
Erkalanib shamol bilan
O‘yna, bolam.
Endi-endi kuchga to‘lib
Bormoqdasan.
Bir zarb bilan o‘ljang tortib
Olmoqdasan.
So‘zim shulki, ajdoding kim,
O‘yla, bolam
Shaqallarni o‘rmoningga
Qo‘yma, bolam.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Siz hayvonot bog‘iga borganmisiz?
3. Yovvoyi hayvonlardan qaysilarini bilasiz?

http://eduportal.uz

Ilonchaning tug‘ilgan kuni

Shukrullo Abdullayev

(Ertak)

Bugun Iloncha yana-da xushchaqchaq. Chunki bugun uning tug‘ilgan kuni. U har kungi odatiga ko‘ra, tonggi badantarbiyani boshladi. Bir u tomonga, bir bu tomonga bilanglab, „Bir-ikki, bir-ikki“, deb mashq qildi. Kulcha bo‘lib, u yoqdan bu yoqqa dumaladi. Oxirida chiniqish uchun yonidan oqib o‘tayotgan anhorga bir sho‘ng‘ib chiqdi. „Sog‘ tanda – sog‘lom aql“, deb qo‘ydi u o‘ziga o‘zi. Shu vaqt ortidan do‘stlarining jo‘r bo‘lib aytgan „Tabriklaymiz! Tabriklaymiz!“ – degan xitoblarini eshitdi. Bir vaqt ortiga qarasa, do‘stlari – erkatoy to‘tiqush Ruri-Ruri, sergap maymuncha Moli-Moli, chopqir shalpangquloq quyonvoy Chopi-Chopi, rahmdil tipratikan Tipa-Tipa, tinib-tinchimas mitti olmaxon Saki-Saki qo‘llarida mo‘jazgina sovg‘alari bilan turishardi.

– Do‘stlarim, sizlarni ko‘rganimdan bag‘oyat shodman, – deya Iloncha quvonib ketdi.

Shundan so‘ng Ilonchani tabriklash marosimi boshlandi. Do‘stlar navbat bilan kelib, Ilonchaga o‘zlarining sovg‘alarini tuhfa eta boshladilar.

– Do‘stim, – dedi to‘tiqush Ruri-Ruri gapini dona-dona qilib, – sen uchun o‘rmondagi

http://e-support.uz

kitob do‘konidan „Ertaklar olami“ni alohida tanlab oldim. Buni o‘qigach, sen ulg‘ayib, eng donishmand ilonga aylanasan.

– Rahmat, – dedi Iloncha, – qiziqarli ertaklarni juda-juda yaxshi ko‘raman. Biroq hali o‘qishni bilmayman-ku.

– Hech-qi-si yo‘o‘q! – dedi to‘tiqush Muri-Muri gapni cho‘zib gapirgancha, – senga hammamiz bir bo‘lib, o‘qishni o‘rgatamiz.

– Bu senga, – dedi sergap maymuncha Moli-Moli Ilonchaga bir juft krossovka uzatarkan.

– Zo‘r-ku, – dedi Iloncha sovg‘adan ko‘zi quvnab, – men xuddi shunaqasini orzu qilardim. Ayniqsa, bunda sport bilan shug‘ullanish yanada zavqli. Rahmat senga, do‘stim.



http://edu.portal.uz

– Mana bu ko‘zoynakni taqsang, haqiqiy ko‘zoynakli ilonchaga aylanasan va dono bo‘lib ko‘rinasan, – deya chopqir shalpangquloq quyonvoy Chopi-Chopi sovg‘asini uzatdi.

– Ko‘zoynakning chiroyliligini qara. Shu bilan birga, bu ko‘zlarimni oftobdan ham himoya qiladi, – dedi Iloncha shodon bo‘lib.

– Tug‘ilgan kuning bilan tabriklayman. Olgin-u, oldirma, nasibangni yerda qoldirma. Cho‘milib, oftobda toblanayotganingda mana bu soyabon senga rosa kerak bo‘ladi, – deya rahmdil tipratikan Tipa-Tipa Ilonchaga soyabon sovg‘a qildi.

– Mana buni haqiqiy sovg‘a desa bo‘ladi, – xursand bo‘lib ketdi Iloncha. – Bu meni yomg‘ir va qordan, quyosh nuridan himoya qiladi. Endi men soyabon ostida do‘stlarim bilan yomg‘ir yog‘ayotganda ham kitob o‘qishim mumkin.

Olmaxon Saki-Saki Ilonchaga olib kelgan qo‘lqopni tuhfa qildi:

– Do‘stim, bu qo‘lqop seni sovuqdan asraydi.

– Rahmat, kuyunchak do‘stim olmaxon, sovg‘angdan boshim ko‘kka yetdi.

Iloncha bu damlarda g‘oyat shod edi. Bunga sabab, avvalo, tug‘ilgan kuni, keyin esa barcha do‘stlari uning yonida ekanligi ko‘nglini quvonchga to‘ldirardi.

http://edu.portal.uz

Shu vaqt osmondan Turnavoyning „qur-qur“i eshitildi. U Ilonchaga tumshug‘ida kattakon bir tortni olgancha uchib kelardi.

– Iloncha, tug‘ilgan kuning qutlug‘ bo‘lsin! Oramizdagi do‘stlik aslo yo‘qolmasin, – deya Turnavoy Ilonchani qutladi.

– Rahmat, Turnavoy, – dedi Iloncha, – men bugun juda ham baxtiyorman. Chunki mehribon do‘stlarim davrasidaman. Mana qara, sen kabi do‘stlarim menga ajoyib sovg‘alarni olib kelishdi, – deya Iloncha Turnavoyga do‘stlarining sovg‘alarini ko‘rsata boshladi.



1. Ertakni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Ilonchaga do‘stlari qanday sovg‘alar olib kelishdi?



2

– Mana bu ertaklar kitobini, erkatoy to‘tiqush Ruri-Ruri tuhfa qildi. To‘g‘ri, men hozir o‘qishni bilmayman. Ammo siz – do‘stlarim, menga o‘qishni o‘rgatasiz. Shundaymi?!

– Albatta! – deyishdi barchalari jo‘r bo‘lib.

– Mana bu krossovkani sergap maymuncha Moli-Moli sovg‘a qildi. Buni men kiyib, miriqib futbol o‘ynayman. Chunki u bilan rosa tez chopaman…

Iloncha shunday dedi-yu, krossovkani oyoqlariga kiymoqchi bo‘ldi, ammo u oyoqlari yo‘q-

http://eduportal.uz

ligidan xijolat tortib qoldi. Hamma jim bo‘lib qoldi. Quyonvoy shu vaqtda Ilonchaning ko‘nglini ko‘tarishga kirishdi:

– Iloncha, to‘g‘ri, sen tez chopolmasliging mumkin. Ammo sen shiddat bilan o‘rmalaganingda, hatto mendek chopag‘onni ham ortingda qoldirib ketasan.

Barcha do‘stlar Quyonvoyni qo‘llab, Ilonchaning ko‘nglini ko‘tarishdi.

Ilonchaning bundan chiroyi yorishib ketdi.

– Quyonvoy, – dedi shunda Iloncha, – gaping to‘g‘ri. Kel, yaxshisi, shu krossovkani senga sovg‘a qilay. Sen buni kiyib astoydil shug‘ullanasan, sendan umidimiz katta, sen yugurish bo‘yicha hali o‘rmon chempioni bo‘lishing lozim.

– Mayli, sen aytgancha bo‘la qolsin, – dedi Quyonvoy. – Ammo shuni bilib qo‘y, men o‘rmon chempioni bo‘lib tanilib ketganimdan so‘ng birinchi bo‘lib senga dastxat beraman, xo‘pmi?!

Quyonvoy krossovkani kiyib, u yoqdan bu yoqqa yugurib ko‘rdi va „Juda qulay!“ – deya qo‘shib qo‘ydi.

– Mana bu ko‘zoynak Quyonvoyning sovg‘asi, – dedi xursand bo‘lib Iloncha. Shu damda u ko‘zoynakni taqmoqchi bo‘ldi. Shunda o‘ylanib qoldi: „Ko‘zoynak taqish uchun

http://eduportal.uz

quloqlar bo‘lishi kerak. Ammo menda ular yo‘q. Shu sababli uni Maymunchaga sovg‘a qilganim yaxshi“.

– Men bu ko‘zoynakni Maymunchaga sovg‘a qilaman, – dedi saxiy Iloncha. – U ko‘zoynak taqib, daraxtlar ustida o‘tiradi va uzoqdan kimlar kelayotganligini bizga aytib turadi.

Sergap maymuncha Moli-Moli ko‘zoynakni taqib u yoniga, bu yoniga, tepaga qaradi va tishlarini chiqarib, lunjini shishirib, chapak chalib kuldi.

Tipratikan unga qarab:

– Qoyil, naq professorning o‘zi bo‘lding! – dedi.

– Mana bu soyabonni Tipratikan olib keldi, ammo men uni ko‘tarib yurolmayman. Chunki astoydil o‘rmalagan chog‘imda soyabonni tutib turolmayman. Shu sababli soyabonni Olmaxonga sovg‘a qilaman. Olmaxon ba’zan yong‘oqlarni terayotganda yomg‘ir quyib yuboradi. Bu bilan u yomg‘irda ham bemalol yong‘oq teraveradi.

Olmaxon bundan xursand bo‘lib, shoxlar ustida dikir-dikir o‘yinga tusha boshladi:

– Endi mening ham soyabonim bor!

– Mana bu qo‘lqopni Olmaxon sovg‘a qildi. Buni Tipratikanga beraman. Chunki u turli

http://eduportal.uz

mevalarni o‘rmondan terib kelib, barchamiz uchun shirin murabbolar tayyorlaydi.

Unga shirinliklarni tayyorlashda mana bu kabi nozik va ixcham qo‘lqopcha kerak.

– Iloncha, aslida biz sening tug‘ilgan kuningga sovg‘alar olib kelgandik, biroq buncha-lar ko‘p hadyalar bilan uyga quvonib ketish xayolimizga ham kelmagan ekan. Aytganing-dek, sen bergan qo‘lqopcha orqali mevalardan shirin murabbolar tayyorlayman.

– Xullas, do‘stlarim, endi navbat Turnavoy olib kelgan tortga! – dedi iloncha.

Ha, bunday antiqa tug‘ilgan kunni shu vaqt-gacha hech kim ko‘rmagan ekan.

Chunki tug‘ilgan kunga do‘stiga sovg‘a ko‘-tarib borgan mehmonlar o‘z uylariga o‘zgacha tuhfalar bilan qaytibdilar. Bu kunni ko‘p yillar-dan beri o‘rmon jonzotlari bir-birlariga gapirib yurisharkan.

1. Ertakdan qanday xulosaga keldingiz?
2. Ertak qahramonlarini rasmda aks ettiring.

O‘quvchilar oromgohida

Anvar Obidjon

Bahodir dam olishga
Ketmoqda edi.
Kuchukchasi:

http://eduportal.uz

„Vov... Men ham
Boraman“, dedi.
Ola ketdi bolakay,
Do‘stini birga.
Tushda yetib borishdi
Ko‘m-ko‘k adirga.
Bahodirni e’zozlab,
Kutib olishdi.
Kuchukni ham tez kunda
Sevib qolishdi.
Chunki qo‘shiq mashq qilsa,
Bolalar agar
Akillardi jo‘r bo‘lib,
Quvnoq Olapar.
Goh hammaga qo‘shilib,
O‘ynardi futbol.
U yoki bu tomonga
Urar edi gol.
Shaxmatga ham ozmi-ko‘p
Yetardi fahmi –
Ko‘p yutqazgan bolaga
Kelardi rahmi.
Sanalardi sayilda
Jasur safboshi.
Boshqalardan qattiqroq
Edi bardoshi.
Turar edi qatorga
Tizilganda saf.

http://edu.ziyonet.uz

Ovqat haqda gap ketsa,
Yalar edi lab.
Bo‘ysunardi tartibga,
Chalinsa gorn –
Darrov so‘ri ostidan
Olardi o‘rin.
Uni maqtar edilar
Qorovul, farrosh:
– Buncha esli bo‘lmasa!..
– Bunchayam yuvosh!..
Yangi do‘stlar topib u,
Edi shod-xurram.
Afsus, o‘tib ketarkan
Tezda bir oy ham.
Ketar payti xushlashib
Qoldi bolalar:
– Seni eslab yuramiz...
– Xayr, Olapar!



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Bolalar oromgohda qanday dam oldilar?
3. Nima uchun bolalar Olaparga „Seni eslab yuramiz“, deyishdi?
4. Siz yozgi ta’tilni qanday o‘tkazmoqchisiz?



http://edu.portal.uz

MUNDARIJA

Biz buyuk yurt farzandimiz

Vatan madhi. *Orif To‘xtash* 3
Yurtim jamoli. *Dilshod Rajab* 4
Yangi uy. *Hamidulla Murodov* 6
Vatan desam... *Ulug‘bek Hamdam* 8
Opa-singil daryolar. *Go‘zal Begim* 9
Obod mahalla bo‘ylab. *Kavsar Turdiyeva* 12
Vatanni tanish. *Muhabbat Hamidova* 13
Savollarga javoblar. *Xolmurod Safarov* 15
Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi. *Xudoyberdi To‘xtaboyev* 16
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 18

Saxovatli kuz

Kuz saxovati. *Sharifa Salimova*. 19
Uzumlar oilasi. *Tolib Yo‘ldosh*. 20
Olma. *Mahmud Murodov*. 22
Fasllar. *Ravshan Isoqov*. 24
Bobur va kabutar. *(Rivoyat)*. 25
O‘qituvchining o‘gitlari. *Anvar Obidjon*. 27
Xazonchinak. *O‘tkir Hoshimov*. 28
Hosil bayrami. *Zahro Hasanova*. 30
Ilmli ming yashar. *Nurmat Maqsudiy*. 31
Oltin kuzim. *Po‘lat Mo‘min*. 33
Qizcha va qarg‘alar. *Normurod Norqobilov*. 34
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 36

http://edu.portal.uz

Maktabim – qutlug‘ makonim, Kitobim – buyuk imkonim

Kitob, mening do‘stimsan. *Zafar Diyor*. 37
Vaqting ketdi – naqding ketdi. *Kavsar Turdiyeva* 38
Donishmand quyon va kichkintoy jirafa. *Faxriddid Hayit* 42
Ona tilim. *Tursunboy Adashboyev* 43
Unutilmas bayram. *(Hikoya). Erkin Malikov* 45
Xo‘roz nega uchmaydi. *Zulfiya Mo‘minova* 46
Hisobda adashgan bola. (*Hikoya*) *Zamira Ibrohimova* 49
Chalavoyning to‘la tushi. *Olqor Damin*. 52
Jumboq hikoya. *Muhabbat Hamidova* 54
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 55

Hunar – hunardan rizqing unar

Hunarni sev. *Tolib Yo‘ldosh* 56
Bahs. *Sunnatilla Anorboyev* 57
Mohir qo‘llar qo‘shig‘i. *Tolib Yo‘ldosh* 60
Ilmning omonati. *(Rivoyat)* 61
Bordir kulol amakim. *Obid Rasul* 62
Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi? *Mirzakalon* Ismoiliy 64
O‘n tilla mukofot haqida ertak. *Anvar Obidjon* 66
G‘oz – hunaring oz. *Sobit G‘afurov* 69
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 71

Go‘zal qish manzarasi

Kumush fasl. *Zikrilla Ne’mat* 72
Qor alyori. *Dilshod Rajab* 74
Chana. *O‘tkir Hoshimov*. 75
Qish ham chiroyli. *Quddus Muhammadiy* 77
Bosh qomus kitobimiz. *Dilshod Rajab* 79
Qish ertagi. *Aziza Ahmedova* 80
Laylak qor. *Orif To‘xtash* 85

http://eduportal.uz

Qish bo‘lmasa-chi? *Yayra Sa’dullayeva* 86
Momiq qor. *Po‘lat Mo‘min* 88
Qorparcha. *Oydinniso* 89
Ayamajiz. *Qudrat Hikmat* 93
Qorboboga elektron maktub. *Zamira Ibrohimova* 94
Yangi yil archasiga. *Dilfuza Komoljonova* 96
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 97

Vatan himoyachilari

Vatanimga xizmat qilaman. *Zikrilla Ne’mat* 98
Balli buva. *Yusuf Fayzullo* 99
Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz *(Suhbat)*. 101
Sport maktabi. *Anvar Obidjon* 103
Bobonur. *Safar Barnoyev* 104
Notinch mamlakatlarda. *Zahro Hasanova* 106
Vatan himoyachisi. *Shukrullo Abdullayev* 107
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 109

Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik

„Qutadg‘u bilig“ hikmatlari 110
Jaloliddin Manguberdi. *Mirkarim Osim* 111
Buyuk bobomizning buyuk himmatlari.
Xudoyberdi To‘xtaboyev 112
Alpomishning bolaligi. *(Ertak)* 115
So‘nggi damgacha. *Abdusodiq Irisov* 117
Ibn Sinoning shogirdlari. *(Rivoyat)* 118
Bolari bilan pashsha. *Abdulla Avloniy* 120
Donolarning donosi. *Abduqodir Hayitmetov* 121
Bolam. *Berdaq* 123
Baxilning yomonligi *(Rivoyat)* 124
Lol bo‘lgan tulki. *Yamin Qurbon* 125
Sayilda. *Mirzo Karim* 126
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 127

http://eduportal.uz

Xalq ogʻzaki ijodi

Oʻyin qoʻshiqlari

Sanama 128
Chillak 128
Chittigul 129
Arra-marra. 130
Maqollar 131
Topishmoqlar 132
Qush ini. *(Rivoyat)* 133
Halollik. *(Oʻzbek xalq ertagi)* 135
Donishmand yigit. *(Oʻzbek xalq ertagi)* 137
Ahillik – ulugʻ baxt. *(Qirgʻiz xalq ertagi)* 139

Zumrad bahor nafosati

Siz bunga qodirsiz. *Yusuf Fayzullo* 141
Bahor yaqin. *Zafar Diyor* 143
Oyijonlar, onalar. *Kavsar Turdiyeva* 144
Tabiat bilan suhbat. *(Rivoyat)* 145
Bahor keldi. *Quddus Muhammadiy* 147
Varrak. *Yoʻldosh Shamsharov* 148
Soy suvi haqida ertak. *Zohir Aʼlam* 151
Bogʻim. *Habib Rahmat* 152
Beminnat yordam. *(Rivoyat)* 153
Navroʻz keldi. *Dilshod Rajab* 154
Boʻlim yuzasidan takrorlash 155

Jahon bolalar adabiyoti

Myunxauzenning boshidan kechirganlari. *Erix Raspe* 156
Moychechak. *Tavfiq Fikrat* 160
Uch aka-uka va baxt. *Ilvira Daukayeva* 161
Kasblarning rangi qanaqa? *Janni Rodari* 165
Pinokkioning sarguzashtlari. *Karlo Kollodi* 166
Anbe va Ranbe. *(Hind xalq ertagi)* 170
Bahs. *Anvarbek Duysinbiyev* 173
Mittivoy va Karlson. *Astrid Lindgren* 174

http://eduportal.uz

Dog‘da qolgan qarg‘a. *(Laos xalq ertagi)* 178
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 180

Tinchlik va do‘stlik bo‘lsin barqaror

Tilak. *Faxriddin Hayit* 181
Ko‘prik ustidagi do‘st. *Ulug‘bek Hamdam* 182
Inson insonga o‘rtoq. *Hamidulla Yoqubov* 186
Do‘stlikning bahosi. *„Tarbiya kitobi“ dan* 187
Tinchlik ko‘chasi. *Kavsar Turdiyeva* 189
Ahillik ko‘chasi. *Kavsar Turdiyeva* 189
Oq tumshuq jasorati. *Hamidulla Murodov* 190
Vatan haqida qo‘shiq. *Ulug‘bek Hamdam* 194
May dasturxoni. *Go‘zal Begim* 196
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 197

Yoz – o‘tadi soz

Yoz zavqi. *Ravshan Isoqov* 198
Hayvonot olamiga sayohat. *Sharifa Salimova* 199
Ilonchaning tug‘ilgan kuni. *Shukrullo Abdullayev* 201
O‘quvchilar oromgohida. *Anvar Obidjon* 207

http://edu portal.uz

81.2-93
O‘ 97

Umarova M.
O‘qish kitobi [Matn] : 3- sinf uchun darslik / M. Umarova, X. Xamrakulova, R. Tojiboyeva; mas’ul muharrir U. Hamdamov. 4-nashri. – Toshkent : „O‘qituvchi“ NMIU, 2019. – 216 b.

ISBN 978-9943-22-349-3

UO‘K: 373.3.016:821-82(075.2)
KBK 81.2-93

MUHABBAT UMAROVA
XURSHIDA XAMRAKULOVA
RA’NO TOJIBOYEVA

O‘QISH KITOBI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
3- sinfi uchun darslik

4-nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019

Muharrir *Z. Inyaminova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Ahrorova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018.
Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 29.04.2019. Bichimi 70×90$^{1}/_{16}$.
Kegli 14 shponli. AG Helvetika garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 15,79. Hisob-nashriyot t. 9,7.
Adadi 64 083 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy.
Shartnoma № 234 – 18

http://eduportal.uz

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

http://edu-portal.uz

– Oyi, mashina ipingizni berasizmi? – so‘radi Rashid.

Oyisi bosh chayqab jilmaydi-da:

– Burgutday qanotini kerib turishini qarang-lar. Mana buni varrak desa bo‘ladi! – deb yubordi.

Rashidning „burgut“i balandlab, asta tebra-nib uchardi. Shoxidagi qizil kokillari pirpirardi, uzun dumi u yoqdan bu yoqqa tebranar edi. Rashid „iching kuysin“ deganday, Darozga qa-rab-qarab qo‘yardi.

Rashidning varragi osmonga ko‘tarilishi bilan bolalar yugurib kelishdi. Varrakni birga uchir-dilar. Hamma bolalar xursand. Daroz-chi?

Kech kirib, qorong‘i tusha boshlaganda, bo-lalar birin-ketin varraklarini tushira boshladilar. Bugun bolalar Darozga emas, Rashidga er-gashdilar.

Rashid uchun eng quvonchlisi shu bo‘ldiki, 26-mart kuni poytaxtimizda „Varraklar bayrami“ Respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Rashid var-ragi bilan tanlovda qatnashdi. Uning varragi tanlovda birinchi o‘ringa loyiq topildi.



1. Nima uchun bolalar Rashidga ergashdilar?
2. Daroz bolaga qanday baho berasiz?
3. Rashid nimadan quvondi?

Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.



http://edu.portal.uz

Soy suvi haqida ertak

Zohir A'lam

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. U bola-chaqasi bilan tog‘ning etagiga kelib joylashibdi. Tog‘ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan sharqirab suv oqar ekan.

Dehqon darrov to‘rt tanobcha yerni haydabdi, soydan suv olib sug‘orib, ekin ekibdi. Keyin esa tog‘dagi daraxtlarni kesib, uy quribdi. Hovli tevaragini chetan devor bilan o‘rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi. Shu orada bir yil o‘tibdi.

Kelasi bahorda dehqon ekin ekib, sug‘ormoqchi bo‘lgan ekan, qarasa, soyda suv yo‘q emish. Dehqon soyga:

– Soy, menga suv ber. Ekinimni sug‘oray, – debdi.

– Men suvni senga qayerdan olib beraman? Yaxshisi, qordan so‘ra, – javob qilibdi soy.

Dehqon qorning oldiga boribdi.

– Ey, qor! – debdi. – Sen soyga suv ber. Men ekinimni sug‘oray.

Bu gapni eshitib, qorning achchig‘i kelibdi va:

– Men bu yil me'yorida yog‘dim. Lekin namni ushlab turadigan daraxtlarni o‘zing kesib ketding. Daraxt bo‘lmasa, qishda yog‘gan qor

http://edu.portal.uz

bahorda erib, oqib ketadi. Soyga suv kelmaganiga o‘zing aybdorsan, – debdi. Dehqon o‘ylab turib, qorning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Bir talay ko‘chat keltirib, tog‘ga ekibdi. Ular tezda o‘sib, katta-katta daraxtlarga aylanibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo‘yi suv oqadigan bo‘libdi. Dehqon esa xohlagan paytda ekinini sug‘orib, ulardan mo‘l hosil olib, farovon hayot kechiribdi.

1. Nima uchun soyning suvi qurib qolibdi?
2. Dehqon nimalardan suv so‘rabdi?
3. Qorning dehqonni ayblab aytgan gaplarini matndan topib, o‘qib bering.
4. Yozuvchi ertak orqali nima demoqchi?

Bog‘im

Habib Rahmat

Dunyoni bog‘ etishni
Orzu qilar odamlar.
Daraxt ekish sirlarin
O‘rgatdilar dadamlar.

O‘yib bir gaz chuqurcha
Nihol ekdim avaylab,
Parvarish qildim dildan
Unga mehrimni boylab.

Ko‘kka cho‘zib qomatin
Quloch yozar shoxlari.



http://eduportal.uz

O‘sishidan zavqlanib,
Yana mehr boyladim.

Chaman bo‘lib ko‘rindi
Har bir daraxt, har bir shox.
Ko‘ring qanday chiroyli
O‘zim bunyod qilgan bog‘.

1. She’rda qaysi fasl tasvirlangan?
2. She’rda nima haqida gap boradi?
3. Dadasi bolasiga nimani o‘rgatdi? Shu o‘rinni topib o‘qing.
4. Bola nimadan xursand bo‘lmoqda?

Beminnat yordam

(Rivoyat)

Bir kuni bog‘bon bir nechta terak ekdi. Ular tezda bo‘y cho‘zib o‘sa boshladi. Teraklarning yonginasidan tok ko‘karib chiqdi. Uning ham kundan kunga bo‘yi cho‘zilib, barglari ko‘paya bordi. Lekin tok novdasi nimjon bo‘lganligi uchun u yer ustida yotardi. Teraklardan birining tokka rahmi kelib, uning poyasini shoxiga ilib yerdan ko‘tardi. Tokning bag‘riga shamol tegib, yanada tezroq o‘sa boshladi. Tok novdasi o‘sgan sari terakka ko‘proq chirmashar edi. Tez orada ular qalin do‘st bo‘lib qoldilar. Bir kuni bog‘bon kelib, terakka chirmashib o‘sayotgan tokni ko‘rdi va: „O‘zi chiqqan tok bu yil mevaga kiribdi. Terakka qo‘-

http://edu.portal.uz

shilib balandlab ketsa, mevasini yig‘ish qiyin bo‘ladi“, – deb terakning yuqori shoxlarini kesib qo‘ydi. U bilan bir kunda ekilgan teraklar unga qarab:

– Mana shu tokka o‘ralashib, pastda qolib ketding, tashla uni, bizga o‘xshab yuqoriga intil, – deyishdi. Lekin terak do‘stini tashlab o‘sishga ko‘zi qiymadi. Chunki uning bo‘yi baland bo‘lmasa ham, do‘stiga va odamlarga foydasi tegayotganidan xursand edi.

Ey farzand, shunday odamlar borki, o‘zlari ko‘zga tashlanmasalar-da, qo‘ldan kelgan barcha yordamlarini ayamaydilar.



1. Terak va tok qanday do‘stlashdi?
2. Siz bu do‘stlikka qanday baho berasiz?
3. Daraxtga chirmashib o‘sadigan qanday o‘simliklarni bilasiz?



Navro‘z keldi

Dilshod Rajab

Navro‘z keldi, xush keldi,
Dala to‘la ish keldi.
Dehqon bobo qalbiga
G‘ayrat keldi, jo‘sh keldi.

Jilg‘a chopar chuldurab,
Bulut goho guldurab,
Yomg‘ir quyar shovullab,
Lola chiqar lovullab.

http://edu.portal.uz

Qirda yonar lolalar,
Qirga chopar bolalar.
Sho‘x yellarga soch chayib,
Birga chopar bolalar.



Qanot yozgan burgutday
Kengaygan qir-dalalar.
Ertaklarda topilmas
Bu ajoyib pallalar!

Navro‘zi olam keldi,
Baxtimiz chaman keldi,
Elga ham bayram keldi,
Dilga ham bayram keldi!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda bahor faslining qaysi davri tasvirlangan?
3. „Navro‘z keldi“ she’ri asosida rasm chizing. She’rni yod oling.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limdagi qaysi asarlarda bahor manzarasi tasvirlangan?
2. Tabiatga bo‘lgan munosabatingizni bildiring.
3. Bahorgi milliy o‘yin va an’analar haqida aytib bering.
4. Bahor kelishi bilan dala va bog‘larda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
5. „O‘lkamizda bahor“ mavzusini og‘zaki bayon qiling.



Myunxauzenning boshidan kechirganlari

Erix Raspe

1. Oyga birinchi sayohat

Turkiyada poliz ko‘katlaridan bo‘lgan bir o‘simlikni eslab topdim. U juda tez o‘sar, hatto ba’zan xuddi osmongacha yetar edi.

Bu Turkiya loviyalari edi. Bir daqiqa ham hayallamasdan, shu loviyalardan birini ekdim. U shu ondayoq o‘sa boshladi.

U faqat yuqoriga qarab o‘saverdi va tez kunda Oyga chirmashdi!

– Qoyil!!! – dedim-da, shoxlariga tirmashib, yuqoriga chiqaverdim.

Bir soatdan keyin o‘zimni Oyda ko‘rdim. Oyda kumush boltamni ko‘p axtardim, uni topish oson bo‘lmadi. Oy ham kumush, bol-

http://edupoint.uz

tacha ham kumush rangda bo‘lgani sababli kumushda kumush ko‘rinmas ekan. Ammo axiyri boltachani bir to‘da chirigan poxol ustidan topdim. Xursand bo‘lib uni kamarimga qistirib oldim va Yerga qaytmoqchi bo‘ldim. Biroq ish boshqacha bo‘lib chiqdi: loviyaning poyasi quyosh issig‘idan qovjirab, uzilib-uzilib ketibdi. Buni ko‘rgach, qattiq xafa bo‘ldim.

Nima qilish kerak? Nima qilsam ekan? Nahotki men Yerga qaytolmasam? Nahotki umrim boricha Oyda qolsam? Voy, yo‘q! Aslo bo‘lmaydi! Noiloj poxol yoniga o‘tirib olib, undan arqon yasay boshladim. Arqon ko‘ngildagidek uzun bo‘lib chiqmadi, lekin nachora! Chap qo‘limga boltachani, o‘ng qo‘limga arqonni ushlaganim holda sirg‘alib, pastga tushaverdim.

Tez orada arqon ham tugab qoldi, men bo‘lsam osmon bilan yer o‘rtasida, havoda osilib qoldim. Bu juda qo‘rqinchli hol edi. Lekin pisand qilmadim. Uzoq o‘ylab turmasdan, boltachani oldim va arqonning pastki uchiga mahkam yopishib turib, yuqorigi uchini kesdim va uni pastki uchiga uladim. Shunday qilib, yerga yaqinlashdim. Lekin yerga tushishga hali ham anchagina masofa bor edi.

Arqonning yuqori uchini ko‘pgina marta kesib, pastki uchiga bog‘lashga to‘g‘ri keldi.

http://edu.ziyonet.uz

Nihoyat, shunday pastladimki, hatto shahardagi uylarni va saroylarni ham ko‘ra oldim. Yerga hammasi bo‘lib uch yoki to‘rt mil[1] qolgan edi.

Birdan arqon uzilib ketdi. Hash-pash deguncha yerga chirpirak bo‘lib tushdim. Bir vaqt qarasam, yerga eng kamida yarim mil botib ketibman.

O‘zimga kelgandan keyin ko‘p vaqtgacha bu chuqurdan qanday chiqishni bilolmay, esankiradim. Kun bo‘yi hech narsa yemay, ichmay o‘yladim. Nihoyat, o‘ylab topdim, tirnoqlarim bilan pillapoyachalar yasab, yer ustiga bazo‘r chiqib oldim. Ha, Myunxauzen hech qayerda qolib ketmaydi.



1. Ertakni o‘qing. Myunxauzenning topqirligiga e’tibor bering.
2. Shu voqeaga o‘xshash birorta ertakni bilasizmi?



2. Otlar qo‘ltiqda, arava yelkada

...O‘sha yili qish juda qattiq keldi. Hatto quyosh ham shamollab, yuzlarini sovuqqa oldirdi, uning ustiga tumov ham bo‘ldi.

Quyosh shamollaganidan keyin, undan issiq o‘rniga sovuq keldi. Men o‘z foytunimga[2] o‘ti-

[1] **Bir mil** – 2 kilometr chamasidagi masofa.

[2] **Foytun** – to‘rt g‘ildirakli, ochilib-yopiladigan soyabonli yengil arava.

http://eduportal.uz

rib, naqadar sovqotganimni bir ko‘rsangiz edi. Ko‘cha tor, ikki tomoni devor. Shu tor ko‘-chada o‘zimiz arang ketayotgan bir paytda, to‘satdan oldimizdan biror arava yoki foytun chiqib qolib, ishni pachava qilib yurmasin deb, foytunchi xizmatkorimga surnay chalishni buyurdim. Xizmatkor surnayni qo‘liga olib, kuch bilan puflay boshladi. Ammo surnaydan hech bir tovush chiqmadi. Tovushlar sovuqda muz-lab qolgan ekan. Holbuki, biz tomonga bir foytun kelmoqda edi.

Hech narsa qilib bo‘lmadi. Men darrov tu-shib, otlarni foytundan chiqardim. Keyin foy-tunni yelkamga ko‘tarib oldim. U juda og‘ir edi. Bir sakradim-da, devorning narigi tomo-niga oshib tushdim. Yana bir sakrash bilan foytunni qaytadan yo‘lga olib tushdim. Nafa-simni biroz rostlagach, otlar yoniga qaytib keldim, ularni ikkala qo‘ltig‘imga oldim va ikki sakrash bilan arava yoniga olib keldim. Bu sakrash vaqtida otlardan biri zo‘r berib te-pindi.

Ha, juda noqulay bo‘ldi. Ammo men uning keyingi oyoqlarini kastumimning cho‘ntagiga solib qo‘ydim, so‘ngra ot jonivor noiloj jimgina turaverdi. Keyin otlarni aravaga qo‘shib, yo‘lga chiqdim va tez fursatda bir musofirxona[1]ga kelib tushdim.

[1] **Musofirxona** – mehmonxona.

http://ehuborat.uz

1. Ertakning ikkinchi qismini o‘qing.
2. Siz Myunxauzenning o‘rnida qanday yo‘l tutar edingiz?

Moychechak

Tavfiq Fikrat

Bahor kelsa bezanadi
Tepalarning yaydoqlari.
Zumrad kabi o‘tloqlari
Kelin bo‘lib yasanadi.
Kelin yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.

Dalalarda bir yoqimli
Sariq, qizil, gunafsharang
Gullar ko‘payar rang-barang,
Lekin menga eng go‘zali
Kular yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.



Yaproqlari jimjimali,
Bu ham ayri bir go‘zallik.
Tani paxmoq, bo‘yni nozik,
Ham go‘zal, ham karashmali.
Kelin yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.

Shamol esar: goh u yonga,
Goh bu yonga egiladi.
Teng boradi, teng keladi,

http://eduportal.uz

Rohat berarlar insonga.
Kular yuzli moychechaklar,
Oltin ko‘zli moychechaklar.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda qaysi fasl tasvirlangan?
3. Moychechakka shoir qanday ta’rif beryapti?

Ana shu o‘rinlarni topib o‘qing.



She’rni yod oling.



Uch aka-uka va baxt

Ilvira Daukayeva

1

Ajoyib bahor kunlaridan biri edi. Uch aka-uka yam-yashil o‘tloqdan yurib borar edilar. Nogahon ovoz eshitildi.

– Yordam! Yordam beringlar! Men bu yerda, chuqurdaman! Yordam beringlar! – kimdir yordam so‘rab chaqirayotgan edi.

Aka-ukalar chuqurga tomon yugurdilar, ular chuqur tubida nur sochayotgan, ajoyib, biroq qo‘rqqan va qiynalgan yuzni ko‘rdilar.

– Bu yer chuqur va kir ekan! Dahshat! – jirkanib dedi katta aka.

– Ko‘zi qayerda ekan, shu yerga ham tushadimi? – dedi o‘rtancha ensasini qashib.

– Shunday bo‘lib qoldi, bir necha kundan beri shu yerdaman, iltimos, qutqaringlar... – dedi u.

http://eduportal.uz

– Sendan nur chiqyapti, kimsan o‘zi? – dedi kenjatoy.

– Men Baxtman! – dedi u.

– Baxt?.. Ahmoqlik! Baxt chuqurga tushib ketmas edi, xa-xa-xa, – kuldi katta aka.

– Yoki o‘zi chiqa olardi! – ishonmay to‘ng‘illadi o‘rtanchasi.

– Men bahor shabadasi bilan uchayotgan edim, birdan menga yovuz to‘fon yopirildi. Meni har tomonga otdi, keyin mana shu chuqurga tashlab yubordi.

– Bechoragina... Men seni tortib olaman, – dedi kenjatoy va qo‘lini Baxtga cho‘zdi.

Katta akalar ishonmadilar va unga tashlanib, yo‘lini to‘sdilar:

– Oldin Baxt ekanini isbotlasin! – baqirdi o‘rtanchasi.

– Ha, isbotla! Balki shunaqa deb aldayotgandirsan?! – talab qildi katta aka.

– Istagan narsangni tila, men uni bajaraman! – dedi ishonch bilan Baxt.

– Negadir ishonmayapman, – shubhalandi katta aka.

– Tilak tilang, ko‘rasiz! – dedi ularga ishonch bilan Baxt.

1. Baxt bilan aka-ukalar qay tarzda uchrashdilar?
2. Aka-ukalar haqida o‘z fikringizni bildiring.

http://eduportal.uz

2

– Unda yaxshi! Unda... men yaxshi ovqat pishiradigan xotinga uylanmoqchiman... Nima qilibdi? Men mazali ovqat yeyishni yaxshi ko‘raman, – dedi katta aka.

– Shunday bo‘lsin! Tilaging bajo bo‘ldi! – dedi Baxt.

– Siz meni qidiryapsizmi, azizim? Men keldim.

Aka-ukalar ovoz kelgan tomonga qarashdi. Lo‘ppi yuzli qiz katta akaga tabassum bilan qarab turgan edi.

– Yuring uyga, tushlik tayyor, xuddi siz yaxshi ko‘rganingizdek tayyorlab qo‘ydim.

Katta aka hamma narsani unutib, qizning qo‘lidan tutib, uyiga qarab ketdi...

– Unda menga ham... ko‘p tilla, juda ko‘p oltin bo‘la qolsin! – hiringladi o‘rtanchasi.



http://edu.portal.uz

– Shunday bo‘lsin! Tilaging bajo bo‘ldi! – dedi Baxt.

– Birdan osmondan tillalar yog‘ila boshladi. Aka-ukalar oltin yomg‘iridan zo‘rg‘a o‘zlarini chetga oldilar.

– Ajoyib-ku! Shuncha oltin! Bular mening oltinlarim! – quvonib ketdi o‘rtanchasi. – Nariroq tur, xalaqit berma!

Oltinlarni olib, yugurib ketdi. Kenjatoy uning izidan qarab qoldi. Keyin chuqur chetiga bordi va Baxtga qarab, dedi:

– Mening qo‘limni tut, men seni tortib chiqaraman!

Biroq Baxt uning qo‘lidan tutishga shoshmadi va ishonmay so‘radi:

– Sen mendan nimani tilagan bo‘larding?

– Xudoga shukur, menda hamma narsa bor. Senga nima kerak?

– Meni bu yerdan chiqar, men qiynalib ketdim.

Kenjatoy qo‘lini cho‘zib, Baxtni tortib oldi.

– Senga katta rahmat. Men bu yerda qolib ketaman deb qo‘rqqan edim, – dedi Baxt va yorqin nurlar bilan tovlanib, yer yuziga baxt socha boshladi.

Kenjatoy ketmoqchi bo‘lib turganida, Baxt undan so‘radi:

– Sen qo‘rqmas, dovyurak, oliyjanobsan. Har doim yoningda yurishimga ruxsat berasanmi?

http://eduportal.uz

– Ha, albatta, men juda ham xursand bo‘laman, – javob berdi kenjatoy.

Endi kenjatoy va Baxt ajralmas, qadrdon bo‘lib qolgan edilar.



1. Baxt nima uchun kenja ukani savolga tutdi?
2. Baxt boylik bilan o‘lchanadimi?



Kasblarning rangi qanaqa?

Janni Rodari

Har kasbning o‘zgacha, farqli rangi bor,
Mana ko‘ring, novvoy – oppoq, xuddi qor.

Sochlari oq uning, qosh, kiprigi oq,
Ertalab qushlardan turar oldinroq.

O‘tyoqarning rangi qora-quradir,
Bo‘yoqchining rangi ola-buladir.

Zavodga kiring-da, ishchiga qarang:
Uning ish kiyimi ko‘kday havorang.

Ishlovchining qo‘li moyli, sap-sariq.
Tekinxo‘rning qo‘li rangsiz, op-oriq.

Barmoqlari nozik, belgi yo‘q biron,
Na moy yuqi bor-u, na qurum-qatron.

Sevinmang terisi oq deb bu ora,
Ularning ishlari juda qop-qora.

http://edu.portal.uz

1. Shoir kasblarning rangini qanday ta’riflayapti?
2. Shoir tekinxo‘rni kim deb atayapti?

Pinokkioning sarguzashtlari

Karlo Kollodi

(Ertak)

1

Bor ekan-u yo‘q ekan, bir g‘o‘la bo‘lgan ekan. G‘o‘la bo‘lgandayam unaqangi asil nav daraxtning g‘o‘lasi emas, shunchaki o‘tinbop bir g‘o‘la ekan.

Kunlarning birida o‘sha yog‘och g‘o‘la bir keksa duradgorning uyiga tushib qolibdi. Bu duradgor cholning ismi Antonio bo‘lsa ham, odamlar uni „Usta Olcha“ deb atashardi. Nimaga desanglar, burnining uchi g‘arq pishgan olchaga o‘xshab, doim qip-qizil, yaraqlab turardi.

Usta Olcha g‘o‘lani ko‘rib, juda ham xursand bo‘ldi.

– Juda vaqtida ko‘rib qoldim-da, bu g‘o‘lani. Endi undan stolga oyoq yasayman, – dedi. Shunday dedi-yu, ishga kirishdi. U g‘o‘lani po‘stloqdan tozalamoqchi bo‘lib, qo‘liga o‘tkir boltasini oldi. Shu payt g‘o‘la ichidan allakimning yolvoruvchi ovozi eshitildi:

– Voy, urmang meni!

http://edu.portal.uz

Usta Olchaning qay ahvolga tushganini ko‘z oldingizga keltirayotgan bo‘lsangiz kerak. U tamoman esankirab qoldi. Tovush qayoqdan kelganini bilish uchun ustaxonaning har tomoniga ko‘z yugurtirib chiqdi. Biroq ustaxonada hech zog‘ yo‘q edi.

– Haa, bo‘ldi, tushundim, – deb hiringladi u. – Qulog‘im shang‘illagan bo‘lsa kerak. Qani, ishga kirishaylik!

Shundan keyin u yana boltani qo‘liga oldi-yu, g‘o‘lani chopdi.

– Voy, og‘ritvordingiz-ku! – deb chinqirdi boyagi tanish ovoz. Usta Olcha uchun bu dahshatning o‘zginasi edi. Qo‘rqqanidan og‘zi lang ochilib qoldi, tili iyagigacha osilib tushdi. Birozdan keyin o‘ziga keldi.

– Bo‘ldi, tushundim, – dedi qo‘rqoqligidan xijolat bo‘lib. – Qulog‘im shang‘illaydigan bo‘lib qolgan. Qani, ishga!

Usta g‘o‘lani silliq qilib randalash niyatida boltani chetga qo‘yib, qo‘liga randa oldi. Lekin randani g‘o‘la ustida yurgizishi bilanoq yana qulog‘iga o‘sha chiyildoq ovoz eshitildi:

– Vuy, tegmang axir menga. Hamma yog‘imni qitiqlab tashladingiz-ku!

Bu gal usta Olcha xuddi yashin urgandek „gurs“ etib yerga yiqildi. Birozdan keyin hushiga kelib, ko‘zini ochsa, hali ham yerda cho‘zilib yotibdi.

http://edu.portal.uz

Afti jin chalgandek qiyshayib ketgan, burnining to‘q qizil uchi qo‘rqqanidan to‘q zangori rangga kirgan edi.



1. Usta Olcha kim edi?
2. Yog‘och g‘o‘la bilan qanday hodisalar ro‘y berdi?



2

Shu mahal eshik taqillab qoldi...

– Kiravering, – dedi duradgor zo‘rg‘a, lekin o‘rnidan turishga majoli yetmadi.

Ustaxonaga Jepetto ismli bir odam kirdi. Qo‘shni bolalar bu cholning jig‘iga tegish uchun unga „Zog‘ora non“ deb laqab qo‘yishgan edi. Chunki uning boshidagi sap-sariq parigi zog‘ora nonga juda ham o‘xshab ketardi.

– Salom, usta Antonio, – dedi Jepetto. – Nega yerda o‘tiribsiz?

– Chumolilarga to‘rt amaldan dars beryapman.

– Omad tilayman!

– Xush ko‘rdik, Jepetto amaki.

– Huzuringizga bir iltimos bilan keldim.

– Bemalol so‘rayvering, – deb javob berdi duradgor o‘rnidan turarkan.

– Bugun ertalab miyamga bir fikr kelib qoldi.

http://edu.portal.uz

– Qani, eshitaylik.

– Bironta yog‘och topib, undan alomat yog‘och odam yasasam chakki bo‘lmasdi. U yog‘och odam raqs tushishni, qilichbozlik qilishni, umbaloq oshishni bilishi kerak. Shunga siz nima deysiz?

– Barakalla, Zog‘ora non! – deb chinqirdi boyadan beri allaqayoqdan eshitilayotgan haligi ovoz. Jepetto amaki g‘azabdan achchiq qalampirday qizarib ketdi, jahl bilan duradgorga o‘shqirdi:

– Meni haqorat qilishga qanday jur’at etdingiz?

– Kim sizni haqorat qildi?

– Siz meni „Zog‘ora non“ deb atadingiz.

– Men aytganim yo‘q u so‘zni.

– Aytdingiz!

– Yo‘q!

– Aytdingiz!

Ular qizishgandan qizishib, bir-birlariga yopishib goh tishlasha, goh timdalasha boshladilar.

Nihoyat, jang tugab, ular bir-birlaridan ajralishganida Jepettoning sariq parigini usta Antonio changallab olgan, duradgorning oq parigini esa Jepetto tishlab turar edi.

– Ber parigimni! – deb baqirdi usta Antonio.

http://eduportal.uz

– Sen ham ber parigimni, keyin yarashamiz.

Chollar pariklarini ayirboshlab olishgach, bir-birlarining qo‘lini siqishib, umrbod qalin do‘st bo‘lib qolishga so‘z berishdi.

Shundan keyin Jepetto shumtaka g‘o‘lani qo‘ltig‘iga qistirib, oqsoqlagancha uyiga jo‘nadi.



1. Buratino haqidagi filmni ko‘rganmisiz? Pinokkio qaysi jihati bilan Buratinoni eslatadi?
2. Albatta, „Pinokkioning boshidan kechirganlari“ kitobini olib o‘qing. Uning boshqa sarguzashtlarini ham bilib olasiz.



Anbe va Ranbe

(Hind xalq ertagi)

1

Sichqoni ko‘p bir xonadonda qari mushuk yashar ekan. U sichqon tutishga yaramay qolibdi. O‘ylab-o‘ylab buning chorasini topibdi. Bir kuni u sichqonlarni chaqirib shunday debdi:

– Sichqonlar, hoy sichqonlar, men sizlarni nega chaqirganimni bilasizmi?

To‘g‘risini aytsam, shu paytgacha men sizlarga doim yomonlik qilardim va ranjitib kelardim. Buni bo‘ynimga olaman. Endi o‘z qilmishimdan uyalyapman. Xullas, sizlarga bo‘lgan munosabatimni o‘zgartirishga ahd qildim. Endi mendan qo‘rqmanglar. Faqat sizlardan

http://eduportal.uz

birgina talabim bor: har kuni ikki mahal saf tortib oldimdan o‘tib turasizlar. Men sizlarga tegmaslikka so‘z beraman.

Mushukning va’dasini eshitib, sichqonlar o‘zlarida yo‘q quvonishibdi va uning shartiga darrov rozi bo‘lishibdi. Mushuk uyning bir burchagiga joylashib olibdi.

Sichqonlar ta’zim qilib, uning oldidan bitta-bitta o‘ta boshlashibdi. Nihoyat, uning oldidan oxirgi sichqon ta’zim qilib o‘tib borayotgan ekan, mushuk shappa uni tutib olibdi-da, paqqos tushiribdi.

Avval o‘tib ketgan sichqonlar hech narsani sezishmabdi. Sichqonlar shu tariqa kamayib boraveribdi.



1. Mushuk qanday hiyla ishlatdi?
2. Sichqonlar qanday kamayib bordi?



2

Sichqonlar orasida Anbe va Ranbe degan ikki do‘st bor ekan. Ular mushukning hiylasini sezib qolib, shunday qarorga kelishibdi: bundan keyin mushukning oldidan o‘tayotganda Ranbe safning oldida, Anbe esa oxirida o‘tadigan bo‘libdi.

Safning boshida borayotgan Ranbe mushukka chuqur ta’zim bajo qilar ekan, bor ovozi bilan:

– Do‘stim, Anbe, qayerdasan? – deb qichqiribdi.

http://eduportal.uz



Safning oxirida kelayotgan Anbe unga:

– Shu yerdaman, do‘stim Ranbe, – deb javob qilibdi.

Sichqonlarning hammasi mushuk oldidan o‘tib bo‘lmaguncha, ular bir-birlari bilan shu tariqa xabarlashib turishibdi.

Mushukning hiylasi ish bermaganidan, och qola boshlabdi. Fig‘oni oshgan mushuk shart-ta Anbega tashlanib qolibdi. Biroq u ham anoyi emas ekan. Birpasda ko‘zdan g‘oyib bo‘-libdi.

Qolgan sichqonlar ham bir zumda inlariga kirib yashirinishibdi. Mushukning aldoqchi ekani oshkor bo‘lganidan so‘ng u birorta sichqon tuta olmay, ozib-to‘zib ketibdi.

1. Sichqonlar qanday chora topdilar?
2. Anbe va Ranbe ishtirok etgan o‘rinlarni rollarga bo‘lib o‘qing.

Bahs

Anvarbek Duysinbiyev

Bir kun daryo bo‘yida
Qoq peshin payti
Ikki do‘st o‘tirardi,
Safsata aytib.
Olis tog‘larga qarab,
O‘tirgan yerdan
Gap talashib qolishdi
Ikkovi birdan:
– Alp bo‘lsam, anov tog‘ni, –
Deb qo‘ydi Sanjar, –
Cho‘lga surib qo‘yardim
Yelkamda dangal.
– Men esa, – dedi O‘ljas
Do‘st-birodar –
Darhol eltib qo‘yardim
Tog‘ni joyiga.
Sanjar dedi:
– Bir tepsam
Hovling, uyingni,
Topolmay qolar eding
Ko‘cha-ko‘yingni.
O‘ljas dedi: qaytadan
Qurar edim uy.
Hovlimda dang‘illatib



http://eduportal.uz

Qilar edim to‘y.
– Shunaqami? – der Sanjar.
– Shunday, – der O‘ljas,
Jangga aylanar janjal,
Olovlanar bahs.
Yoqalashib ketishdi,
Olishib jiqqa.
So‘ng ikkovi dumalab,
Tushdi ariqqa.
Shu taxlit suv bo‘yida,
Qoq peshin payti
Ikki do‘st uylariga
Shalvirab qaytdi.
Ikkovi ham alp emas,
Ojiz, po‘k edi.
Sal-pal kuchi bo‘lsa ham
Aqli yo‘q edi.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Maqtanchoqlikning oqibati nimaga olib keldi? Kamtarlik haqida maqollar ayting.



Mittivoy va Karlson

Astrid Lindgren

– Xo‘sh, endi bir ko‘ngilni yozaylik, – dedi Karlson bir zumdan keyin. – Kel, avval, tomma-tom chopamiz.

Mittivoy jon deb rozi bo‘ldi. U Karlsonning qo‘lidan ushlab oldi, ikkovi tomga chiqishdi.

http://eduportal.uz

– Bezorilarni ko‘rishni istaysanmi? – deb so‘radi Karlson Mittivoydan, sal nafaslarini rostlab olishgach. – Boloxonalarimning birida ikkita zo‘r, ashaddiy bezori turadi.

Karlson ko‘rsatgan boloxona derazalaridan g‘ovur-g‘uvur, kulgi, qiyqiriq eshitilardi.

– Ho, ular kayf-safo qilishyapti! – dedi Karlson. – Yur, nimani ermak qilishayotganini borib ko‘ramiz.

Karlson bilan Mittivoy yana bo‘g‘ot yoqalab emaklab ketishdi. Ular boloxonaga yetishganda, Karlson boshini ko‘tarib, derazaga qaradi. Derazaga parda osib qo‘yilgandi. Biroq Karlson pardadan bir teshik topdi, o‘sha teshikdan hamma narsa ko‘rinardi.

– Bezorilarnikida mehmon bor ekan, – deb shivirladi Karlson. Mittivoy ham teshikdan qaradi. Xonada ko‘rinishi bezoriga o‘xshagan ikki odam bilan yuvosh, yoqimtoy yigit o‘tirardi.

– Bilasanmi, nima gap bor? – deb shivirladi Karlson. – Menimcha, bezorilarning niyati buzuq, ular biror xunuk ish qilishmoqchi. Lekin biz ularga xalaqit beramiz...

Karlson teshikdan yana bir bor qaradi.

– Garov o‘ynaymanki, ular qizil galstuk taqqan yigit bechorani shilishmoqchi!

Bezorilar bilan galstuk taqqan yigit deraza oldidagi stolcha atrofida ovqatlanib o‘tirishardi.

Bezorilar o‘qtin-o‘qtin mehmonning yelkasiga qoqib qo‘yishardi.

http://eduportal.uz

– Omading bor ekan, yigit, Fille bilan meni uchratib qolding, – dedi Rille.

– To‘g‘ri, Rille bilan meni uchratib qolmaganingda, bilmadim, holing nima kechardi, – dedi Fille ismli yigit.



1. Karlson va Mittivoy qayerga bordilar?
2. Rille va Fille kim edi?



2

Keyin Fillening bir ishini ko‘rib, Mittivoy hang-mang bo‘lib qoldi: Fille Oskarning shimining cho‘ntagiga qo‘lini solib, hamyonini olib o‘z shimining orqa cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

Oskar hech nimani sezmay qoldi. Chunki xuddi shu payt Rille uni quchoqlab olgan edi. Rille quchog‘ini yozganda, uning qo‘lida Oskarning soati paydo bo‘ldi. Rille soatni shimining orqa cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Oskar buni ham sezmadi.

Biroq tomda yashovchi Karlson semiz va do‘mboq qo‘lini parda tagiga ehtiyotlik bilan suqdi-da, Fillening cho‘ntagidan hamyonni olib qo‘ydi. Fille ham hech nimani sezmadi. Keyin Karlson yana do‘mboq qo‘lini parda tagiga suqib, Rillening cho‘ntagidan soatni oldi.

Rille, Fille va Oskar biroz gaplashib o‘tir-

http://edu.ortal.uz

ganidan so‘ng, Fille cho‘ntagiga qo‘lini solib ko‘rsaki, hamyon yo‘q. U Rillega g‘azab bilan qaradi-da, shunday dedi:

– Menga qara, Rille, yur tashqariga chiqib kelaylik. Ikkovimiz gaplashib olishimiz kerak.

Xuddi shu payt Rille ham qo‘lini cho‘ntagiga soldi, qarasaki, cho‘ntagida soat yo‘q. Endi u ham Fillega jahl bilan tikildi-da:

– Yur! Mening ham senga aytadigan gapim bor! – dedi.

Oskar yolg‘iz o‘zi zerikib dahlizga chiqdi.

Karlson derazadan lip etib sakrab tushdi-da, hamyonni chinni idishga solib qo‘ydi. Soatni esa lampaga ilib qo‘ydi. Fille, Rille va Oskar xonaga kirishlari bilan soatni ko‘rishdi. Biroq Karlsonni payqashmadi. Chunki u dasturxon yozilgan stol tagiga kirib olgandi. Mittivoy ham stol tagida edi.

– Qaranglar, soatim lampada osilib turibdi-ya, – dedi Oskar hayron bo‘lib. – Tavba, u yoqqa qanday ilinib qoldi?

U lampa oldiga borib, soatni oldi-da, kamzulining cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

– Iye, hamyonim kosaning ichida, rost, qaranglar-a! – deya yana qichqirib yubordi Oskar kosani ko‘rsatib. – Juda qiziq bo‘ldi-ku.

Rille bilan Fille Oskarga hayron bo‘lib qarab qolishdi.

http://edu.gov.uz

Karlson bilan Mittivoy qilgan ishlaridan qotib-qotib kulishardi.



1. Mittivoy nimaga guvoh bo‘ldi?
2. Karlson qanday yo‘l tutdi?
3. Ertak qahramonlariga munosabat bildiring.



Dog‘da qolgan qarg‘a

(Laos xalq ertagi)

Bir kuni Qarg‘a barglar orasida mudrab yotgan Chigirtkani ko‘rib qolibdi. Endi yeyman deb, cho‘qilamoqchi bo‘lib turganda, Chigirtka ko‘zini ochibdi va boshini ko‘tarib Qarg‘aga:

– Hurmatli Qarg‘a, malol kelmasa, bir-ikkita topishmoq aytsam, unga javob bersangiz, keyin meni yesangiz, – debdi.

Qarg‘a qag‘illab boshini chayqab:

– Yaxshi! Yaxshi! Faqat imillamasdan tezroq ayt topishmog‘ingni, – debdi.

Chigirtka unga:

– Hurmatli Qarg‘a, ayting-chi, dunyoda eng o‘tkir narsa nima? – debdi.

– O‘ylab o‘tirishning hojati yo‘q. Qarr! – xursand bo‘lib ketibdi Qarg‘a. – Bu – yoyning uchi.

– Afsuski, topa olmadingiz, – debdi Chigirtka. – Ayting-chi, dunyoda nima tez yuradi?

– Qarr! Qarr! Ikki g‘ildirakli arava! Ikki

http://edu.portaluz

g‘ildirakli poyga aravasi! – suyunib qichqira ketibdi Qarg‘a.

– Yo‘q, yana topolmadingiz. Endi ayting-chi, dunyoda eng kuchli nima?

– Yo‘lbars! Qarr, qarr!

– Hecham-da! Eng og‘iri-chi?

– Yer! Bizning yer! – jahli chiqib qag‘illabdi Qarg‘a.

– Yo‘q-yo‘q! Boshqa narsa, – e’tiroz bildiribdi Chigirtka.

Qarg‘a topishmoqni topolmaganidan, Chigirtka juda xursand bo‘libdi. Qarg‘aning esa jahli chiqibdi. Ular qozining huzuriga borishibdi. Avval Qarg‘a qoziga hammasini so‘zlab beribdi. Navbat Chigirtkaga kelibdi. U:

– Muhtaram qozi! Qarg‘a meni yemoqchi edi. Men unga: „Agar topishmoqlarimni topsangiz, yeyavering“, – dedim. Ammo Qarg‘a



http://edu.portal.uz

javob topa olmadi. Axir dunyoda hamma narsadan o‘tkir – aql, tezdan tezi – fikr, eng kuchli narsa – himmat va halollik, og‘irdan og‘iri – jinoyatchining qalbi ekani ma’lum-ku. Iltimos qilaman, muhtaram zot, endi adolat qilib, kim haq, kim nohaqligini ayting, – debdi.

Qozi biroz o‘ylanib turibdi-da, keyin boshini silkitib debdi:

– Chigirtka haq, Qarg‘a, siz yutqazdingiz.

Shunday qilib qarg‘a dog‘da qolibdi.



1. Ertakni ifodali o‘qing.
2. Chigirtka bergan savollarga yana nima deb javob berish mumkin?
3. Qarg‘a nima uchun dog‘da qoldi?



O‘tirishi tulkiday,
O‘t yeyishi yilqiday. *(Chigirtka)*



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limdagi qaysi ertaklarning filmlarini ko‘rgansiz?
2. Maktab kutubxonasida qanday qiziqarli kitoblar o‘qigansiz?
3. Qaysi asarlarda topqirlik belgilari uchraydi?
4. Uyda ko‘rgan multfilmlaringiz asosida ertak yozing.
5. Qaysi kasblarning rangi haqida bilib oldingiz?



http://eduportal.uz

TINCHLIK VA DO‘STLIK BO‘LSIN BARQAROR



Tilak

Faxriddin Hayit

Oftob mangu sochar nur,
Oy ham mangu yonadi.
Ko‘k ostida ona yer
Koptokdek aylanadi.

Shu zaminda hur, obod,
Bir diyor bor, gul diyor.
Yurtda tinchlik barhayot,
Yurtda barcha baxtiyor.

Naqarot:
Mangu bo‘lsin farovon,
Vatanim O‘zbekiston!

Porlab tursin, oy-quyosh,
Aylanib tursin zamin.

http://eduportal.uz

Shodlikka bo‘lsin yo‘ldosh
Bolalikning har dami.
Har nahorda yangidan
Nur taratsin tog‘ oshib.
Taraqqiyot tongida
Charaqlab baxt quyoshi.

Naqarot:
Mangu bo‘lsin farovon,
Vatanim O‘zbekiston!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. „Ko‘k ostida ona yer koptokdek aylanadi“ misrasini tahlil qiling.

She’rni yod oling.

Ko‘prik ustidagi do‘st

Ulug‘bek Hamdam

(Hikoya)

1

Har gal dala hovlidan qaytayotganimda, yo‘lda ikki yalangoyoq bolakayni uchratar edim. Birining oti – Nikita, ikkinchisiniki esa Umidjon. „Ismlarini qayerdan bila qoldingiz?“ demoqchimisiz? O‘zlaridan-da. Voqea bunday bo‘ldi: hovlimdagi chog‘roq bog‘da ishlab, kechga tomon torgina yo‘ldan shaharga qaytayotsam, muyulishda qo‘qqisdan ro‘paramdan bir mashina chiqib qoldi. Yo‘l chetida bolalar o‘ynab

http://eduportal.uz



o‘tirishardi. Shitob bilan kelayotgan mashinani o‘tkazib yuborish uchun shartta tormozni bosib, mashinani bolakaylarning shundoq tumshug‘iga tirab to‘xtatdim. Ular yalt etib menga qarashdi. Jilmayib qo‘yishdi. Jilmayib deganim juda yumshoq chiqdi, „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman.

– Salom! – dedim men ham bolalarning sevinchidan ta’sirlanib.

– Salom! – deya mashinaning ochiq oynasidan qo‘lini suqdi ularning mallatobi.

– Oting nima seni? – so‘radim men.

– Nikita, – deb javob berdi bola.

– Seniki-chi? – deb so‘radim nariroqda iymanibroq turgan qoramag‘izdan.

– Umidjon!
– Yoshing nechada, Nikita?
– To‘qqizda.
– Seniki-chi, Umidjon?
– O‘n ikkida.
– Bo‘ylaring teng-ku.

Ular javob o‘rniga yana jilmayishdi.

– Xayr, bolalar!
– Xayr, amaki!

Men mashinani yurg‘izib, yo‘limda davom etdim. Odatda, dam olish kunlarim dala hovlida kechadi. Bu yerga kelib-ketarkanman, deyarli har safar Umidjon-u Nikitaga ro‘para keladigan bo‘ldim. Ular ham uzoqdan mening mashinamga ko‘zlari tushishi bilan o‘yinlarini tashlab, ko‘rishish uchun hozirlik ko‘rishardi. O‘z navbatida, men ham beg‘ubor bolalarning shugina istagiga peshvoz chiqmasdan o‘tolmayman: tormozni bosaman, ular chopib kelib, biri sarg‘ish-qizil, boshqasi qoramag‘iz yuzlarida menga tanish, menga qadrdon bo‘lib borayotgan quyoshchalarni porlatgancha birin-ketin qo‘llarini oynadan uzatishadi.

1. Yozuvchi Nikita va Umidjon bilan qanday tanishdi?
2. „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ degan gapni siz qanday tushundingiz?

http://edu.portal.uz

2

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, muyulishdagi ko‘prik ustida ko‘rib qoldim. U yo‘lga ikki ko‘zini tikkancha oftobda javdirab turardi. To‘xtadim. Bolakayning kayfiyati yo‘q edi. Kiyimi rosa kirlangan, yuzida ham quyoshcha aks etmasdi negadir. U mashinaning ochiq oynasidan indamaygina qo‘lini uzatdi.

– Salom! – dedim men.

– Salom! – dedi u.

– Umidjon qani?

– Umidjon mashg‘ulotga ketdi.

– Qachon keladi?

– O‘n ikki-yu o‘ttizda.

Soatga qaradim: mil o‘n ikki-yu o‘ttiz beshni ko‘rsatardi.

– Keladigan vaqti allaqachon bo‘libdi-ku.

– Ha.

– Qachondan beri kutyapsan?

– Ertalabdan beri.

– Qayerda, shu yerda, ko‘prikning ustidami?

– Ha.

– O‘ynagani boshqa bolalar yo‘qmi?

– Bor.

– Nega o‘ynamayapsan?

– Umidjonni kutyapman.

Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomog‘imga bir nima kelib tiqildi. Asta qo‘zg‘alib yo‘limda davom etdim...

http://eduportal.uz

Mening Nikitadek biron do‘stim bormi, deyman xayolan. O‘zim ham biron Umidjonni do‘st tutib, quyoshning tig‘ida Nikita kabi kutdimmi?..



1. Nikita nima uchun g‘amgin edi?
2. Siz Nikitaning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?
3. Ayting-chi, sizning ham shunday do‘stingiz bormi?



Chin do‘st tug‘ishganing bilan teng.



Inson insonga o‘rtoq

Hamidulla Yoqubov

Turob ekdi ko‘k piyoz,
O‘t bosibdi ayni yoz.
O‘tni yulib bir o‘zi,
Toldi barmog‘i, ko‘zi.

Chakkasiga qo‘l tirab:
– Nima qilsam? – der Turob.
Birdan Savri, Sotvoldi
Yordamga kelib qoldi.

Oh, dehqonning vaqti chog‘,
Yeng shimarib uch o‘rtoq
O‘tay boshlar polma-pol,
Top-toza qilar darhol.

Suv, nurga to‘yib piyoz,
Erkin o‘sar beqiyos.

http://edu.portal.uz

Ha, Turob emas yakka,
Tengdoshlar shay ko‘makka.

Inson insonga har chog‘
Qadrdon, ahil o‘rtoq.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda nima haqida gap boradi?
3. Siz o‘rtoqlaringizga qanday ishlarda ko‘-maklashgansiz?

She’rni yod oling.

Qirq ko‘ylagi bor,
Bir tugmasi yo‘q. *(Piyoz)*

Do‘stlikning bahosi

Bu voqea Vyetnamda bo‘lgan edi. Jang paytida yetimxona yoniga bomba kelib tushdi. Bir necha bola og‘ir yarador bo‘ldi. Yaradorlar orasida bir qizchaning ahvoli, ayniqsa, og‘ir edi. Agar unga tezlik bilan qon quyilmasa, halok bo‘lishi mumkin edi. Yaqin atrofda shi-fokorlar bo‘lmagani sababli elchixonadan chet ellik shifokorlarni chaqirtirishga to‘g‘ri keldi. Ular tezlik bilan qizchaning qon guruhini aniq-lashdi. Aksiga olib, shu yerdagilardan biror-tasining qon guruhi qizchanikiga to‘g‘ri kelmas ekan. Shifokorlarning bolalardan yordam so‘rash-dan boshqa ilojlari qolmadi. Ular yarim vyet-namcha, yarim inglizcha qilib maqsadlarini bo-

http://edu.portal.uz

lalarga tushuntirishdi. Qon berishga kim rozi ekanligini so‘rashdi. Barcha bolalar jim bo‘lib shifokorga tikilib qoldilar. Shu payt bir bolakay qo‘lini ko‘tardi-yu, tushirdi, keyin yana ko‘tardi. Shifokorlar unga minnatdorchilik bildirib, tezlik bilan yotqizib, tomiridan asta qon ola boshladilar. Bir mahal bolaning ko‘zidan yosh oqa boshladi. Hamshira uning ahvolini so‘ragan edi, yig‘idan to‘xtadi, lekin birozdan keyin yana yig‘lay boshladi. Hamshira xavotirda: „Muolajani to‘xtataymi?“ – deb imo-ishora bilan so‘radi. Bolakay „Yo‘q“, dedi. Ammo yig‘isini to‘xtata olmas edi. Shu vaqt vyetnamlik hamshira kelib qoldi. U bolakay bilan bir necha og‘iz gaplashdi. Bolaning yuzi yorishib, yig‘idan to‘xtadi. Chet ellik shifokorlar gap nimada ekanini bilmoqchi bo‘lishdi. Shunda vyetnamlik hamshira: „Bu bolalar sizni to‘g‘ri tushunishmabdi. Qizchaning hayotini saqlab qolish uchun hamma qonni berish kerak, deb o‘ylashibdi. Bu bolakay esa rozi bo‘lib, endi o‘lyapman, deb o‘ylagan ekan“, – debdi. Shunda shifokorlar: „Unday bo‘lsa, nega rozi bo‘libdi?“ – deb so‘rashdi. Hamshira bolakay bilan o‘z tilida gaplashdi, so‘ng davom etdi: „Men unga siz bergan savolni bersam, biz do‘stmiz, dedi“.

„Tarbiya kitobi“dan

http://edu.ziyonet.uz

1. O‘zi mehrga zor bo‘lgan bu bola haqida nima deysiz?
2. Siz yaqin do‘stlaringizdan yordam so‘raganmisiz?

Tinchlik ko‘chasi

Kavsar Turdiyeva

Menda sira so‘lmas gullar,
Qushlar yayrar chamanda.
Qizlar esa qo‘g‘irchog‘in
Ismin qo‘yar Samanta.

Tinchlik – hayot poydevori,
U orzu qay dillarda.
Shuning uchun takror-takror
Jaranglaydi tillarda.

Ahillik ko‘chasi

O‘rtamizdan o‘tmas qil,
Biz ahilmiz, ha, ahil.
Bu his kundan kun oshar,
Bizda har kuni hashar.
Bitmayaptimi uying?
Boshlanyaptimi to‘ying?
Darsdan oldingmi ikki?
Yo boshqa ishing chakki?
Demak, bil shu on, shu dam,
Yetib keladi yordam.
Barcha-barcha ko‘chalar,

http://eduportal.uz

Urishganlar nechalar.
Havas bilan qarashar,
Bizga kelgach yarashar.



1. She’rlarni ifodali o‘qing.
2. Tinchlik va ahillik ko‘chasining qaysi xislatlarini bilib oldingiz?



She’rlarni yod oling.



Oq tumshuq jasorati

Hamidulla Murodov

(Hikoya)

1

Yozning o‘rtalari. Havo dim. Yo‘l yurib charchagan Azamat o‘tovga kirib, o‘rtaga tashlangan ko‘rpachaga cho‘zildi: „Birozgina mizg‘ib olsam“. Ko‘zi ilingan ekan, o‘tov yonidagi soyada yotgan Oq tumshuqning vovullashidan sergaklanib ko‘zini ochdi. Erinibgina yon-atrofni kuzatdi – hech narsa ko‘rinmadi. „Oq tumshuq hurib, uyqumni ham beliga tepdi-da“, deb itdan o‘pkalandi ham. Keyin iltijoli ohangda „Jim bo‘l, jim, Oq tumshuqjon!“ – dedi.

Bechora it Azamat yotgan o‘tovdan biroz naridagi supacha soyasiga borib yotdi.

Lekin ko‘p yotolmadi, yana ortiga qaytdi, qattiq-qattiq irilladi. Azamat yana itni jerkib tashladi.

http://edu.portal.uz



– Irillamay nari bor, charchaganman, biroz dam olay, nari bor! Bor! Bor!..

Oq tumshuq nari ketishga ketdi-yu, ko‘p o‘tmay yana qaytdi. Qaytdi-yu, kela solib endi o‘tovning o‘zi boya etigini yechib qo‘ygan joyiga uzala tushib yotib oldi.

– Voy, ahmoq it, nari haydagan sari o‘zim tomon yaqinlashadi-ya...

U yana noiloj o‘rnidan turdi. Itni o‘zidan nariga haydashga tutindi. Keyin oyog‘iga biron narsa kiyib olish maqsadida o‘tov eshigi tomon yurdi. It ketmadi, qaytanga Azamat itni haydashga tushsa, yonida bo‘lishga intilardi.

Azamat yechgan etigini kiymoqchi bo‘lib etikka qo‘l cho‘zdi. Oq tumshuq bo‘lsa, undan

http://kutubxona.uz

oldin etikka chang solib, joyidan ancha nariga otib yubordi. Otilgan etik ancha nariga borib tushdi.

Azamat itning qilig‘i sirini tushuna olmadi, aksincha unga buyruq ohangida gapirdi.

– Oq tumshuq, bor etigimni olib kel! Tez! Oq tumshuq bo‘l...



1. Oq tumshuq nima uchun bezovta bo‘ldi?
2. Azamat itga qanday munosabatda bo‘ldi?

2



Oq tumshuq uning gapini anglaganday etik tomon yurdi. Oldiga borganda esa bir qattiq irilladi-da, etikni qo‘njidan emas, poshnasi tomonidan tishlab torta boshladi. Azamat qandaydir xavfni anglaganday bo‘ldi. „Nahotki etikda biron narsa bo‘lsa?“

Nahotki degan o‘yda u qo‘liga ukalari o‘ynab shu joyda qoldirishgan o‘zining cho‘ponlik tayog‘ini oldi. Olishga oldi, birdan ko‘zi etik og‘zidan chiqib turgan boshga tushdi: „Ilon! Ilonning boshi! Ilon...“ U hammasini tushundi. Ilon etik ichiga kirib olgan ekan. Agar Azamat etikni olib kiyganda bormi, hozir nima bo‘lishini ko‘z oldiga keltirdi. Darrov qo‘lidagi tayoq bilan etikda ko‘ringan ilon boshiga zarba berdi. Zarba qattiq bo‘lmadi chog‘i, ilon etikdan chiqib ketish uchun bemalol o‘rmalay boshladi. Bu shu joylarda ahyon-ahyonda uch-

http://eduportal.uz

rab turadigan zaharli qora ilon edi. Azamat bu gal urishda naqd boshini mo‘ljallab urdi.

Zarba qattiq bo‘ldi shekilli, ilon darrov g‘ujanak bo‘lib olib, o‘zini himoyalashga urindi. Zarbalarning biri tegib, biri tegmasdi. Shunday bo‘lsa ham u ilonning duch kelgan joyiga urar, ilon bo‘lsa jon holatda vishillar, Azamatning zarbalaridan qochishga intilardi. Oq tumshuq bu zarbalarning biri ilonga tegib, boshqasi tegmay qolayotganini sezdimi, yo ilon qochib qolishni rejalaganini bilib qoldimi, bir sapchib, ilonning bo‘ynidan tishlab oldi. It bir necha bor bir tishlagan joyini qayta-qayta tishladi. Oxirgi tishlaganda bir siltadi-yu, o‘zidan biroz nariga otib yubordi. Ilon borib tushgan joyida ortiq qimirlamadi. U o‘lgan edi.

– E, Xudoyim-ey, bir asrabdi-da meni, – dedi Azamat it yoniga kelgach, uning boshini minnatdorlik bilan silab. – Seni jerkib-jerkib tashlaganim uchun kechir, sen... sen mening jonimni asrab qolmoqchi ekansan-a, Oq tumshug‘im! Vafodor itim!..



1. It Azamatga qanday yordam berdi?
2. Itning vafodorligini qanday baholaysiz?
3. Siz uyda qanday hayvonlar parvarish qilasiz?



http://e-support.uz

Vatan haqida qo‘shiq

Ulug‘bek Hamdam

(Hikoya)

Qirrador do‘ppi kiyib olgan, istarasi issiq oqsoqol bolakayning qo‘lidan mahkam ushlab olgan ko‘yi mamlakatning bosh shahriga kelib tushdi. Otaxon bolajonni to‘g‘ri „Xotira“ maydoniga yetakladi. Ular sakkiz qirrali yulduz ichra gurullab yonib turgan olovni aylanib o‘tdilar-da, „Motamsaro ona“ haykali qoshida bir muddat to‘xtab, o‘yga cho‘mdilar. Bobo pichirlab duo o‘qidi, so‘ng birgalashib naqshinkor ayvon tomon yurdilar.

– Vuy, anavi kitoblarni!.. – hayratini yashirolmadi bolakay.

– Ha, ajoyib-a! – nabirasining zavqiga sherik bo‘ldi bobo ayvon devorlariga o‘rnatilgan oltinrang ulkan mis kitoblarni avaylab varaqlarkan. – Hamdamov K. 1918 – 1943, – o‘qidi bobo ovoz chiqarib. Keyin o‘qigan joyiga ko‘rsatkich barmog‘ini eltib: – Bolam, bu kishi mening otam, sening esa katta bobong bo‘ladi, – dedi.

– Bobo, nega katta bobo bu yerda, kitobning ichida? – so‘radi nabira qiziqib.

– Chunki u kishi urushda halok bo‘lgan. Vatanimizga bostirib kirgan dushmanga qarshi jangda…

http://eduportal.uz

– Bobo, yana gapirib bering.

Bobo o‘yga toldi. Ammo hozir negadir o‘z otasi qismatini emas, balki elining uzoq tarixida yuz bergan boshqa bir voqeani hikoya qilib bergisi keldi. – O‘shanda ham ulkan yov qo‘shini yurtga bostirib kirib, qo‘li baland keladi-da, vatandoshlarimizni qamal qilib oladi. Qamal oylab davom etgani bois, ichkarida na yegulik qoladi, na ichgulik. Axiyri, yurt xoqoni xalqiga qarab: „Nima qilaylik? Taslim bo‘lib xotin-qizlarimiz jonini omon saqlab qolaylikmi yo urushib barchamiz halok bo‘laylikmi?“ deya murojaat qiladi. Ko‘pchilik bir ovozdan „Taslim bo‘laylik, yo‘qsa, qamalda ochlik va suvsizlikdan baribir o‘lib ketamiz“, deydi. Faqatgina bir temirchi yigit „Yo‘q!“ deydi. U yovga taslim bo‘lib, Vatan sha’nini bulg‘ashdan ko‘ra, uni himoya qilib o‘lishni afzal ko‘radi. Dushman qo‘shini tomon bir o‘zi jangga otiladi.

– Keyin-chi, keyin? Jangda kim yengadi bobo, kim? – shoshiradi boboni nabirasi.

– Albatta, vatandoshlarimiz, turonliklar! O‘sha temirchining ismi Turon edi. Turonliklar sen bilan mening bobolarimiz, momolarimiz bo‘lgan, bolam.

Bobo hikoyasini tugatgandan so‘ng, uzoq muddat sukutga cho‘mdi. Bolaning bo‘lsa, nigohlarida hayrat qotib qolgandi. Birpas o‘tib, bobo yana davom etdi:

http://edu.ziyo.uz

– Bu – Vatan haqida qo‘shiq bo‘ladi, bolam. Uni yodlab olgin-u, aslo unutmagin. Kun kelib esa, uni hikoya qilib berish gali senga yetadi.

1. Bobo nabirasiga qanday voqeani hikoya qilib berdi?
2. „Bu – Vatan haqida qo‘shiq bo‘ladi, bolam. Uni yodlab olgin-u, aslo unutmagin“, deganda nimani angladingiz?

May dasturxoni

Go‘zal Begim



Chalib nog‘ora, karnay,
Dasturxon yozibdi may.
Mehmonlari bir talay
Kelishsin-da kechikmay.

Sim qoqibdi qulupnay,
Olchaga der: „Aylanay,
Boramizmi bazmga?
Gilosxon yonimda shay!“

Tut to‘kilibdi tap-tap,
Dovcha kelibdi sakrab.
O‘rik, olma sal shoshib,
Borar daraxt, bog‘ oshib.

Bodringjon va rediska
Yo‘l yuribdi har kecha.
Sabzi, piyoz, bulg‘ori
Sabzavotlar ilg‘ori.

http://edu portal.uz

Ko‘k ko‘ylak kiygan karam
Etagi par-par biram.
Pomidor kartoshkaga
Der: „Hammadan men ko‘rkam“.

Qovun, tarvuz palakda,
Anor xola pinakda.
Uzum „oh“ tortib qo‘yar,
Mayning tirnog‘in bo‘yar.

Barcha izzat-ikromda
Qozonxon-u likopda.
Etakchasin taqib may,
Xizmat qiladi tinmay.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rda mevalar, sabzavotlar, poliz ekinlari haqida nimalar deyilgan?



Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh! desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman“. Bu jumla qaysi hikoyada uchraydi?
2. Ko‘chalar ta’rifi qaysi shoir ijodida uchraydi?
3. „Oq tumshuq“ hikoyasida it egasini qanday qutqarib qoldi?
4. „Chin do‘st“ mavzusida matn tuzing.



http://eduportal.uz

YOZ – O‘TADI SOZ



Yoz zavqi

Ravshan Isoqov

Yoz boshqacha-da. Nega deysizmi? Axir o‘quvchilar o‘quv yilini tugatib, eng katta ta’-tilga chiqishadi-da.

Yozda ertalabdanoq quyosh qizdira boshlay-di. Kunlar uzundan uzun, tunlar bir tutam – qisqa bo‘ladi. Bog‘larda mevalar pishadi. Poliz-lardagi pishiqchilikni aytmaysizmi?

Yoz bizning o‘lkamizda issiq bo‘lsa ham, nega unda bolalar yozni yoqtirishadi? Chunki ta’til paytida bolalar go‘zal tabiat quchog‘ida joylashgan oromgohlarda, tog‘ yonbag‘irlarida

miriqib dam olishib, kuch-g‘ayratga to‘lib, sentabrda yana maktabga qaytishadi.

Yozda yana suvlar iliq bo‘ladi. Bunday suvlarda, ayniqsa, tog‘lardan oqayotgan zilol, muzdek suvlarda cho‘milish maza-da! Ko‘l va anhor bo‘ylari, cho‘milish havzalari sho‘x va shodon bolalarning beg‘ubor qiyqiriqlariga to‘lib ketadi. Istirohat bog‘lari har qachongidan gavjum bo‘ladi. Turli atraksionlarda uchib, muzqaymoq yeyishga nima yetsin.

Yoz oqshomlarida hech osmonga qaraganmisiz? Yulduzlarning ko‘pligini...

Bunday tunda hovlida, ariqchadan shildirab oqayotgan suvning qo‘shig‘iga quloq tutib, xayol surib yotish, shirin orzularga berilish qanday maza-ya!

1. Bolalar yozni nima uchun sevishadi?
2. Siz yozgi ta’tilni qanday o‘tkazmoqchisiz?

Hayvonot olamiga sayohat

Sharifa Salimova

Gorilla

Haybatimdan hurkadi ot,
O‘rmon ketar zirillab.
Atrofimda shimpanzelar
Xizmat qilar pirillab.
Maymunchalar sho‘xlik qilsa,
Pand-nasihat qilaman.


http://edu.ziyonet.uz

Bezorilik qilganlarning
Jazosini beraman.
U daraxtdan bu daraxtga
Qushdek uchib yuraman.
Yiqilmasin bolajon deb,
Kaftim tutib turaman.
Salqin o‘rmon, toza havo
Mening jon-u dilimdir.
Bilsang bolam, sog‘lom yashash
Eng sehrli ilmdir.



Sher

Sher tilida sherlar bilan
So‘yla, bolam.
Erkalanib shamol bilan
O‘yna, bolam.
Endi-endi kuchga to‘lib
Bormoqdasan.
Bir zarb bilan o‘ljang tortib
Olmoqdasan.
So‘zim shulki, ajdoding kim,
O‘yla, bolam
Shaqallarni o‘rmoningga
Qo‘yma, bolam.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Siz hayvonot bog‘iga borganmisiz?
3. Yovvoyi hayvonlardan qaysilarini bilasiz?

http://eduportal.uz

Iloncha ning tug‘ilgan kuni

Shukrullo Abdullayev

(Ertak)

Bugun Iloncha yana-da xushchaqchaq. Chunki bugun uning tug‘ilgan kuni. U har kungi odatiga ko‘ra, tonggi badantarbiyani boshladi. Bir u tomonga, bir bu tomonga bilanglab, „Bir-ikki, bir-ikki“, deb mashq qildi. Kulcha bo‘lib, u yoqdan bu yoqqa dumaladi. Oxirida chiniqish uchun yonidan oqib o‘tayotgan anhorga bir sho‘ng‘ib chiqdi. „Sog‘ tanda – sog‘lom aql“, deb qo‘ydi u o‘ziga o‘zi. Shu vaqt ortidan do‘stlarining jo‘r bo‘lib aytgan „Tabriklaymiz! Tabriklaymiz!“ – degan xitoblarini eshitdi. Bir vaqt ortiga qarasa, do‘stlari – erkatoy to‘tiqush Ruri-Ruri, sergap maymuncha Moli-Moli, chopqir shalpangquloq quyonvoy Chopi-Chopi, rahmdil tipratikan Tipa-Tipa, tinib-tinchimas mitti olmaxon Saki-Saki qo‘llarida mo‘jazgina sovg‘alari bilan turishardi.

– Do‘stlarim, sizlarni ko‘rganimdan bag‘oyat shodman, – deya Iloncha quvonib ketdi.

Shundan so‘ng Ilonchani tabriklash marosimi boshlandi. Do‘stlar navbat bilan kelib, Ilonchaga o‘zlarining sovg‘alarini tuhfa eta boshladilar.

– Do‘stim, – dedi to‘tiqush Ruri-Ruri gapini dona-dona qilib, – sen uchun o‘rmondagi

http://e-dtportal.uz

kitob do‘konidan „Ertaklar olami“ni alohida tanlab oldim. Buni o‘qigach, sen ulg‘ayib, eng donishmand ilonga aylanasan.

– Rahmat, – dedi Iloncha, – qiziqarli ertaklarni juda-juda yaxshi ko‘raman. Biroq hali o‘qishni bilmayman-ku.

– Hech-qi-si yo‘o‘q! – dedi to‘tiqush Muri-Muri gapni cho‘zib gapirgancha, – senga hammamiz bir bo‘lib, o‘qishni o‘rgatamiz.

– Bu senga, – dedi sergap maymuncha Moli-Moli Ilonchaga bir juft krossovka uzatarkan.

– Zo‘r-ku, – dedi Iloncha sovg‘adan ko‘zi quvnab, – men xuddi shunaqasini orzu qilardim. Ayniqsa, bunda sport bilan shug‘ullanish yanada zavqli. Rahmat senga, do‘stim.



http://edu.portal.uz

– Mana bu ko‘zoynakni taqsang, haqiqiy ko‘zoynakli ilonchaga aylanasan va dono bo‘lib ko‘rinasan, – deya chopqir shalpangquloq quyonvoy Chopi-Chopi sovg‘asini uzatdi.

– Ko‘zoynakning chiroyliligini qara. Shu bilan birga, bu ko‘zlarimni oftobdan ham himoya qiladi, – dedi Iloncha shodon bo‘lib.

– Tug‘ilgan kuning bilan tabriklayman. Olgin-u, oldirma, nasibangni yerda qoldirma. Cho‘milib, oftobda toblanayotganingda mana bu soyabon senga rosa kerak bo‘ladi, – deya rahmdil tipratikan Tipa-Tipa Ilonchaga soyabon sovg‘a qildi.

– Mana buni haqiqiy sovg‘a desa bo‘ladi, – xursand bo‘lib ketdi Iloncha. – Bu meni yomg‘ir va qordan, quyosh nuridan himoya qiladi. Endi men soyabon ostida do‘stlarim bilan yomg‘ir yog‘ayotganda ham kitob o‘qishim mumkin.

Olmaxon Saki-Saki Ilonchaga olib kelgan qo‘lqopni tuhfa qildi:

– Do‘stim, bu qo‘lqop seni sovuqdan asraydi.

– Rahmat, kuyunchak do‘stim olmaxon, sovg‘angdan boshim ko‘kka yetdi.

Iloncha bu damlarda g‘oyat shod edi. Bunga sabab, avvalo, tug‘ilgan kuni, keyin esa barcha do‘stlari uning yonida ekanligi ko‘nglini quvonchga to‘ldirardi.

http://edu.portal.uz

Shu vaqt osmondan Turnavoyning „qur-qur“i eshitildi. U Ilonchaga tumshug‘ida kattakon bir tortni olgancha uchib kelardi.

– Iloncha, tug‘ilgan kuning qutlug‘ bo‘lsin! Oramizdagi do‘stlik aslo yo‘qolmasin, – deya Turnavoy Ilonchani qutladi.

– Rahmat, Turnavoy, – dedi Iloncha, – men bugun juda ham baxtiyorman. Chunki mehribon do‘stlarim davrasidaman. Mana qara, sen kabi do‘stlarim menga ajoyib sovg‘alarni olib kelishdi, – deya Iloncha Turnavoyga do‘stlarining sovg‘alarini ko‘rsata boshladi.



1. Ertakni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Ilonchaga do‘stlari qanday sovg‘alar olib kelishdi?



2

– Mana bu ertaklar kitobini, erkatoy to‘tiqush Ruri-Ruri tuhfa qildi. To‘g‘ri, men hozir o‘qishni bilmayman. Ammo siz – do‘stlarim, menga o‘qishni o‘rgatasiz. Shundaymi?!

– Albatta! – deyishdi barchalari jo‘r bo‘lib.

– Mana bu krossovkani sergap maymuncha Moli-Moli sovg‘a qildi. Buni men kiyib, miriqib futbol o‘ynayman. Chunki u bilan rosa tez chopaman…

Iloncha shunday dedi-yu, krossovkani oyoqlariga kiymoqchi bo‘ldi, ammo u oyoqlari yo‘q-

http://eduportal.uz

ligidan xijolat tortib qoldi. Hamma jim bo‘lib qoldi. Quyonvoy shu vaqtda Ilonchaning ko‘nglini ko‘tarishga kirishdi:

– Iloncha, to‘g‘ri, sen tez chopolmasliging mumkin. Ammo sen shiddat bilan o‘rmalaganingda, hatto mendek chopag‘onni ham ortingda qoldirib ketasan.

Barcha do‘stlar Quyonvoyni qo‘llab, Ilonchaning ko‘nglini ko‘tarishdi.

Ilonchaning bundan chiroyi yorishib ketdi.

– Quyonvoy, – dedi shunda Iloncha, – gaping to‘g‘ri. Kel, yaxshisi, shu krossovkani senga sovg‘a qilay. Sen buni kiyib astoydil shug‘ullanasan, sendan umidimiz katta, sen yugurish bo‘yicha hali o‘rmon chempioni bo‘lishing lozim.

– Mayli, sen aytgancha bo‘la qolsin, – dedi Quyonvoy. – Ammo shuni bilib qo‘y, men o‘rmon chempioni bo‘lib tanilib ketganimdan so‘ng birinchi bo‘lib senga dastxat beraman, xo‘pmi?!

Quyonvoy krossovkani kiyib, u yoqdan bu yoqqa yugurib ko‘rdi va „Juda qulay!“ – deya qo‘shib qo‘ydi.

– Mana bu ko‘zoynak Quyonvoyning sovg‘asi, – dedi xursand bo‘lib Iloncha. Shu damda u ko‘zoynakni taqmoqchi bo‘ldi. Shunda o‘ylanib qoldi: „Ko‘zoynak taqish uchun

http://eduportal.uz

quloqlar bo‘lishi kerak. Ammo menda ular yo‘q. Shu sababli uni Maymunchaga sovg‘a qilganim yaxshi“.

– Men bu ko‘zoynakni Maymunchaga sovg‘a qilaman, – dedi saxiy Iloncha. – U ko‘zoynak taqib, daraxtlar ustida o‘tiradi va uzoqdan kimlar kelayotganligini bizga aytib turadi.

Sergap maymuncha Moli-Moli ko‘zoynakni taqib u yoniga, bu yoniga, tepaga qaradi va tishlarini chiqarib, lunjini shishirib, chapak chalib kuldi.

Tipratikan unga qarab:

– Qoyil, naq professorning o‘zi bo‘lding! – dedi.

– Mana bu soyabonni Tipratikan olib keldi, ammo men uni ko‘tarib yurolmayman. Chunki astoydil o‘rmalagan chog‘imda soyabonni tutib turolmayman. Shu sababli soyabonni Olmaxonga sovg‘a qilaman. Olmaxon ba’zan yong‘oqlarni terayotganda yomg‘ir quyib yuboradi. Bu bilan u yomg‘irda ham bemalol yong‘oq teraveradi.

Olmaxon bundan xursand bo‘lib, shoxlar ustida dikir-dikir o‘yinga tusha boshladi:

– Endi mening ham soyabonim bor!

– Mana bu qo‘lqopni Olmaxon sovg‘a qildi. Buni Tipratikanga beraman. Chunki u turli

http://eduportal.uz

mevalarni o‘rmondan terib kelib, barchamiz uchun shirin murabbolar tayyorlaydi.

Unga shirinliklarni tayyorlashda mana bu kabi nozik va ixcham qo‘lqopcha kerak.

– Iloncha, aslida biz sening tug‘ilgan kuningga sovg‘alar olib kelgandik, biroq buncha-lar ko‘p hadyalar bilan uyga quvonib ketish xayolimizga ham kelmagan ekan. Aytganing-dek, sen bergan qo‘lqopcha orqali mevalardan shirin murabbolar tayyorlayman.

– Xullas, do‘stlarim, endi navbat Turnavoy olib kelgan tortga! – dedi iloncha.

Ha, bunday antiqa tug‘ilgan kunni shu vaqt-gacha hech kim ko‘rmagan ekan.

Chunki tug‘ilgan kunga do‘stiga sovg‘a ko‘-tarib borgan mehmonlar o‘z uylariga o‘zgacha tuhfalar bilan qaytibdilar. Bu kunni ko‘p yillar-dan beri o‘rmon jonzotlari bir-birlariga gapirib yurisharkan.

1. Ertakdan qanday xulosaga keldingiz?
2. Ertak qahramonlarini rasmda aks ettiring.

O‘quvchilar oromgohida

Anvar Obidjon

Bahodir dam olishga
Ketmoqda edi.
Kuchukchasi:

http://edu.ziyo.uz

„Vov... Men ham
Boraman“, dedi.
Ola ketdi bolakay,
Do‘stini birga.
Tushda yetib borishdi
Ko‘m-ko‘k adirga.
Bahodirni e’zozlab,
Kutib olishdi.
Kuchukni ham tez kunda
Sevib qolishdi.
Chunki qo‘shiq mashq qilsa,
Bolalar agar
Akillardi jo‘r bo‘lib,
Quvnoq Olapar.
Goh hammaga qo‘shilib,
O‘ynardi futbol.
U yoki bu tomonga
Urar edi gol.
Shaxmatga ham ozmi-ko‘p
Yetardi fahmi –
Ko‘p yutqazgan bolaga
Kelardi rahmi.
Sanalardi sayilda
Jasur safboshi.
Boshqalardan qattiqroq
Edi bardoshi.
Turar edi qatorga
Tizilganda saf.

http://edu.portal.uz

Ovqat haqda gap ketsa,
Yalar edi lab.
Bo‘ysunardi tartibga,
Chalinsa gorn –
Darrov so‘ri ostidan
Olardi o‘rin.
Uni maqtar edilar
Qorovul, farrosh:
– Buncha esli bo‘lmasa!..
– Bunchayam yuvosh!..
Yangi do‘stlar topib u,
Edi shod-xurram.
Afsus, o‘tib ketarkan
Tezda bir oy ham.
Ketar payti xushlashib
Qoldi bolalar:
– Seni eslab yuramiz...
– Xayr, Olapar!



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Bolalar oromgohda qanday dam oldilar?
3. Nima uchun bolalar Olaparga „Seni eslab yuramiz“, deyishdi?
4. Siz yozgi ta’tilni qanday o‘tkazmoqchisiz?



http://eduportal.uz

MUNDARIJA

Biz buyuk yurt farzandimiz

Vatan madhi. *Orif To‘xtash* 3
Yurtim jamoli. *Dilshod Rajab* 4
Yangi uy. *Hamidulla Murodov* 6
Vatan desam... *Ulug‘bek Hamdam* 8
Opa-singil daryolar. *Go‘zal Begim* 9
Obod mahalla bo‘ylab. *Kavsar Turdiyeva* 12
Vatanni tanish. *Muhabbat Hamidova* 13
Savollarga javoblar. *Xolmurod Safarov* 15
Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi. *Xudoyberdi To‘xtaboyev* 16
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 18

Saxovatli kuz

Kuz saxovati. *Sharifa Salimova*. 19
Uzumlar oilasi. *Tolib Yo‘ldosh.* 20
Olma. *Mahmud Murodov*. 22
Fasllar. *Ravshan Isoqov*. 24
Bobur va kabutar. *(Rivoyat)*. 25
O‘qituvchining o‘gitlari. *Anvar Obidjon*. 27
Xazonchinak. *O‘tkir Hoshimov*. 28
Hosil bayrami. *Zahro Hasanova*. 30
Ilmli ming yashar. *Nurmat Maqsudiy*. 31
Oltin kuzim. *Po‘lat Mo‘min*. 33
Qizcha va qarg‘alar. *Normurod Norqobilov*. 34
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 36

http://eduportal.uz

Maktabim – qutlug‘ makonim, Kitobim – buyuk imkonim

Kitob, mening do‘stimsan. *Zafar Diyor*. 37
Vaqting ketdi – naqding ketdi. *Kavsar Turdiyeva* 38
Donishmand quyon va kichkintoy jirafa. *Faxriddid Hayit* 42
Ona tilim. *Tursunboy Adashboyev* 43
Unutilmas bayram. *(Hikoya). Erkin Malikov* 45
Xo‘roz nega uchmaydi. *Zulfiya Mo‘minova* 46
Hisobda adashgan bola. (*Hikoya*) *Zamira Ibrohimova* 49
Chalavoyning to‘la tushi. *Olqor Damin*. 52
Jumboq hikoya. *Muhabbat Hamidova* 54
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 55

Hunar – hunardan rizqing unar

Hunarni sev. *Tolib Yo‘ldosh* 56
Bahs. *Sunnatilla Anorboyev* 57
Mohir qo‘llar qo‘shig‘i. *Tolib Yo‘ldosh* 60
Ilmning omonati. *(Rivoyat)* 61
Bordir kulol amakim. *Obid Rasul* 62
Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi? *Mirzakalon* Ismoiliy 64
O‘n tilla mukofot haqida ertak. *Anvar Obidjon* 66
G‘oz – hunaring oz. *Sobit G‘afurov* 69
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 71

Go‘zal qish manzarasi

Kumush fasl. *Zikrilla Ne’mat* 72
Qor alyori. *Dilshod Rajab* 74
Chana. *O‘tkir Hoshimov*. 75
Qish ham chiroyli. *Quddus Muhammadiy* 77
Bosh qomus kitobimiz. *Dilshod Rajab* 79
Qish ertagi. *Aziza Ahmedova* 80
Laylak qor. *Orif To‘xtash* 85

http://eduportal.uz

Qish bo‘lmasa-chi? *Yayra Sa’dullayeva* 86
Momiq qor. *Po‘lat Mo‘min* 88
Qorparcha. *Oydinniso* 89
Ayamajiz. *Qudrat Hikmat* 93
Qorboboga elektron maktub. *Zamira Ibrohimova* 94
Yangi yil archasiga. *Dilfuza Komoljonova* 96
Bo‘lim yuzasidan takrorlash. 97

Vatan himoyachilari

Vatanimga xizmat qilaman. *Zikrilla Ne’mat* 98
Balli buva. *Yusuf Fayzullo* 99
Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz *(Suhbat)*. 101
Sport maktabi. *Anvar Obidjon* 103
Bobonur. *Safar Barnoyev* 104
Notinch mamlakatlarda. *Zahro Hasanova* 106
Vatan himoyachisi. *Shukrullo Abdullayev* 107
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 109

Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik

„Qutadg‘u bilig“ hikmatlari 110
Jaloliddin Manguberdi. *Mirkarim Osim* 111
Buyuk bobomizning buyuk himmatlari.
Xudoyberdi To‘xtaboyev 112
Alpomishning bolaligi. *(Ertak)* 115
So‘nggi damgacha. *Abdusodiq Irisov* 117
Ibn Sinoning shogirdlari. *(Rivoyat)* 118
Bolari bilan pashsha. *Abdulla Avloniy* 120
Donolarning donosi. *Abduqodir Hayitmetov* 121
Bolam. *Berdaq* 123
Baxilning yomonligi *(Rivoyat)* 124
Lol bo‘lgan tulki. *Yamin Qurbon* 125
Sayilda. *Mirzo Karim* 126
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 127

http://eduportal.uz

Xalq ogʻzaki ijodi

Oʻyin qoʻshiqlari

Sanama ... 128
Chillak ... 128
Chittigul ... 129
Arra-marra. ... 130
Maqollar ... 131
Topishmoqlar ... 132
Qush ini. *(Rivoyat)* ... 133
Halollik. *(Oʻzbek xalq ertagi)* ... 135
Donishmand yigit. *(Oʻzbek xalq ertagi)* ... 137
Ahillik – ulugʻ baxt. *(Qirgʻiz xalq ertagi)* ... 139

Zumrad bahor nafosati

Siz bunga qodirsiz. *Yusuf Fayzullo* ... 141
Bahor yaqin. *Zafar Diyor* ... 143
Oyijonlar, onalar. *Kavsar Turdiyeva* ... 144
Tabiat bilan suhbat. *(Rivoyat)* ... 145
Bahor keldi. *Quddus Muhammadiy* ... 147
Varrak. *Yoʻldosh Shamsharov* ... 148
Soy suvi haqida ertak. *Zohir Aʼlam* ... 151
Bogʻim. *Habib Rahmat* ... 152
Beminnat yordam. *(Rivoyat)* ... 153
Navroʻz keldi. *Dilshod Rajab* ... 154
Boʻlim yuzasidan takrorlash ... 155

Jahon bolalar adabiyoti

Myunxauzenning boshidan kechirganlari. *Erix Raspe* ... 156
Moychechak. *Tavfiq Fikrat* ... 160
Uch aka-uka va baxt. *Ilvira Daukayeva* ... 161
Kasblarning rangi qanaqa? *Janni Rodari* ... 165
Pinokkioning sarguzashtlari. *Karlo Kollodi* ... 166
Anbe va Ranbe. *(Hind xalq ertagi)* ... 170
Bahs. *Anvarbek Duysinbiyev* ... 173
Mittivoy va Karlson. *Astrid Lindgren* ... 174

http://eduportal.uz

Dog‘da qolgan qarg‘a. *(Laos xalq ertagi)* 178
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 180

Tinchlik va do‘stlik bo‘lsin barqaror

Tilak. *Faxriddin Hayit* 181
Ko‘prik ustidagi do‘st. *Ulug‘bek Hamdam* 182
Inson insonga o‘rtoq. *Hamidulla Yoqubov* 186
Do‘stlikning bahosi. *„Tarbiya kitobi“ dan* 187
Tinchlik ko‘chasi. *Kavsar Turdiyeva* 189
Ahillik ko‘chasi. *Kavsar Turdiyeva* 189
Oq tumshuq jasorati. *Hamidulla Murodov* 190
Vatan haqida qo‘shiq. *Ulug‘bek Hamdam* 194
May dasturxoni. *Go‘zal Begim* 196
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 197

Yoz – o‘tadi soz

Yoz zavqi. *Ravshan Isoqov* 198
Hayvonot olamiga sayohat. *Sharifa Salimova* 199
Ilonchaning tug‘ilgan kuni. *Shukrullo Abdullayev* 201
O‘quvchilar oromgohida. *Anvar Obidjon* 207

http://edu.portal.uz

81.2-93
O‘ 97

Umarova M.
O‘qish kitobi [Matn] : 3- sinf uchun darslik / M. Umarova, X. Xamrakulova, R. Tojiboyeva; mas’ul muharrir U. Hamdamov. 4-nashri. – Toshkent : „O‘qituvchi“ NMIU, 2019. – 216 b.

ISBN 978-9943-22-349-3

UO‘K: 373.3.016:821-82(075.2)
KBK 81.2-93

MUHABBAT UMAROVA
XURSHIDA XAMRAKULOVA
RA’NO TOJIBOYEVA

O‘QISH KITOBI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
3- sinfi uchun darslik

4-nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019

Muharrir *Z. Inyaminova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Ahrorova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018.
Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 29.04.2019. Bichimi $70\times90^{1}/_{16}$.
Kegli 14 shponli. AG Helvetika garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 15,79. Hisob-nashriyot t. 9,7.
Adadi 64 083 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy.
Shartnoma № 234 – 18

http://eduportal.uz

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

http://edu portal.uz